

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

# **ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2020-4/2**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2020**

**Бош муҳаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

*Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Тахрир хайати:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

*Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.*

*Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.*

*Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.*

*Бабадҷанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.*

*Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.*

*Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.*

*Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.*

*Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.*

*Қодиров Шавкат Юлдашевич, қ/х.ф.н.*

*Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.*

*Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.*

*Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.*

*Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.*

*Рўзбоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.*

*Рўзимбоев Сапарбой, ф.ф.д., проф.*

*Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.*

*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*

*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*

*Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.*

*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик*

*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*

*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*

*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*

*Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*

*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*

*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*

*Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/2(60), Хоразм Маъмун академияси, 2020 й. – 108 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2020

## МУНДАРИЖА

### ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<b>Yovqochev Sh.Sh.</b> Xalqaro moliya institutlari va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy hamkorligi doirasidagi muammolar .....	5
<b>Азаматова Г.Б.</b> Мигрантлар пул ўтказмаларининг мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсири .....	11
<b>Бекжанов Д.Й.</b> Туризм соҳасини ривожлантиришнинг германия тажрибаси .....	16
<b>Бурханов А.Х., Абдувоҳидов А.А., Мухаметов А.Б.</b> Эркин иқтисодий зоналарнинг тадбиркорлик субъектлари экспортида ахборот- коммуникация технологияларидан фойдаланишдаги тизимли муаммолар таҳлили .....	23
<b>Гуламов А.А.</b> Модель оценки эффективности воспроизводства основного капитала железнодорожного транспорта .....	29

### ТАРИХ ФАНЛАРИ

<b>Egamberganova M.J.</b> Abulg‘ozi Vaxodirxonning “Shajarayi tarokima” asarida turkmanlar etnogenezi masalasi .....	36
<b>Madalimov T.A.</b> Qadimgi Hindistonda mantiq ilmining shakllanishi .....	37
<b>Matyaqubov T.S.</b> Xorazmning ilk o‘rta asrlar davri davlatchiligi tarixining arxeologik va tarixshunoslik nuqtai-nazardan o‘rganilishi .....	39
<b>Nurmamatov J.Q.</b> Xorazm qishloq va shaharlari tarixidan (Milodiy III-IX asrlar) .....	42
<b>Nurmamatov J.Q.</b> Xorazmshoh-Anushteginiylar davri markazlashgan davlatning qaror topishida qo‘shinning o‘rni .....	44
<b>Абдуллаев Ж.Р., Нуруллаева Ш.Қ.</b> Хоразм воҳаси бронза даври аҳолиси турар жойлари тарихининг ҳорижий манбаларда акс этиши .....	46
<b>Болтаев Б.Б.</b> Таълим ва тарбия жараёнида музейлар фаолиятининг аҳамияти .....	48
<b>Ёдгоров З.Ш.</b> Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбия ва спортнинг аҳамияти .....	50
<b>Машарипова Г.К., Исроилов Б.Э., Диёрова Г.Ш.</b> Илмдан бошқа нажот йўқ – “Жаҳолатга қарши маърифат” билан курашиш зарурати .....	54
<b>Нуруллаева Н.К.</b> Дни культуры и искусства- фактор обеспечения межнационального согласия .....	58
<b>Тожибоев М.Т.</b> Таълим-тарбия тизимининг ривожланиш босқичларида миллий ва умумбашарий кадрятлар тарихининг омиллари .....	59
<b>Холлиев А.Г.</b> Бож тарифлари ва XIX асрда Россиянинг ташқи савдо сиёсати .....	62

### ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<b>Ahmedova N.Sh.</b> Xorazm shevasidagi umumturkiy so‘zlar tahlili .....	68
<b>Ermetova J., Karimova M.</b> Ingliz va o‘zbek tillari sportg oid terminlarning leksikografik o‘rganilishi .....	71
<b>Jumaniyazov A., Jumaniyazova D.A.</b> Tillar qarindoshligi va umumiylik xususiyatlarini o‘rganishda sanskritning o‘rni .....	74
<b>Kim S.T., Kabulova G.U., Kuryazova Kh.</b> Using teaching aids in teaching foreign languages .....	78
<b>Shavkieva D.Sh., Narimova G.A.</b> Innovations in learning and teaching foreign languages ....	85
<b>Алимова М. Ҳ, Таджиева Н.К.</b> Ўзбек ва инглиз тилларидаги флоронимларнинг	88

функционал тавсифи .....	
<b>Гизатулина О.И.</b> Обучения русскому языку через призму истории методики преподавания .....	91
<b>Икромхонова Ф.</b> Тарихий асарларнинг шаклланиши ва тараққиёти .....	93
<b>Катаева Ш., Бабаджанов Х.</b> Значения и синтаксические функции имен существительных в родительном падеже без предлога .....	97
<b>Қурбонова М.А.</b> Нутқий коннотациянинг морфологик усулда ифодаланиши .....	99
<b>Сайидрахимова Н.С.</b> Тилдаги ноаниқликлар ва уларнинг кўринишлари .....	102
<b>Уразов Б.Т.</b> Мекембой Омаров ижодида экологик мавзунинг ёритилиши .....	105

ИҚТИСОДИЁТ ФАҲЛАРИ

УЎТ: 339.923

**XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY  
HAMKORLIGI DOIRASIDAGI MUAMMOLAR***Sh.Sh. Yovqochev, mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Maqolada xalqaro moliya institutlari va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hamkorligi doirasidagi muammolar to'g'risida fikr yuritilgan. Unda xalqaro moliya institutlarining muammoga yondashuvi hamda o'zaro hamkorlik munosabatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi faktorlar tahlil etilgan. Tahlil natijasida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish doirasida tegishli xulosa va takliflar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro moliya institutlari, xalqaro moliya-kredit munosabatlari, Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki, sifat drayveri, institutsional salohiyat.

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы в контексте экономического сотрудничества Республики Узбекистан с международными финансовыми институтами. Был проведен анализ подходов международных финансовых институтов к проблематике и факторов, влияющих на эффективность сотрудничества. По результатам проведенного анализа, сделан комплексный вывод по данной тематике и предложены рекомендации в целях развития двухстороннего сотрудничества.

**Ключевые слова:** международные финансовые институты, международные финансово-кредитные отношения, Всемирный банк, Азиатский банк развития, драйверы качества, институциональный потенциал.

**Abstract.** The article discusses problematics in the context of economical cooperation between the Republic of Uzbekistan and the international financial institutions. There was conducted analysis of view of the international financial institutions on the problematic and factors which impact to efficiency of cooperation. Finally, there was made a comprehensive conclusion on the thematics and given recommendations in order to develop mutual cooperation.

**Key words:** international financial institutions, international financial and credit relations, World bank, Asian development bank, quality drivers, institutional capacity.

**Kirish**

Xalqaro moliya tizimi barqaror iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlovchi hamda kapital, tovar va xizmatlarning milliy iqtisodiyotlar o'rtasida o'zaro almashinuvini rag'batlantiruvchi asosni tashkil etadi. Mazkur asosning samarali faoliyat olib borishi uchun, ham alohida milliy iqtisodiyotlarning, ham butun tizimning iqtisodiy va moliyaviy vaziyatlarning vaqt oralig'ida o'zgarishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarini ham inobatga olishini taqozo etadi.

Xalqaro moliya institutlari jahon xo'jaligidagi moliyaviy resurslarni qayta taqsimlanishi uchun ma'sul hisoblanadi. Ular milliy xo'jalikdagi kapital oqimini harakatlantiradi va shu bilan birga, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotidagi bir qator jarayonlarni tezlashtirish imkoniyatiga egadirlar. Bu esa, o'z navbatida doimiy ravishda ham bunday jarayonlar davomiy bo'lishini anglatmaydi.

Xalqaro moliya institutlarning iqtisodiy-moliyaviy faoliyatida qandaydir muammolarning yuzaga kelishi, jahon xo'jaligidagi erkin harakatlanuvchi moliyaviy resurslar oqimiga ta'sir o'tkazadi. Bu esa nafaqat moliya tizimiga ta'sir etuvchi, balki jamiyatga ta'sirini o'tkazuvchi moliyaviy inqirozlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, bir tomondan iqtisodiy barqarorlik sharoitlarida, xalqaro moliya institutlari, kapital oqimining harakati bilan iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, ikkinchi tomondan uzilishlar jarayonida, ya'ni turli ichki yoki tashqi ta'sirlar sababli yuzaga kelgan muammolar davrida esa, kapital oqimini sekinlashtiradi va shu orqali turli-tuman qisqa muddatli defoltlar yoki inqirozlarni yuzaga keltirishi mumkin [1].

Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro iqtisodiy hamkorlik doirasida hamda istiqboldagi salohiyatni yanda oshirish maqsadida, mamlakatimizning fiskal, monetar va institutsional yo'nalishlarini takomillashtirishning uzoq muddatga mo'ljallangan chuqur, keng va tizimli yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlik doirasidagi muammolarni o'rganishning ayrim nazariy-konseptual jihatlarini ishlab chiqishda Djon M. Keyns, Elvin Hansen, Djejkob Vayner, Xayman

Minski, Evsey Domar, Djozef Y. Stiglits singari iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlanmalariga tayanish mumkin [2].

Ma'lumki, fiskal siyosat mamlakatning soliq, davlat xaridlari, davlat budjeti, aholining ish bilan ta'minlanish darajasi va inflyatsion jarayonlarni oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar hisoblanadi [3]. Odatda, uning asosiy maqsadi iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarda sodir bo'ladigan davriy tebranishlarni yumshatish hisoblanadi [4].

Keyschilik konsepsiyasiga asosan, fiskal siyosat davlatning iqtisodiyotni nazorat etishdagi eng samarador vositalaridan biri hisoblanadi. Unga asosan, malakaviy yondashuv orqali samarali talabni, bozordagi iste'mol va kapitalni o'zgartirish mumkin bo'ladi. Biroq, keyschilik modelida pul-kredit siyosatidagi mexanizmlar murakkabligi sababli monetar siyosatga ikkilamchi yondashuv sifatida qaraladi [5].

Asosiysi, Djon M. Keynes global iqtisodiyotdagi rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzlarni xorijiy kapital oqimlarini nazorat etish bilan cheklashlari kerakligi to'grisida maslahat berganligi juda muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Shu o'rinda, amerika iqtisodchi olimi Elvin Hansening mamlakatga kiritilgan kapital sur'atlari asosida taxlil etilgan sikllar nazariyasiga ham e'tiborni qaratish lozim. Unda iqtisodiy o'sish va pasayish jarayonlarini nazorat jihatidan murakkab bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ifodalanadi. Mamlakat daromadining o'zgarish xarakterini E. Hansen ilmiy ishida real kapital darajasi o'zgarishi orqali isbotlab berganligi neokayschilik maktabida tub burilish yasadi [7].

Xorijiy kapitalni rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida jalb etish masalasiga, iqtisodiyot meynstrimi yo'nalishining taniqli namoyandasi Djeykob Vaynerning alternativ konseptual fikrlariga ham tayanish o'rinli hisoblanadi. Unga asosan, xalqaro kapital quyilmalari samaradorligi past mamlakatlardan yuqori rentabellikka ega mamlakatlar tomon harakatlanadi. Bu esa, butun dunyo miqyosida pul birliklarida ifodalangan kapital resurslarining yuqori samarasini tenglashtirishga olib keladi va natijada dunyo ishlab chiqarish salohiyati va daromadiga yuqori darajada quyilishiga sabab bo'ladi [8].

Rivojlanyotgan mamlakatlarning xorijiy kapitalni jalb etish jarayolarida monetar postkeyschilik maktabining yorqin vakili Xayman Minskining moliyaviy beqarorlik nazariyasini taxlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotining moliyaviy nimjon tabiati milliy xo'jaliklarning tashqi dunyo bilan o'zaro intensiv munosabatlari darajasiga qarab o'zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi bizga ma'lum. X. Minski iqtisodiy rivojlanishning odatiy neoklassik nazariyasidan holi o'laroq, rivojlanyotgan mamlakatlarning tashqi moliyalashtirish jarayonlarini Karlo Pontsi moliyaviy sxemasi sifatida bayon etadi [9]. Minski X. mamlakatlarning rivojlanishidagi moliyaviy asosini milliy moliya institutlarining har tomonlama foydalanilishi orqali ichki qayta ishlab chiqarish va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni takomillashtirishni muhim hisoblaydi [10].

Bu o'rinda mamlakatning makroiqtisodiy va institutsional islohotlarni amalga oshirishdagi sa'y-harakatlari g'oyat yuqori baholanadi. Minski X. aynan mamlakatlarning xorijiy moliyaviy resurslarni jalb etishi jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy beqarorliklarini oldini olishda hukumatning institutsional takomillashtirish siyosatini yuqori samaradorlikka ega ekanligini ta'kidlaydi [11].

Yuqoridagi takliflar muallif tomonidan XX asr oxirlarida keltirilganligiga qaramasdan, hozirgi zamonaviy milliy xo'jaliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi dolzarbligini yo'qotmagan.

Shu bilan bir qatorda, keyschilik maktabining yana bir vakili Evsey Domarning fikriga ko'ra, xorijiy qarz mablag'lariga murojaat etish, tashqi qarzga xizmat qilishni (ingliz. debt service) ham taqozo etadi. Bunda milliy xo'jalik o'zining rivojlanishini tashqi jalb etilgan qarzlar evaziga amalga oshirishni maqsad qilsa, unda mazkur qarzdorlik yuzasidan uning xizmatini ham inobatga olishi kerakligi ta'kidlangan [12].

Tashqi qarzlarga cheklov o'rnatilishi shak-shubhasiz mamlakat rivojlanishi uchun alternativ moliyalashtirish manbalarini izlashga olib keladi. Mazkur masala yuzasidan, taniqli iqtisodchi olim Yozef Shumpeter, mamlakat iqtisodiy rivojlanishi jarayonida moliyalashtirish masalasi mamlakatning milliy moliya institutlari orqali amalga oshirilishi lozimligini keltirib o'tgan [13]. Bu esa, o'z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori o'rinlarda aytganimizdek, fiskal, monetar va albatta institutsional takomillashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirilishi muhimligini anglatadi.

XXI asrning yetakchi iqtisodchi olimi, Nobel mukofoti laureati, Jahon banki guruhining sobiq bosh iqtisodchisi Djozef Y. Stiglitsning xorijiy kapitalni jalb etish jarayoni to'grisidagi ilmiy qarashlari mazkur muammoning konseptual o'rganish predmetini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Uning “Globalizatsiya va uning ziddiyatlari” nomli asarida, jalb etilayotgan xorijiy kapitalning energiya tashuvchilar, ya’ni qazib chiqarish, neft va boshqa tabiiy resurslar tarmoqlariga yo’naltirilishi iqtisodiyotning o’sishiga emas, balki ikki tomonlama iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlagan. Stiglits Y. Djozefning fikriga ko’ra, jalb etilayotgan moliyaviy resurslar mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bog’liq bo’lgan transformatsiyalashuv jarayoniga yordam berishi kerak [14].

### **Tahlil va natijalar**

Albatta, xorijiy yordam globallashtirish dunyoning yana bir muhim jihati sifatida o’zining bir qator kamchiliklariga qaramay millionlab insonlarga nafi tekkan unsur hisoblanadi. Chunki, xalqaro moliya institutlarining moliya resurslari kiritilishi natijasida ko’plab ishsizlar bandligi ta’minlandi, irrigatsiya loyihalari va suv ta’minoti yaxshilandi, qishloq hududlaridagi ta’lim islohotlari savodxonlikni oshirish uchun poydevor bo’ldi, sog’liqni saqlash tizimidagi ajratmalar insonlarning o’rtacha yashash umrini nisbatan uzaytirdi.

Xorijiy kapitalni jalb etish, xususan xalqaro moliya institutlari bilan iqtisodiy hamkorlik doirasidagi moliyaviy resurslarni jalb etish jarayonidagi muammolarni o’rganishda nazariy, konseptual, fundamental ilmiy qarashlar to’g’risidagi xulosalar transformatsiyalashuv, ijtimoiy-iqtisodiy takomillashuv, tuzilmaviy o’zgarishlar jarayonini boshdan kechirayotgan milliy xo’jaliklar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qolaversa, bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy kapitalni jalb etish sur’atlarini jadallashtirishda yuzaga keladigan tizimli muammolarni hal etish, davlatning xalqaro moliya institutlari bilan faoliyati doirasidagi konsepsiya va strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O’zaro iqtisodiy hamkorlik doirasida yuzaga keladigan muammolarni o’rganish va unga ta’sir etadigan omillarni taxlil etishda xalqaro moliya institutlari yondashuvini inobatga olish o’rganilayotgan mavzu predmeti ko’lamini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Jahon banki guruhining mamlakatlar bilan o’zaro iqtisodiy hamkorligi doirasida yuzaga keladigan muammolar, hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalar samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlilini doimiy ravishda amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Jahon banki guruhining a’zo-mamlakatlar bilan o’zaro iqtisodiy hamkorligi muammolarini yoritishi har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillari bilan bog’liq bo’ladi. Albatta, xalqaro moliya institutlari tomonidan mamlakat rivojlanishidagi ko’rilayotgan muammolar, milliy iqtisodiyotning aslida ma’lum bir xususiyati ham bo’lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliya institutlari tomonidan tahlil etilayotgan muammolar har doim ham hamkorlik qilinayotgan a’zo-mamlakatning muammosi deb qarash to’g’ri bo’lmaydi. Biroq, moliya tashkilotlarining a’zo-mamlakatlardagi o’zaro hamkorlik samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlilini inobatga olish kerak.

A’zo-mamlakatlarda amalga oshirilayotgan loyihalarga ta’sir etuvchi omillar Jahon banki guruhining makro darajadagi yondashuvi milliy xo’jaliklarning iqtisodiy, institutsional va boshqa sohalarining rivojlanganlik darajasiga asoslanadi [15]:

**1. A’zo-mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik omillari.** Xalqaro moliya institutining iqtisodiy hamkorlik jarayoniga ta’sir etuvchi muhim faktorlar sirasiga aynan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot belgilari kiradi. Mamlakatning makroiqtisodiy ko’rsatkichlari (yalpi ichki mahsulot o’sish hajmi, yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga nisbati, tashqi savdo balansi, va boshqalar), ijtimoiy ahamiyatga molik indikatorlar (ta’lim, sog’liqni saqlash, transport, shahar xizmatlari), moliyaviy xizmatlar darajasi va boshqalar shular jumlasidandir.

**2. Mamlakatning institutsional sifat salohiyati.** Mamlakatning institutsional salohiyati sifatida aholi va hukumat boshqaruvining yangi qadriyatlarini qabul qilib olish, o’zlashtirish hamda iqtisodiy-ijtimoiy hayotga singdirish qobiliyati tushiniladi. Jahon banki guruhi a’zo-mamlakatlarga ajratilayotgan kapital unumdorligi sifat ko’rsatkichlarini baholashda mamlakatning aynan institutsional salohiyatiga tayanadi. Institutsional salohiyat sifat ko’rsatkichlari esa, baholash instrumenti (ingliz. Country policy and institutional assessment, CPIA) orqali amalga oshiradi. Mazkur baholash tizimi asosida umumiy reyting shakllantiriladi, muammolar darajasi aniqlanadi va taxlil etiladi.

Institutsional sifat ko’rsatkichlari esa quyidagi to’rtta yo’nalishni qamrab oladi:

- **Iqtisodiy menejment** (fiskal, monetar, valyuta kursi, tashqi qarzdorlik masalalari)
- **Tuzilmaviy siyosat** (savdo, moliya sektori va biznes nazorat muhiti)
- **Ijtimoiy integratsiya va tenglik** (Ijtimoiy himoya va mehnat muhofazasi, jinsiy tenglik, umumiy resurslardan foydalanish tengligi)

• **Davlat sektori boshqaruvi va institutlari** (Mulk huquqi va normativ-qonunlarga asoslangan boshqaruv, byudjet va moliya boshqaruvi sifati, daromadlarni jalb etish samaradorligi, hukumat boshqaruvi sifati)

**3. Boshqa xususiyatlar.** Mamlakatning xalqaro moliya institutlari bilan iqtisodiy hamkorligiga ta'sir etadigan yana boshqa omillar ham mavjud. Bunda a'zo-mamlakatda mavjud bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy risklar hisobga olinadi. Moliyaviy-iqtisodiy risklar deganda, iqtisodiy qarorlar qabul qilish natijasida moliyaviy resurslarning yo'qotilishiga olib keladigan xavflar tushuniladi. Moliyaviy-iqtisodiy risklar esa quyidagi guruhlariga bo'linadi [16]:


- To'lov qobiliyati bilan bog'liq risklar (inflyatsiya, valyuta va likvidlik risklari)
- Kapitalni joylashtirish bilan bog'liq risklar (kredit, investitsion, foiz risklari)

Jahon banki guruhi moliyaviy resurslarini jalb etish va ularni ratsional qayta taqsimlash jarayoniga ta'sir etuvchi mikro darajadagi omillar sirasiga esa quyidagi jihatlar kiradi:

**1. Xodimlarning bilim va ko'nikmalari.** A'zo-mamlakatlar bilan hamkorlikda xalqaro moliya institutlari tomonidan amalga oshiriladigan loyihalar doirasida ishtirok etayotgan xodimlar bilim va ko'nikmalarining samaradorlik omillari xorijiy olimlar tomondan nazariy-konseptual asoslab berilgan [17]. Jalb etilayotgan loyihalarda ishtirok va nazorat etuvchi xodimlar bilim va ko'nikmalari darajasi uning natijaviy samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2. Loyihalashtirish hamda loyiha boshqaruvi jarayoni.** Loyihaning aniqligi va tahliliy hisoblar, hajmi, moliyalashtirish kabi omillarning natijaviy samaradorlikka ta'sir etishi ham bir qator iqtisodchilar tomonidan ilmiy ishlarida asoslab berilgan [18]. Loyihalarning texnik iqtisodiy asosnomalari (ingliz. Project design document, PDD) va analitik-tahliliy hisoblarning aniq, sifatli, ishonchli shakllantirilishi, qolaversa, undagi hajm, muddat va resurs ko'rsatkichlarini puxta ishlab chiqilishi g'oyat jiddiy ahamiyat kasb etadi. Chunki texnik asosnomadagi natijalar doirasining sifati va tarkibiy hisob ko'rsatkichlari batafsil yoritilishi darkor. Sifati past darajada tayyorlangan texnik asosnomalar, undagi ko'rsatkichlar hamda amalga oshirish muddatidagi o'zgartirishlar samaradorlik va unumdorlikka ta'sir etuvchi faktorlar sirasiga kiradi.

Jahon banki guruhi va a'zo-mamlakatlarning o'zaro hamkorligi doirasida amalga oshiriladigan loyihalarga ta'sir etuvchi umumiy sifat drayverlari turli o'zgaruvchilarni qamrab oladi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Umumiy sifat drayverlari ta'sir foizi [19]**

O'tkazilgan taxlil asosida umumiy loyihalar sifat darajasiga monitoring davri muammolari 25,02% ni tashkil etdi. Kadrlar saviyasi loyiha samaradorligiga ta'sir etish darajasi 11,77% ni ko'rsatdi. Loyihaning boshqa xususiyatlariga (umumiy ta'sir etish darajasi 6,36%): tayyorlash vaqti, loyiha muddatining va moliyalashtirish hajmining o'zgarishi hamda nazorat va tayyorgarlik xarajatlari kiradi.

Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro iqtisodiy hamkorlik muammolari doirasida ularning fikr va mulohazalarini inobatga olish davr talabi hisoblanadi. Chunki mamlakatimizda xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirib kelinayotgan istiqbolli loyihalarning samaradorligiga ta'sir etuvchi kamchiliklarni bartaraf etish, ularning mamlakatimizdagi faoliyati uchun qulay shart-sharoit va muhit yaratish lozim.

Biroq, xalqaro moliya institutlarining o'zaro hamkorlik muammolari to'g'risidagi mulohazalari masalaning faqat bir tomonlama yondashuvini namoyish etadi. Shu nuqtai nazardan, bunga turli burchaklardan nazar solgan holda yechim topish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Bizning fikrimizcha, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasidagi muammolarni mamlakatning ichki omillari nuqtai nazaridan taxlil etilishi o'rganish predmetini yanada kengaytirishga xizmat qiladi:

- birinchidan, xalqaro moliya munosabatlari, xususan xalqaro moliya institutlari faoliyatini tartibga soluvchi yagona unifikatsiyalashgan normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligi mavjud tarqoq qonunlardan foydalanishda, xalqaro moliya institutlari va ular faoliyati bilan bog'liq bo'lgan idora va tashkilotlar faoliyati shaffofligini ta'minlashda qiyinchilik tug'diradi. Qolaversa, normativ-huquqiy hujjatlarda mamlakat tashqi qarz hajmini cheklov chegarasini eksport va yalpi ichki mahsulot nisbatlariga bog'lov mexanizmi mavjud emasligi kuzatildi;

- ikkinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarni muvofiqlashtirish, nazorat qilish, monitoring olib borishga doir tizimli yondashuvning shakllanmaganligi, jalb etilayotgan xorijiy moliya resurslarining o'z vaqtida o'zlashtirilishi va natijaviy samaradorlikka erishish jarayoniga ta'sir o'tkazmoqda;

- uchinchidan, mamlakatimizda xalqaro moliya institutlari, mintaqaviy rivojlantirish banklari ishtirokidagi va xorijiy investitsiyalar doirasidagi loyihalarni ishlab chiquvchi alohida ilmiy-texnik institutsional birliklarining to'laqonli shakllanmaganligi, texnik-iqtisodiy asosnomalarga o'zgarishlar kiritilishiga, loyiha muddatining cho'zilishiga va kutilayotgan natijalar bermasligiga ta'sir ko'rsatmoqda;

- to'rtinchidan, xorijiy kapital ishtirokida amalga oshirib kelinayotgan loyihalar texnik-iqtisodiy asosnomalari ekspertiza jarayonining uzoq muddat davomida ko'rib chiqilishi, loyihaning unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ortiqcha sarf xarajatlarni yuzaga keltiradi. Bunda loyiha ishlab chiqish va ekspertiza jarayonlarini uyg'unlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilishi lozim;

- beshinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan iqtisodiy hamkorlik doirasidagi texnik muammolarning (xorijiy mutaxassislarining kelib ishlashi va iste'qomat qilishi doirasida qulay muhit va shart-sharoitlar yaratib berish) istiqbolda yuzaga kelmasligini nazarda tutish ham muhim ahamiyat kasb etadi;

- oltinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasida jalb etilgan moliyaviy resurslar taxlili shuni ko'rsatdiki, ularning yuqori taqsimlanish hajmi asosan energetika va transport yo'nalishlariga to'g'ri keladi. Albatta, bu sohalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun dastlabki muhim yo'nalishlar sirasiga kiradi. Ammo, xorijiy majburiyatlarni o'z vaqtida qaytarish maqsadida yuqorida qayd etilgan sohalar bilan birgalikda unumdorligi yuqori bo'lgan sohalarga ham xalqaro moliya institutlari moliyaviy resurslarini taqsimlash kerak. Shu nuqtai nazardan, mamlakatning uzoq muddatga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanish strategiyasi doirasida jalb etilayotgan xorijiy moliya resurslaridan ratsional foydalanish va yuqori samaradorlik natijalarini beruvchi sohalarni ko'rib chiqish lozim.

Qolaversa, yuqori o'rinlarda keltirilgan yo'nalishlardan tashqari, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik va xorijiy moliya resurslarini jalb etish jarayonlari doirasida mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik masalasiga ham e'tibor qaratish lozim.

Chunki, mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik kompleksiga turli tashqi moliyaviy-iqtisodiy mexanizm, dastak va omillarning (valyuta bozoridagi spekulativ o'yinlar, xorijiy kapital chiqib ketish hajmining kirib kelishidan yuqori bo'lishi, tashqi qarzlarning nazorat doirasidan chiqib ketishi va boshqalar) putur yetkazishi mumkinligi, tashqi moliyalashtirish manbalarini qayta ko'rib chiqilishi, institutsional himoya tizimlarini takomillashtirish, tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish lozimligini taqozo etadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash jiddiy resurslar va quyilmalarni, milliy iqtisodiyotdagi barcha xo'jalik yurutuvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishni talab etadigan doimiy, ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini shakllantirishda, aynan tizimli yondashuv muhim hisoblanadi. Tizimli yondashuv asosida esa iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning samarali va natijaviy mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliya institutlari bilan iqtisodiy hamkorlik doirasida jalb etilgan moliyaviy resurslarning chegaraviy qiymatini doimiy ravishda nazorat etib borish, kuzatish va monitoring o'tkazish katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, jalb etilayotgan xorijiy kapital, xorijiy tashkilotlar va institutlarga bog'liqlik darajasini ma'lum me'yorda saqlab turuvchi dastak bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatga kirib kelayotgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq o'rganish va taxlil etish uchun shartli ravishda umumiy ikkita: ichki va tashqi ta'sir guruhlariga ajratish mumkin (2-rasmga qarang).

Xorijiy moliya resurslaridan samarali foydalanish jarayoniga ta'sir etadigan tashqi omillar taxlili quyidagi faktorlarni inobatga olishi kerak:


1. Siyosiy faktorlar. Mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlar, davlatlarning geosiyosiy maqsadlari, siyosiy tizim, siyosiy barqarorlik, xorijiy kapital nazoratining siyosiy-huquqiy mexanizmlari, xalqaro moliya institutlarining mintqa va mamlakatlar doirasidagi iqtisodiy siyosati.

2. Iqtisodiy-moliyaviy faktorlar. Dunyo bozorida energiya tashuvchi mahsulotlar narx konyukturasi, moliya bozorida kapital likvidligi, AQSh federal fondlaridagi moliyalashtirish stavkalari.

3. Texnologik faktorlar. Texnogen hodisalar, infratuzilma muammolari, bilim va texnologiyalarning yo'qotilishi, kiber hujumlar.

4. Ekologik faktorlar. Global issiqlik, iqlim ofatlari, fauna va flora halokati, qirg'oq hududlarining toshqini va boshqalar.

5. Epidemiologik faktorlar. Turli yuqumli kasalliklarning ma'lum hudud va vaqt doirasida tarqalishi.



**2–rasm. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillar (Turli tahliliy yondashuvlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi)**

Institutsional (tartibga soluvchi normativ baza, xalqaro moliya tashkilotlari bilan faoliyat olib boruvchi institutsional birliklar), ijtimoiy (aholi soni va uning qarishi, qashshoqlik), administrativ (turli byurokratik to'siqlar), kadrlar salohiyati (bilim, ko'nikma, tajriba) hamda texnik (viza, ish va turar joy sharoiti) kabi yo'nalishlar esa, ichki ta'sir omillari sifatida qaraladi.

Xorijiy kapital jalb etish jarayonida yuqorida qayd etilgan risklarni kamaytirish mamlakatlar va moliya institutlari uchun mashaqqatli mehnatni talab etadi. Uzoq muddatga mo'ljallangan xorijiy kapitalni jalb etish muhitini takomillashtirish jarayoni xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilishi hamda xalqaro va milliy huquq normalari bilan mustahkamlanishi lozim.

#### **Xulosa va takliflar**

Xalqaro kapital uchun kuchli raqobat sharoitida xorijiy moliyaviy resurslarni jalb etish kabi ustuvor maqsadlarni jam etgan holda, mamlakatimiz xalqaro munosabatlarda liberallashtirish islohotlari amalga oshirilmogda. Bu sharoitda xorijiy kapital risklarini kamaytirilish jarayoni, albatta xalqaro tajriba va huquqiy normalarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bosqichma-bosqich xorijiy kapitalni jalb etish muhitini takomillashtirish jarayoni, nafaqat iqtisodiy va moliyaviy sohalarni, balki kompleks ravishda ijtimoiy, huquqiy, ta'lim va boshqa muhim yo'nalishlarni ham qamrab olishi hozirgi davr talabi hisoblanadi. Shuning uchun ham, hukumatning mamlakatimizga xorijiy kapitalni jalb etish doirasidagi strategiyasi, shak-shubhasiz yaqin, o'rta va uzoq muddatli maqsad va vazifalarni o'z ichiga olishi lozim.

O'zaro hamkorlik doirasidagi muammolarga xalqaro moliya institutlarining yondashuviga asosan, a'zo-mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik omillari, mamlakatning institutsional sifat salohiyati, xodimlarning bilim va ko'nikmalari, loyihalashtirish hamda loyiha boshqaruvi jarayoni bevosita amalga oshirilayotgan loyiha, dastur samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida belgilangan.

Bizningcha xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalariga ularning faoliyatini tartibga soluvchi yagona unifikatsiyalashgan normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligi, hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarni muvofiqlashtirish, nazorat qilish, monitoring olib borishga doir tizimli yondashuvning shakllanmaganligi, birgalikdagi loyihalarni ishlab chiquvchi alohida ilmiy-tadqiqot institutsional birliklarining to'laqonli shakllanmaganligi hamda loyihalar texnik-iqtisodiy asosnomalari ekspertiza jarayonining uzoq muddat davomida ko'rib chiqilishi, yo'naltirilayotgan resurslar tarmoq tarkibining ratsional diversifikatsiya etilmaganligi singari omillar ta'sir etmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Современные финансовые рынки: монография / В. В. Иванов [и др.]; под ред. В. В. Иванова. М.: Проспект, 2014. С. 19.
2. Кейнс Дж.М. Трактат о денежной реформе. М., 1925. С. 104., Блауг М. 100 великих экономистов до Кейнса: пер. с англ. СПб., 2008, Классики кейнсианства. Р.Харрод, Э.Хансен. В 2-х тт Текст. М.: Экономика, 1997.-Т.1.-206 с., J. Viner. Studies in the Theory of International Trade. New York: Harper, 1937. p 595., Minsky Н. Р. Capitalist financial processes and the instability of capitalism. Journal of Economic Issues, Vol. 14, No. 2, 1980. pp. 524., Domar E. Capitalism, Socialism and Serfdom: Essays by Evsey D. Domar. Cambridge University Press, Cambridge, 1989. 294 pp., Доклад Стиглица. О реформе международной валютно-финансовой системы: уроки глобального кризиса. Доклад Комиссии финансовых экспертов ООН. - М.: Междунар. отношения. 2010. - 328 с.
3. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 2-е изд., испр. М.: ИНФРА-М, 1999 - 479 с.
4. Василенко Е.С. Кейнсианский подход к фискальной политике // Научное сообщество студентов XXI столетия. Экономические науки: сб. ст. по мат. XXXVIII междунар. студ. науч.-практ. конф. № 1(38).-С.151.
5. Keynes J. M. (1937). The "ex ante" theory of the rate of interest. Economic Journal, Vol. 46, No. 186, pp. 663 — 669.
6. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента, денег. М.: Прогресс, 2007. 154 с.
7. Хансен Э. Послевоенная экономика США, М. Прогресс, 1966. — С. 84., Хансен Э. Экономические циклы и национальный доход, классики кейнсианства. Т. 2. — М. Экономика, 1997.— С. 63
8. Viner J. International Finance in the Postwar World // Journal of Political Economy. 1947. Vol. 55. No 2. P. 97–107.
9. Крегель Ян. Теория Мински: международное финансирование развивающихся стран // Экономическая политика. 2018. №4. — С.8-19.
10. Minsky Н. Р. The financial instability hypothesis: An interpretation of Keynes and an alternative to "standard" theory. In: J. C. Wood (ed.). Critical assessments. London: Macmillan, 1983. pp. 282—292.
11. Мински Х. Стабилизируя нестабильную экономику / Хайман Мински; пер. с англ. Ю.Каптуревского; под науч. ред. И.Розмаинского. — М.; СПб: Изд-во Института Гайдара, Факультет свободных искусств и наук СПбГУ, 2017.— 624 с.
12. Domar E. The Effect of Foreign Investment on the Balance of Payments // American Economic Review. 1950. Vol. 40. No 5. P. 805–826.
13. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. Oxford, Oxford University Press, 1961. p-59.
14. Joseph E. Stiglitz. Globalization and Its Discontents, 2002. W.W. Norton & Co., New York – London. 40 p.
15. The World Bank Group. Policy research talk. [Elektron resurs]. URL: <http://pubdocs.worldbank.org/en/800781538501913762/Policy-Research-Talk-Friedman-InvestmentProjectPerformance.pdf>
16. Финансово экономические риски : учебное пособие / Е.Г. Князева, Л.И. Юзвович, Р.Ю. Луговцов, В.В. Фоменко.— Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2015.— 8 с
17. Qarang: Denizer, Cevdet & Kaufmann, Daniel & Kraay, Aart, 2013. "Good countries or good projects? Macro and micro correlates of World Bank project performance," Journal of Development Economics, Elsevier, vol. 105(C), pages 288-302.
18. Qarang: Ika, Lavagnon & Diallo, Amadou & Thuillier, Denis. 2012. Critical success factors for World Bank projects: An empirical investigation. International Journal of Project Management-INTJPROJMANAG. 30. 10.1016/j.ijproman.2011.03.005.
19. A new look at factors driving investment project performance. Mustafa Zakir Hussain, Thomas Kenyon, Jed Friedman, John Underwood, Helen Louise, Eun Jun Park, Mo Zhou, Jaime Sarmiento, Akib Khan. DEC Policy Research Talk. September 2018. Data provided by World Bank representative office in Uzbekistan.

УДК. 314.74

## МИГРАНТЛАР ПУЛ ЎТКАЗМАЛАРИНИНГ МАМЛАКАТ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИРИ

*Г.Б. Азаматова, мустақил изланувчи, Ўзбекистон Миллий Университети, Тошкент*

**Аннотация.** *Ҳозирги кунда миграция давлатлараро халқаро муносабатларда ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Чунки миграциявий жараёнлар иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий муаммоларни келтириб чиқармоқда. Мазкур жараёнда иштирок этаётган мигрантлар мамлакат ижтимоий-*

иқтисодий ривожланишида улар томонидан амалга оширилаётган пул ўтказмалари ҳам муҳим роль ўйнайди. Пул ўтказмалари глобаллашув шароитида тараққиётга ўз таъсирини кўрсатади. Мақолада мигрантларнинг пул ўтказмалари кўрсаткичлари статистик таҳлил қилинган ва ривожланган мамлакатлар мисолида кўриб чиқилган. Амалга оширилаётган пул ўтказмалари ҳар бир давлатнинг нафақат иқтисодий ўсишига балким, ижтимоий ривожланишига ҳам таъсирини кўрсатади. Пул ўтказмалари МДҲ давлатлари, Европа ва Осиё давлатлари мисолида таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** аҳоли миграцияси, ташқи меҳнат миграцияси, пул ўтказмалари, валюта тушуми, банк, иммиграция, эмиграция, мигрантлар.

**Аннотация.** На сегодняшний день миграция имеет важное значение в международных отношениях среди государств. Потому что миграционный процесс вызывает экономические, социально-правовые проблемы. Мигранты, участвующие в данном процессе, а также, денежные переводы, проводимые с их стороны, играют важную роль в социально-экономическом развитии страны. Денежные переводы сильно влияют на прогресс в условиях глобализации. В данной статье статистически проанализированы показатели миграционных денежных переводов и они показаны например развитых стран. Проводимые переводы действуют не только экономическому, но и социальному развитию страны. Денежные переводы анализированы примерах стран СНГ, Европы и Азии.

**Ключевые слова:** миграция населения, внешняя трудовая миграция, денежные переводы, валютные доходы, банк, иммиграция, эмиграция, мигранты.

**Abstract.** Nowadays, migration is also important in international relationships. However, migration processes might cause economic, political and legal problems at the same time. In this case, participants of global migration are the integral part of their countries' economy by the courtesy of remittances and money transaction. In this article the analyzes and statistics of migrant's remittances and exchanging properties have been scientifically observed. That money transfers not only can have great effect on economic proliferation of a country, but also might develop the social structure of it. Remittances among CIS, European countries and Asian countries have been reviewed with their illustrations


**Key words:** Population migration, external labor migration, remittances, currency earnings, banking, immigration, emigration, migrants.

Аҳоли миграцияси ҳозирги кунда глобаллашув билан бир қаторда халқаро муносабатларни характерловчи тенденциялардан биридир. Глобаллашув жараёни миграциянинг жадаллашишига ўз таъсирини кўрсатиб ривожланаётган давлатлар учун иқтисодий- ижтимоий ривожланишида муҳим аҳамият касб этмоқда. Айни вақтда у ёки бу даражада бўлсада, ҳозирги кунда биронта ҳам давлат миграция жараёнларидан четда қолаётгани йўқ. Шунингдек, мигрантларнинг кўчиб келиши ёки кетишлари мамлакат аҳоли демографиясига ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда. Глобаллашув шароитида аҳолининг чет элга меҳнат қилиш мақсадида чиқишлари, хорижий малакали мутахассисларнинг мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишига ҳисса қўшиш учун келишлари каби аҳоли ҳаракатланишини табиий ҳодиса сифатида қабул қилиш мумкин.

Миграция ички ва ташқи миграцияга бўлинади. Ўз навбатида ташқи миграция табиийки оилалар сонига, миллий таркиби ва турли ижтимоий гуруҳга хос оилалар шаклланишига ўз таъсирини кўрсатади. Ташқи миграцияда халқаро меҳнат бозори меҳнат миграцияси фаолиятининг ўзига хос шакли бўлиб, у меҳнатга лаёқатли аҳолининг нисбатан юқори иш ҳақига эга бўлиш мақсадида ўз ватанидан маълум бир муддатга кўчиб кетишини изохлайди. Бугунги кунга келиб меҳнат миграциясининг нафақат халқаро меҳнат бозорининг шаклланишидаги, балки аҳолининг шаклланиши ва иқтисодиётни ривожлантиришдаги роли тобора ортиб бормоқда. Шундан келиб чиққан ҳолда XXI асрни “глобал миграция асри” дея аташ мумкин [1]. Маълумотларга кўра, 2019 йилда 2,6 миллион Ўзбекистон фуқароси хорижда меҳнат қилмоқда [2]. Уларнинг оилаларига жўнатаётган пул ўтказмалари ҳажми Республика вилоятига қараб, умумий аҳоли даромадининг 5 фоиздан 23 фоизгача бўлган қисмини ташкил этади. Айрим вилоятларда ўртача статистик оила даромадининг йигирмадан бир қисмини, бошқа вилоятларда эса аҳоли даромадларининг, тахминан, тўртдан ёки бешдан бир қисмидан иборат деганидир [3].

Мигрантларнинг пул ўтказмалари- миграциянинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Мигрантларнинг пул ўтказмалари деганда мигрантлар томонидан ўз мамлакатлари резидентларига юбораётган товарлар ва молиявий маблағлар тушунилади. Агар мигрант қабул


қилувчи мамлакат резиденти (ўзининг иммиграция мақомидан қатъи назар, ушбу мамлакатда бир йил ёки ундан ортиқ вақт яшаётган бўлса) ҳисобланса, унинг ўз ватанига юбораётган хусусий трансфертлари (натура ёки пул шаклида) ишчиларнинг пул ўтказмалари, деб аталади.



Манба: [https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-komiteta/5301-sovokupnyj-dokhod-naseleniya]

Жаҳон Банки маълумотларига кўра, Туркия ривожланаётган мамлакатлар ичида хорижий пул ўтказмалари ҳажми бўйича 1980 йилларда учинчи, 1995 йилда иккинчи, 2000 йилда тўртинчи ва 2002 йилда эса (1,9 миллиард АҚШ доллари) ўн еттинчи ўринни эгаллаган мамлакат ҳисобланган. Чунончи, 2011 йилга келиб Туркияга юборилган хорижий пул ўтказмалари миқдори тахминан 1 миллиард АҚШ долларига тенг бўлди.

2004 йилда хорижий пул ўтказмалари ҳажми 4,2 миллиард АҚШ долларига етган. Марокаш ривожланаётган мамлакатларига ичида энг кўп хорижий пул ўтказмалари қабул қилувчи бешинчи йирик давлат давлатга айланган.



Манба: Жаҳон Банки маълумотлари [www.data.worldbank.org](http://www.data.worldbank.org)

Россиядан Ўзбекистонга пул ўтказмалари, миллион АҚШ доллари (2007-2015 йиллар)

Меҳнат миграциясида ишчи кучи миграциясининг йўлга қўйилиши Республикага чет эл валюта тушумини янада кўпайтиради. Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки маълумотларига кўра, 2002 йилда келиб тушган валюта миқдори 310,81 миллион АҚШ долларини ташкил этган бўлса, 2005 йилда бу кўрсаткич 790 млн.га етди. 2006 йилда эса 1,3 миллиард АҚШ долларидан ошди ва ЯИМ нинг 8,02 фоизини ташкил этиб, хорижий инвестиция ва кредит кўрсаткичларига нисбатан 2,2 марта кўп бўлди. Айтиш жоизки, бу маълумотлар расмий ўтказмалар билан боғлиқ бўлиб, халқаро экспертлар фикрига кўра, мазкур қиймат

норасмий ўтказмалар ҳисобига яна 50% ошиши мумкин [4]. Ўзбекистон Республикасида 2005 йили хорижда ишловчи мигрантларнинг расмий пул жўнатмалари ҳажми 800 миллион АҚШ долларини ташкил этди [5]. Меҳнат мигрантларининг пул ўтказмаларига эътибор қаратар эканмиз, маълумотларга кўра, 2006 йилда Ўзбекистонга юборилган пул ўтказмаларининг 56,6% Россия Федерацияси улушига тўғри келган [6]. Бу даврда Россиядан мигрантлар томонидан хорижга юборилган пул ўтказмаларининг катта қисми ҳам айнан Ўзбекистонга тўғри келган. Россиядан Ўзбекистонга пул ўтказмалари динамикасининг таҳлили 2006-2017 йиллар давомида бу жараённинг бир текис кечмаганлигини, жаҳон молиявий иқтисодий инқирози бошланган даврда пул ўтказмалари миқдори бир мунча пасайган бўлса, кейинги даврларда мунтазам ўсиш тенденцияси кузатилганини кўрсатади. 2013 йилга келиб Россиядан Ўзбекистонга юборилган пул ўтказмалари ҳажми рекорд даражага етиб, 6,63 миллиард АҚШ долларга тенг бўлди [7].



**Манба: Россия Марказий Банки маълумотлари**

Жаҳон банки маълумотларига кўра, 2008 йилда жаҳон бўйича пул ўтказмаларининг умумий ҳажми 443 миллиард АҚШ долларини ташкил этган бўлиб, бу кўрсаткич 2003 йилга нисбатан икки баробар юқоридир. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози таъсирида эмигрантлар томонидан жўнатилаётган маблағлар ҳажми 2009 йилда 2008 йилга нисбатан 6,1% га қисқариб, 416 миллиард АҚШ долларини ташкил этган. Жаҳон банки мутахассисларининг дастлабки ҳисоб-китобларига кўра, бу ўтказмалар ҳажми 2010 йилда 440 миллиард АҚШ долларга тенг бўлган [8].

Пул ўтказмаларининг аксарият қисмини қабул қилувчи мамлакатлар кам сонлидир. Жумладан, пул ўтказмаларининг 3/4 қисми 30 та мамлакат ҳиссасига тўғри келади ва уларнинг 13 таси БМТ таснифига кўра ривожланган мамлакатлар ҳисобланади. Пул ўтказмаларининг учдан бир қисми қуйидаги йирик ривожланаётган мамлакатлар - Ҳиндистон, Хитой, Мексика ва Филиппин ҳиссасига тўғри келади. Шу билан бир қаторда пул ўтказмаларини қабул қилувчи мамлакатларнинг биринчи ўнлигида Франция (15,9), Германия (11,6), Бельгия (10,4), Испания (10,2) каби саноат жиҳатдан тараққий этган мамлакатлар ҳам мавжуд. Ушбу мамлакатларга пул ўтказмалари асосан Европанинг бошқа ривожланган мамлакатларидан кириб келади. Жумладан, бу кўрсаткич Германияда бор-йўғи - 0,3%га, Бельгияда эса 2,2% га тенг. Пул ўтказмаларини жўнатувчи мамлакатлар гуруҳи ичида АҚШ етакчилик қилади. 2009 йилда АҚШ дан бошқа мамлакатларга 48,3 миллиард АҚШ доллари пул ўтказмалари амалга оширилган. Кейинги ўринларни Саудия Арабистони (26,0), Швейцария (19,6), Россия (18,6), Германия (15,9), Италия (13,0), Испания (12,6), Люксембург (10,6) ва бошқа мамлакатлар эгаллаган. Жўнатилаётган пул ўтказмаларининг ялпи ички маҳсулотга нисбатан улуши 20% гача бўлган мамлакатларга Люксембург (20%) ва Ливан (17%), 6% дан 10% гача бўлган мамлакатларга Омон, Қувайт, Баҳрайн ва Саудия Арабистони, 5% гача бўлган мамлакатларга бошқа мамлакатлар киради. Ривожланган мамлакатлардан Швейцария (4%) ва Исроилни (2%) ажратиш кўрсатиш мумкин [9]. Халқаро мутахассислар фикрича, ишчи кучини экспорт қилувчи давлатлар даромади мигрантларнинг хориждан жўнатадиган пул ўтказмалари билангина чекланиб қолмайди. Уларга мигрантларнинг ўз ватанларига инвестиция олиб киришлари, қайта малака ошириш харажатларининг қисқаришига солинадиган солиқлар ва эмигрантлар учун бошқа мамлакатлар томонидан амалга оширилаётган турли ижтимоий харажатлар каби мамлакат тўлов балансида ижобий таъсир этувчи даромад турлари ҳам киради. Шунингдек, ишчи кучини экспорт қилувчи мамлакатлар хорижда тажриба орттириб қайтган юқори малакали кадрларга ҳам эга бўлади. 2012 йилга келиб хорижда ишлаётган меҳнат мигрантлари ҳисобидан мамлакат ЯИМ нинг деярли 7 фоизига тенг бўлган, яъни 6,5 миллиард АҚШ доллари миқдоридаги халқаро пул ўтказмалари мамлакатга кириб келган. Ҳозирги кунда Марокаш Миср билан бир қаторда, Африка

минтақасидаги энг кўп хорижий пул ўтказмаларини қабул қилувчи мамлакатлардан бири ҳисобланади [10].

Жаҳон миқёсида 2013 йилда мигрантларнинг пул ўтказмалари 414 миллиард АҚШ долларидан иборат бўлган. 2013 йилда мигрантлар томонидан амалга оширилган пул ўтказмалари Ҳиндистонда 71 млрд АҚШ доллари, Хитойда 60 млрд АҚШ доллари, Филиппинда 26 млрд АҚШ доллари, Мексикада 22 млрд АҚШ долларидан иборат бўлган. Сўнгги йилларга келиб Россиядан Ўзбекистонга мигрантлар томонидан пул жўнатмалари миқдори ортиб бораётганлигини кўриш мумкин: 2014 йил - 5,6 млрд АҚШ доллари, 2015 йилда - 3 млрд АҚШ доллари, 2016 йилда - 2,7 млрд АҚШ доллари, 2017 йилда 3,9 млрд АҚШ доллари.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлиги асраш-давр талаби” мавзусидаги анжуманда Россия Федерациясига давлат ташрифи чоғида меҳнат миграцияси бўйича муҳим келишувга эришилганлигини таъкидлаб, “Бизнинг бу борадаги позициямиз аниқ: одам қаерда бўлса ҳам ишлаши, оиласи, бола-чақасини боқиши керак. Лекин у ҳалол меҳнат қилиши, қонуний йўл билан даромад топиши лозим. Бунинг учун давлатимиз барча шароитларни яратиб беришга тайёр” [11], деб алоҳида урғу берди.

2018 йилда Россиядан Ўзбекистонга 4 миллиард АҚШ доллари миқдорида пул жўнатмалари юборилди. Мазкур кўрсаткичга кўра, Ўзбекистон МДҲ давлатлари орасида биринчи ўринни (иккинчи ўринда Тожикистон - 2,5 миллиард АҚШ доллари) ва барча мамлакатлар орасида иккинчи ўринни (биринчи Швейцария - 9,1 миллиард АҚШ доллари) эгаллаб турибди. Ўзбекистонга бир пул жўнатмасининг ўртача миқдори 366 АҚШ долларини ташкил этди. Жами 4 миллиард АҚШ долларидан фақатгина 1,1 миллиард АҚШ доллари Россия Федерацияси резидентлари томонидан жўнатилган бўлса, қолган 2,9 миллиард АҚШ доллари норезидентлар (Ўзбекистон ва қўшни давлатлар фуқаролари) ҳиссасига тўғри келади. 2018 йилда Россиядан юборилган пул 2 фоизга камайган бўлсада, қолган мамлакатлардан жўнатилган ўтказмалар улуши ортди.

Миграция жараёнида ташқи меҳнат мигрантлари жўнатадиган пул маблағлари айрим мамлакатлар иқтисодий ҳаётининг каттагина қисмини ташкил этади. Масалан, Жаҳон Банки тадқиқотида маълум қилинишича, паст ва ўрта даромадга эга давлатлардан бўлган меҳнат мигрантлари 2018 йилда ўз юртларига катта миқдорда, 529 миллиард АҚШ доллари ўтказишган [12]. Бу ижтимоий-иқтисодий жараёндаги ўсиш 2017 йилга нисбатан 9,6 фоизни ташкил қилган. Бундай ўтказмаларнинг асосий олувчилари Ҳиндистон, Хитой, Мексика, Филиппин ва Миср бўлган. Бу ҳақда Жаҳон Банки тадқиқотида маълум қилинди. 2017 йилда бу кўрсаткич 483 млрд долларни ташкил қилган. Умуман олганда, бутун дунё бўйлаб, жумладан юқори даромадга эга давлатлар бўйича ўтказмаларнинг ҳажми 698 млрд долларни ташкил қилган. Шимолий Осиё ва Тинч океани минтақасига пул ўтказмалари 2018 йилда 7 фоизга ошиб, 143 млрд долларни, Европа ва Марказий Осиёга эса 11 фоизга ошиб, 59 млрд долларни ташкил қилган. Шунингдек, мигрантлар томонидан Лотин Америкаси ва Кариб ҳавзаси давлатларига 88 млрд доллар, Яқин Шарқ ва Шимолий Африка давлатларига 62 млрд доллар ҳамда Жанубий Осиёга 131 млрд доллар ўтказилган. Ўзбекистон Республикаси мигрантлар сони (эмиграция) бўйича ҳам, бизга келувчилар (иммиграция) борасида ҳам кучли ўнликка кирмайди. Ўзбекистонлик мигрантлар, хусусан меҳнат мигрантлари асосан 5 йўналиш – Россия, Қозоғистон, Туркия, Жанубий Корея ва АҚШга йўл олади. АҚШ ва Туркияга йўл олган Ўзбекистонлик мигрантлар томонидан 2018 йилда ушбу мамлакатлардан жўнатилган пул ўтказмалари 30 фоизгача ошди.

Мигрантлар жамиятнинг ажралмас қисми, улар ўз юртлари ва ҳозирда яшаётган давлатларининг барқарор ривожини учун хизмат қилади. Бу ҳақда БМТ Бош қотиби Антониу Гутерриш 2019 йил 18 декабрь куни нишонланган Халқаро мигрантлар куни муносабати билан йўллаган баёнотида маълум қилади. Жорий йил ўрталаридаги ҳисоб-китобларга кўра, дунёда ватанини тарк этган ва хорижга йўл олган 270 миллион аҳолида мигрант мавжуд. Улар дунё аҳолисининг 3,5 фоизини ташкил этади. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош қотибининг таъкидлашича, қочоқлардан фарқли ўлароқ мигрантлар бошқа мамлакатларга ҳаётдан хавфсизрагани учун эмас, балки пул топиш ёки таълим учун йўл олади. Улар томонидан уйларига юборилаётган пул ўтказмалари ҳажми ривожланаётган давлатларга кўрсатилаётган расмий ёрдам миқдоридан уч барабар кўпдир. 2018 йил мигрантлар томонидан амалга оширилган пул ўтказмалари эса 689 миллиард долларни ташкил этган. БМТ Бош қотиби А.Гутерриш: “Хавфсиз, тартибга солинган ва қонуний миграция умумманфаат учун хизмат қилади. Миграция

масалаларидаги миллий устуворликлар эса халқаро ҳамкорлик асосида самаралироқ амалга оширилади”, — деб таъкидлайди ўз баёнотида.

Хулоса ўрнида шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, гарчи бугунги кунда миграция жараёнларининг асосий қисми ривожланаётган давлатлар ҳиссасига тўғри келсада, миграциянинг мамлакатлар ижтимоий ҳаёти ва иқтисодиётидаги глобаллашуви ўзининг ижобий ва салбий жиҳатларига эгадир. Унинг ижобий жиҳатлари: халқаро миграцияда пул ўтказмаларини тартибга солиш жараёнида интернет банк фаолиятларининг авж олиши, электрон пулларнинг оммалашшига таъсир этиб Республикага чет эл валютаси тушумини янада кўпайтиради. Ўз навбатида миграция жараёнларининг чуқурлашиши натижасида халқаро валюта бозорларидаги операциялар ҳажми ҳам ортиб бормоқда. Илмий кузатишлар ва статистик таҳлиллар асосида хулоса қилиш мумкинки: мамлакатда мигрантлар томонидан амалга оширилаётган пул жўнатмаларидан самарали фойдаланишнинг Давлат дастури ишлаб чиқилса, мигрантларнинг ўз оилаларига сармоя қўйиш амалиётини жорий этиш мумкин. Сабаби мигрантлар пул жўнатмалари улар оилаларининг ижтимоий-иқтисодий аҳволининг яхшиланишига имкон беради. Ўзбекистонда мигрантларнинг пул ўтказмаларини расман баҳолаш тизими мавжуд бўлмаганлиги сабаб пул ўтказмаларини минтақалар бўйича мониторинг қилиш ҳам муҳим ҳисобланади, чунки шу вақтгача бу жараён амалиётда илмий-назарий ўраганилиб чиқилмаган. Шу боис жойларда мамлакатнинг иқтисодий-ижтимоий тараққиёти учун пул жўнатмалари имкониятларидан янада тўлароқ ва самаралироқ фойдаланишга имкон берувчи етарли ва содда механизмларни яратиш лозим. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, хорижга ишлаш учун кетган мигрантларнинг ўз ватанларига жўнатаётган пул ўтказмалари мамлакат валюта тушумида муҳим омил бўлиб импортни кўпайтиришга, Ўзбекистонда инвестиция муҳитини яратишга, аҳоли моддий аҳволининг яхшиланишига, шунингдек, Ўзбекистон ва жаҳон банк тизими фаолиятини ҳам фоллаштиришга самарали таъсир кўрсатади.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Усмонов Ж. Халқаро меҳнат бозоридаги замонавий тенденциялар. Государственное высшее учебное заведение “Переяслав-Хмельницкий государственный педагогический университет имени Григория Сковороды” Материалы Международной научно-практической интернет-конференции “Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации” 28 ноября 2018 года Вып. 41. Сборник научных трудов Переяслав-Хмельницкий.Переяслав-Хмельницкий – 2018, 101-с.
2. [https://mover.uz/watch/Ah2zIYi?fbclid=IwAR1F2\\_eXmcNuToNPCKp20rZ75cqpe-hSdzjU2lm\\_UrtKIN\\_c-nCnp64Oij9U](https://mover.uz/watch/Ah2zIYi?fbclid=IwAR1F2_eXmcNuToNPCKp20rZ75cqpe-hSdzjU2lm_UrtKIN_c-nCnp64Oij9U)
3. uzAnalytics.com April 14, 2019. Меҳнат миграцияси ва тенденциялар.
4. Hein de Haas The impact of international migration on social and economic development in Moroccan sending regions: a review of empirical evidence. International Migration Institute, 2007, P.5.
5. Джунайдуллаев Д.А. Ўзбекистон минтақаларида аҳоли миграцияси ва уни тартибга солишни такомиллаштириш. иқтисод фанлари номзоди даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. ЎзМУ. 2012 йил, 112- б.
6. Юсупова С.Н. Ўзбекистонда меҳнат миграцияси масаласи: муаммо ва ечимлар//Имй хабарнома Научный вестник 2017 / № 4, Андижон 2017 йил, 66- б.
7. International money transfer services market in Uzbekistan. Prepared for international development center. Prepared by antimonopoly policy for support of competition and entrepreneurshi p. Canada, 2013. P.41.
8. Maksakova L., Mamadalieva Kh. Uzbekistan: modern demographic trends // Demoscope Weekly. No. 617-618.3-6 of November. М.: 2014.
9. Migration and Remittances Factbook 2011. Second edition. The World Bank - Washington, 2010, P.17.
10. Филип Р. Денежные переводы мигрантов - живительный источник развития//Финансы & развитие, Декабрь 2005. 43с.
11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш-давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи//“Халқ сўзи”, 2017 йил, 16 июнь.
12. [kun.uz//](http://kun.uz/)Жаҳон. 2018 йилда мигрантлар томонидан юртларига рекорд миқдорда пул ўтказилди. 10442.09.04.2019.

ЎУК:338.48

#### ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ГЕРМАНИЯ ТАЖРИБАСИ

*Д.Й. Бекжанов, таянч докторант, Урганч давлат университети, Урганч*

*Аннотация. Мақолада туризм соҳасини ривожлантиришнинг Германия тажрибаси статистик ва сўровнома маълумотлари асосида таҳлилий усуллар асосида ўрганилган ва бу*



тажрибанинг ижобий жиҳатларини Ўзбекистон туризм соҳасига мослаштирган ҳолда қўллаш бўйича тавсиялар берилган.

**Калитли сўзлар:** туризм соҳаси, туристик дестинация, сайёҳ, туризмни бошқариш, туристлар оқими.

**Аннотация.** В статье рассматривается немецкий опыт развития туризма на основе статистических и опросных данных, с использованием аналитических методов, а также даются рекомендации по применению положительного опыта в сферу туризма Узбекистана.

**Ключевые слова:** сфера туризм, туристическая дестинация, турист, менеджмент туризма, туристический поток.

**Abstract.** The article discusses the German experience in the development of tourism on the basis of statistical and survey data, using analytical methods, and also gives recommendations on the application of positive experience in the tourism sector of Uzbekistan

**Key words:** tourism sector, tourist destination, tourist, tourism management, tourist flow

**Кириш.** Туризм соҳаси жаҳондаги кўпчилик мамлакатлар иқтисодиётида барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ва аҳолини мунтазам иш билан банд қилаётганлиги сабабли жаҳон хўжалигида муҳим аҳамият касб этади. Бутунжаҳон туризм ташкилоти маълумотларига кўра, 2018 йилда халқаро туристлар сони 1 миллиард 400 миллион кишини ташкил қилган ва шу йили халқаро туристик хизматлар экспорти 1,7 триллион АҚШ долларига етган. 2030 йилга келиб халқаро туристлар сони 1 миллиард 800 миллион кишига етиши башорат қилинган. 2018 йилда жаҳондаги мамлакатлар ичида Филиппин ялпи миллий маҳсулотининг 24,7% туристик хизматлардан шакллانганлиги ва мамлакат аҳолисининг 20,2% туризм соҳасида банд бўлганлиги билан бу давлат иқтисодиётида туризм соҳаси ҳал қилувчи соҳалардан бири эканлигини билдиради [1].

Германия туризм соҳасидан олинадиган даромад ва ташриф буюрган туристлар сони бўйича дунёда ривожланган 10 та давлатлар қаторига киради ва туризм тармоғининг ўсиб бориш суръатлари бўйича Европа мамлакатлари ўртача кўрсаткичидан анча баланд ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан туризм соҳасини ривожлантиришнинг Германия тажрибасини ўрганиш ҳозирги кунда жаҳон туристик бозори учун очилаётган ва бу бозорда ўз мавқеини мустаҳкамлашга интилаётган Ўзбекистон учун муҳим ҳисобланади.

**Мавзу бўйича адабиётлар шарҳи.** Сўнгги йилларда туризм соҳасини мамлакатлар макроиқтисодий кўрсаткичларига таъсири, туризм тармоғида статистик ҳисоб-китобларни олиб бориш, туризм соҳаси маркетинги, менежменти, логистикаси ва хавфсизлик бўйича бир қатор илмий-тадқиқот ишлари олиб борилган. Бундан ташқари туризм соҳасини худудий ва локал даражада ривожлантиришнинг таҳлилий методологик асосларини ишлаб чиқиш илмий-тадқиқот ишларида кенг қўлланилмоқда.

Гарбий Европа мамлакатларида туризм соҳасини ривожлантириш муаммолари Т.Биегер, П.Берителли, Г. Пехланер, В. Фрейер, П. Келлер, Х. Рюпер, Й.Криппенфорт, У. Мюллер, К. Каспер ва бошқалар томонидан илмий жиҳатдан тадқиқ қилинган.


Т.Биегер, П.Берителли [2] ва Г. Пехланерлар [3] туризм соҳасини илмий жиҳатдан ўрганишда туристик дестинация атамасини кенг таснифлашган ва туристик дестинациялар рақобатбардошлигини ошириш, туристик дестинацияларни бошқариш ва уларни барқарор ривожлантириш бўйича ўзларининг илмий қарашларини баён қилишган. В. Фрейер туризм соҳасига тармоқ жиҳатидан ёндашган ҳолда, туризм тармоғини таснифлаш ва туристик дестинацияни туристик хизмат таклиф қилувчилар нуқтаи назаридан ўрганган [4]. П.Кеплер туризм соҳасини барқарор суръатларда ўсиш детерменантларини туристик дестинация миқёсида илмий жиҳатдан ёритган [5].

**Таҳлил ва натижалар.** Мақолада Бутунжаҳон туризм ташкилоти, Германия федерал статистика бошқармаси статистик маълумотлари ва Германия дестинацион мониторинг ташкилотининг немис сайёҳлари ўртасида ўтказилган сўровнома натижаларида олинган маълумотлар асосидаги солиштирма ва тизимли таҳлил усулларида кенг фойдаланамиз. Бу турли график, диаграмма асосидаги расмлар ва жадвал маълумотларда акс эттирилган.

2018 йилда жаҳон мамлакатлари ичида Германия иқтисодиётида туризм соҳаси ҳам салмоқли улушга эга эканлигини, мамлакатни ялпи миллий маҳсулотида туризм соҳасининг улуши 8,6% ва туризм соҳасида банд бўлган аҳоли 12% га етганлигини бевосита таъкидлаб ўтишимиз зарур.

Германия Европада туризм соҳаси энг ривожланган мамлакатлардан бири ҳисобланади. Бу мамлакатда туризм соҳасининг ривожланганлиги жаҳон миқёсида 2018 йил маълумотлари асосида глобал даражада солиштирилган энг яхши йўналишлари қуйидагилар ҳисобланади:


- Европалик сайёҳлар ўртасида тарихий-маданий туризм жозибадорлиги бўйича Европа мамлакатлари ичида 1-ўринни эгаллаган;
- Халқаро кўргазма ва ярмаркаларни ташкил қилишдан сайёҳларни жалб қилиш бўйича жаҳонда 1-ўринда туради;
- Конгресс ва йиғилишларни ўтказишга асосланган туризм соҳаси бўйича Европа мамлакатлари ичида 1-ўринни эгаллаган;
- Ёш европалик сайёҳлар (15-24 ёш) ўртасида энг сеvimли туристик дестинация номинациясида 1-ўрин ҳисобланади;
- Жаҳондаги 50 дан ортиқ миллат саёҳат қилишни хоҳлайдиган энг талаб юқори туристик дестинация сифатида 1-ўринда туради;
- Шаҳарларини саёҳат қилиш бўйича европалик сайёҳлар ўртасида 1-ўринни эгаллаган;
- Халқаро люкс классдаги саёҳат бўйича Европа мамлакатлари ичида 2-ўринда туради;
- Глобал доирадаги жаҳон туристик бозорига таклиф нуқтаи назаридан 136 мамлакат ичида 3-ўринни эгаллаган.



1-расмда. 2018 йилда жаҳон мамлакатлари ЯММ ва аҳоли бандлигида туризм соҳасининг улуши, %да  
Манба: Бутунжаҳон туризм ташкилоти статистик маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

Германияда 2008 йилдан бери туризм тармоқ сифатида бошқа машҳур саноат тармоқларидан машинасозлик, автомобилсозлик ва кимё саноати каби Федерал статистика бошқармасининг иқтисодий тармоқлар рўйхатига киритилмаганлиги билан фарқ қилади. Бу рўйхат бозорга маҳсулот таклиф қилувчилар нуқтаи назаридан шакллантирилган бўлиб, улар тармоқлар томонидан яратилган аниқ турдаги ишлаб чиқарилган маҳсулотларга йўналтирилган. Германияда туризм соҳасини қўшилган қиймат занжири ва бандликка таъсирини ёритишда, унинг талаб нуқтаи назаридан чегараланганлигига эътибор қаратилади. Туристлар томонидан талаб қилинадиган барча турдаги товар ва хизматлар статистик нуқтаи назаридан бошқа тармоқда яратилишидан қатъи назар туристик маҳсулот ҳисобланади. Туристларга сотиш учун


сувенирлар, озиқ овқат маҳсулотлари, транспорт воситалари каби турли хил маҳсулотлар яратилиш нуқтаи назаридан бошқа соҳаларга тегишлидир. Шунинг учун ҳам туристлар томонидан талаб қилинган маҳсулот ва хизматлар бошқа тармоқлар томонидан таклиф қилинган маҳсулот ва хизматлар жамланмасидан ташкил топганлиги сабабли туризм “қоришма тармоқ” сифатида қаралади. Бошқа тармоқларнинг макроиқтисодий моҳиятини ёритишда ишлаб чиқариш ҳажми, ялпи тушум, бандлик ва бошқа кўрсаткичлар ҳақидаги статистик маълумотлардан кенг фойдаланилади, аммо бу каби маълумотлар қоришма тармоқ бўлган туризмда мавжуд эмас.



2-расм. Германиядаги жами туристлар сони ва уларнинг тунаб қолиш кунлари, млн. киши  
Манба: Германия Федерал статистика бошқармаси статистик маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

Шунинг учун 2008 йилдан бошлаб, Германияда Бутунжаҳон туризм ташкилоти, БМТ, Европа хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти ва Европа статистика бошқармаси томонидан тавсия қилинган, туризм соҳасининг макроиқтисодий моҳиятини ёритиш ва иқтисодиётга таъсирини баҳолашда кенг қўлланиладиган “Туристик сатилитик ҳисоб” усулидан фойдаланилади. Бу туристик сатилитик ҳисобни яратишдан асосий мақсад туристлар фаоллиги билан боғлиқ бўлган товар ва хизматларни таҳлил қилиш ва таклиф қилувчилар фаолиятини унга бевосита боғлаш, шунингдек, туризмни иқтисодиётнинг бошқа соҳаларига таъсирини баҳолашдан иборат.

Жаҳон туризм соҳаси йилдан йилга ривожланиб бормоқда. 2018 йилда 1 млрд 403 млн. турист халқаро ташрифни амалга оширган бўлиб, бу кўрсаткични 2017 йил билан солиштирганда 5,6% га ижобий ўсиш кузатилган. Бунда асосан Европада 5,6%, Осиё ва Тинч Океани хавзасида 6,1%, Яқин ва Ўрта Шарқда 10,3%, Африкада 7,3% ва Америкада 2,9% туристлар оқимининг ўсиши қайд қилинган.



3-расм. Германияда хорижий туристларнинг тунаб қолиш кунлари, млн. киши  
(Германия Федерал статистика бошқармаси 2019 йил маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси)

2-расмда Германияга ташриф буюрган жами ички ва хорижий туристлар ҳамда уларнинг тунаб қолиш кунлари ҳақида маълумот акс эттирилган. Бунда 2010-2018 йиллар оралиғидаги маълумотлар акс эттирилган бўлиб, 2010 йилда 140 млн. туристга хизмат кўрсатилган бўлиб, улар шу йили 380,3 млн. кун тунашган ва бу кўрсаткичнинг йиллар давомида барқарор ўсиш

тенденцияси кузатилади. 2018 йилга келиб, хизмат кўрсатилган жами туристлар сони 185,1 млн. кишига етган ва бу 2010 йил билан таққосланганда 45,1 млн. кишига ёки 32,3% га ошганлиги кузатилади.

2018 йилдаги хизмат кўрсатилган туристлардан 38,9 млн. киши хорижий турист ва 146,2 млн. киши ички турист ҳисобланади. 2018 йилда 87,7 млн. кун хорижий ва 390,3 млн. кун ички туристлар тунаш кунларига тўғри келган. Бу ерда мамлакат туризм соҳанинг барқарор ривожланишида ички туризмнинг салмоғи ҳам юқорилигини таъкидлаб ўтиш зарур.


3-расмда Германияга ташриф буюрган хорижий туристларнинг тунаш кунлари ҳақида маълумотлар, 1993-2018 йиллар оралиғидаги асосий ўзгаришлари акс эттирилган. 1993 йилда бу кўрсаткич 34,7 млн. кишига тўғри келган бўлса, 2018 йилда 87,7 млн. кишига етган ва 1993 йилга нисбатан 53 млн. кишига ошган ёки 153% га ўсиш кузатилган. 2018 йилдаги 87,7 млн. кишилик тунаш кунлари ичида асосан қуйидаги мамлакатлар етакчилик қилган: Нидерландия 11,4 млн., Швейцария 6,9 млн., АҚШ 6,7 млн., Буюк Британия 5,9 млн., Австрия 4,2 млн., Италия 4 млн., Франция 3,7 млн., Дания 3,3 млн., Польша 3,3 млн., Белгия 3,1 млн., Испания 3,0 млн., Хитой 3,0 млн. 2018 йилда энг кўп европалик сайёҳлар ташриф буюрган мамлакатлар Испания 66,5 млн. турист, Германия 59,0 млн. турист, Франция 44,0 млн. турист ҳисобланади.

2018 йили немис туристларининг жуда фаоллиги кузатилган, 55 млн. киши 70,1 млн. дам олиш саёҳатини ва 35,4 млн. киши қисқа саёҳатни амалга оширишган ва бунда ҳар бир турист битта дам олиш саёҳати учун ўртача 1017 евро ва қисқа саёҳат учун 268 евро маблағ сарфлашган. Бу дам олиш саёҳатларнинг энг катта улуши, 27% мамлакат ички туризмга тўғри келган бўлса, Испания 13,7%, Италия 8,1%, Туркия 5,1%, Австрия 4,9% га тўғри келган ва қисқа саёҳатларнинг 74,2% мамлакат ички туризмга, Нидерландия 3,9%, Австрия 3,8%, Франция 2,5%, Италия 2,4% бўлган.

Германияда хизмат сафари билан 2018 йилда жаҳон бўйича 13 млн. киши ташриф буюрган бўлиб, шундан 7 млн. киши европалик туристлар ҳисобланади. Умумий туристларнинг 46% анъанавий хизмат сафари, 33% конгрес ва конференцияларда қатнашиш, 16% кўргазма ва ярмаркаларда иштирок этиш учун ва 5% кам харажат талаб қиладиган бошқа хизмат сафарлари бўйича саёҳат қилишган.

Германияда туризм соҳасини ривожланишида кириш туризмнинг салмоғига қараганда чиқиш туризмнинг салмоғи катта бўлиб, немислар саёҳат қилишга кўп харажат сарфлайдиган халқ ҳисобланишади. Бу 4-расмда ўз аксини топган.

4-расмдаги маълумотларда немисларнинг саёҳат қилиш учун 2007-2018 йилларда сарфлаган харажатлари ва шу йилларда чет эллик саёҳатлардан олинган даромад динамикаси акс эттирилган. 2018 йилга келиб немисларнинг хорижга саёҳат учун харажатлари рекорд даражага 79,4 млрд. еврога етган ва шу йили чет элликлар саёҳатидан олинган даромад таҳлил қилинганда йиллар ичида энг юқори 36,1 млрд. евро қайд қилинган.



4-расм. Немисларнинг хорижга саёҳати учун сарфлаган харажати ва чет элликларнинг Германияга саёҳатидан олинган даромади, млрд. еврода

Манба: Германия Федерал статистика бошқармаси статистик маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

Немис халқи хорижга саёҳат қилишни яхши кўриши ва унинг учун харажатларини аямаслигини ҳисобга олган ҳолда, уларни мамлакатимизга саёҳат қилишга ундашда саёҳат қилиш мотивини мукамал ўрганиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Немис халқи ҳар йили турли туристик дестинацияларга саёҳат қилишни афзал кўришади.



**5-расм. Немис туристларининг саёҳат вақтидаги асосий фаолият йўналишлари**  
**Манба: Германия дестинация монитори ташкилоти томонидан 2018 йилда ўтказилган сўровнома**  
**натижалари асосида муаллиф ишланмаси**

Немис туристлари ўртасида уларнинг саёҳат мақсади, хоҳиш истаклари ва саёҳат жараёнидан қониқишларини ўрганиш учун 2018 йили Германия Дестинация монитор ташкилоти томонидан сўровнома ўтказилган. Ундаги энг муҳим қирраларни ёритиб ўтамиз. Бу асосан немис туристларининг ички ва хорижий туризмдаги фаолликларини бевосита ўрганиш бўйича “Саёҳат вақтида асосан қайси фаолият турларига эътибор қаратасиз?” деган саволга битта турист кўп вариантли жавобларни бериш имконияти мавжуд бўлган ва анкета сўровномада қуйидаги жавоблар олинган. Бунинг натижалари 5-расмда акс эттирилган.

Бу сўровнома натижасига асосан мамлакатимизга келажакда саёҳат қилиши кутилаётган немис туристлари саёҳат вақтидаги қизиқишларини ўрганишимизга ва келажакда туристик дестинацияларда туристик маҳсулот ва хизматларни таклиф қилишда немис туристларининг ҳам талабларини инобатга олиш ва энг муҳими, туристик дестинацияларни барқарор ривожлантириш ҳамда рақобатбардошлигини оширишда кенг фойдаланишимиз мумкин.

Германияда туристик дестинацияларда режалаштириш ва уларни халқаро туристик бозорда туристик маҳсулотларини сотишга ёрдам берадиган 5000 дан ортиқ ташкилот фаолият юритмоқда. Бу ташкилотлар дестинациядаги иқтисодий субъектлар эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда, турли хил фаолият турлари билан фаол тарзда шуғулланади ва фаолият юритиш нуқтаи назаридан нотижорат ташкилотлари ҳисобланишади. Сўнгги йилларда немис туризм соҳаси сиёсатчилари томонидан туристик ташкилий тизимларга янги талаблар қўйилди. Бу ерда асосий эътибор немис туристик ҳудудларининг туристик дестинация талабларига жавоб бериши қаралади. Бу йўналишда турли хил назарий қарашлар фарқланади, лекин амалиётда қўллаш мумкин бўлган ва дестинацияни ривожлантиришга бевосита таъсир кўрсатувчи қуйидаги 2 та асосий ёндашув муҳим ҳисобланади:

1. Локал туристик тизимни мақбуллаштириш ва кучайтиришга қаратилган ёндашув.

2. Кичик туристик ташкилотларни ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил қилиш ва уларни битта қатта тизимвий бирликка келтиришга қаратилган ёндашув.

Бу янги ташкилий тизимларнинг локал ва ҳудудий миқёсдаги таъсири, хилма хиллиги ва самарадорлиги дестинациянинг ривожланганлигини аниқлашда асосий мезон сифатида қаралади. Биз бу жарённинг ривожланиши ва мамлакат миқёсидаги дестинациянинг ривожлантириш концепциясини ёритамиз.

Германияда миллий даражадаги туризм соҳасидаги сиёсат “пастдан юқорига” тамойили асосида олиб борилади. Локал ва ҳудудий миқёсдаги туристик сиёсатни олиб боришда ҳар бир туристик дестинациянинг ўзига хос жиҳатлари ва ҳудудлар манфаатлари ҳисобга олинади,

шунингдек, ҳар бир туристик дестинацияни барқарор ривожлантириш ва рақобатбардошлигини ошириш учун пастдан юқорига қараб таклифлар киритилади.

1-жадвал

**Германия туризм соҳасининг ташкилий тузилмаси**

Туризм соҳасидаги сиёсат	Туризм соҳасини бошқаришни ташкил қилиш	Давлат ва жамоат ташкилотлари
<b>Миллий даражада</b>		
Туризм соҳасидаги сиёсат	Туризм соҳасини бошқаришни ташкил қилиш	Давлат ва жамоат ташкилотлари
<b>Федерал ўлкалар миқёсида</b>		
Туризм соҳасидаги сиёсат	Туризм соҳасини бошқаришни ташкил қилиш	Давлат ва жамоат ташкилотлари
<b>Худудий миқёсда</b>		
Туризм соҳасидаги сиёсат	Туризм соҳасини бошқаришни ташкил қилиш	Давлат ва жамоат ташкилотлари
<b>Локал миқёсда</b>		
Туризм соҳасидаги сиёсат	Туризм соҳасини бошқаришни ташкил қилиш	Давлат ва жамоат ташкилотлари

**Хулоса ва таклифлар**

Туризм соҳасини ривожлантиришда Германия тажрибасини ўрганиш натижасига хулоса тариқасида мамлакатимизда куйидагиларни амалга ошириш бўйича илмий таклифларни амалга оширишни тавсия қиламиз:

1. Германия туристик хизматлар бозорини ривожланишига тўсқинлик қилган муаммоларни ёритиш ва мамлакатимиз туризм соҳасини истикболли ривожланишида ундан фойдаланиш.

2. Германияда конгресс ва йиғилишларни ўтказишга асосланган туризм соҳаси йўналишини илғор тажрибасидан мамлакатимизда шу турдаги туризмни ривожлантиришда фойдаланиш.

3. Немис туристларини саёҳат вақтида амалга оширадиган асосий фаолият турларини ўрганган ҳолда, мамлакатимизга Германиядан ташриф буюрувчи хорижий сайёҳларни жалб қилишда ундан фойдаланиш.

4. Германияда туризм соҳасини давлат томонидан бошқариш ва қўллаб қувватлашнинг устувор йўналишларини мамлакатимиз туризм соҳасига мос келувчи жиҳатларини татбиқ қилиш.

5. Туризм соҳасини бошқаришда локал ва худудий миқёсдаги субъектларнинг фаоллигини ошириш ва мамлакатимизда соҳани бошқаришда “пастдан юқорига” ҳаракатланиш усулидан фойдаланиш.

6. Ўзбекистонда туризм соҳасини тармоқ нуқтаи назаридан тизимли ривожлантириш ва халқаро туризм бозорида ўз мавқеини мустақамлаб боришида Германиядаги туризмни бошқариш, туристик брендни шакллантириш ва рақобатбардошликни ошириш бўйича тажрибалардан кенг фойдаланиш.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. UNWTO(2019) Tourism Highlights, p. 3 // <http://www.unwto.org>
2. Bieger,T., Beritelli P.(2013) Management von Destinationen und Tourismusorganisationen, 8. Aufl.,Oldenburg. München, S. 17
3. Pechlaner H. (2003) Tourismus-Destinationen im Wettbewerb. Deutscher-Universitätsverlag, Wiesbaden, S.15
4. Freyer W. (2015) Tourismus: Einführung in die Fremdverkehrökonomie, 11. Auflage De Gruyter Oldenburg S.12-15
5. Keller, P. (2005): Entstehung von Innovationen im Bereich des Tourismus – Sind fördernde tourismuspolitische Impulse notwendig? In: Pechlaner et al. (Hrsg.) (2005): Erfolg durch Innovation – Perspektiven für den Tourismus- und Dienstleistungssektor, Wiesbaden, S. 39-59
6. Германия Федерал статистика бошқармаси статистик маълумотлари <https://www.destatis.de/>.
7. Deutsche Zentrale für Tourismus e.V. (2019). Deutschland- Das Reiseland. [www.germany.travel.de](http://www.germany.travel.de)
8. Aktuelle Trends im Deutschlandtourismus.(2015). Neue Erkenntnisse aus dem GfK/ IMT Destination Monitor Deutschland. [http://www.imt-fhw.de/fileadmin/Dateien\\_imt/Unterlagen\\_Projekte/GfK\\_IMT\\_Destinationmonitor\\_ITB\\_2015\\_Aktuelle\\_Trends\\_im\\_Deutschlandtouris....pdf/](http://www.imt-fhw.de/fileadmin/Dateien_imt/Unterlagen_Projekte/GfK_IMT_Destinationmonitor_ITB_2015_Aktuelle_Trends_im_Deutschlandtouris....pdf/).

ЎУК:338.001.36.

**ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИНГ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ  
ЭКСПОРТИДА АХБОРОТ- КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН  
Фойдаланишдаги тизимли муаммолар таҳлили***А.Х. Бурханов, и.ф.н., доц., Гулистон давлат университети, Гулистон**А.А. Абдувоҳидов, катта ўқитувчи, Гулистон давлат университети, Гулистон**А.Б. Мухаметов, и.ф.н., доц., Гулистон давлат университети, Гулистон*

**Аннотация.** *Эркин иқтисодий зоналарнинг тадбиркорлик субъектлари экспорти ҳажмини оширишда ахборот - коммуникация технологияларидан фойдаланишдаги самарадорликни ошириш соҳадаги тизимли муаммоларни ҳал қилишни талаб этмоқда. Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, экспорт ҳажмининг ўсишига таъсир кўрсатаётган омил сифатида ахборот - коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг паст кўрсаткичлари корхоналарнинг муваффақиятли фаолият кўрсатишининг жиддий тўсиқларидан бири ҳисобланади.*

**Калит сўзлар:** *“Ягона дарча” тамойили, экспорт, ахборот – коммуникация технологиялари, коррупция ва бюрократия, респондент, Ягона интерактив давлат хизматлари портали, эркин иқтисодий зоналар.*

**Аннотация.** *Увеличение экспорта для субъектов предпринимательства свободных экономических зон требуют решить проблемы в области повышение эффективности использование информационных и коммуникационных технологий. Результаты анализа показывают низкую эффективность показателей использования информационно-коммуникационных технологий, что является одной из наиболее серьезных факторов, влияющим на успешную деятельность предприятий по росту объема экспорта.*

**Ключевые слова:** *Тенденция «Единого окна», экспорт, информационные и коммуникационные технологии, коррупция и бюрократия, респондент, единый интерактивный портал государственных услуг, свободные экономические зоны.*

**Abstract.** *Increased exports for businesses of free economic zones require solving problems in the field of improving the use of information and communication technologies. The results of the analysis show the low efficiency of the indicators of the use of information and communication technologies, which is one of the most serious factors affecting the successful activity of enterprises in increasing export volumes.*

**Keywords:** *“Single Window” trend, export, information and communication technologies, corruption and bureaucracy, respondent, single interactive portal of public services, free economic zones.*

**Кириш.** *Мамлакатимизда иқтисодиётни либераллаштириш, бошқарувнинг бозор тамойиллари ва механизмларини жорий этиш, қулай ишбилармонлик муҳитини шакллантириш, тадбиркорлик субъектлари экспортида ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш йўлидаги ортиқча бюрократик тўсиқ ва ғовларни бартараф этиш борасида тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Ўтган 27 йил ичида иқтисодиёт соҳасида 500 дан ортиқ Қонун ва қонуности ҳужжатлар қабул қилинган бўлса, уларнинг асосий қисми мамлакатда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятининг қонунчилик асосларини мустаҳкамлаш ҳамда соҳани ривожлантиришга қаратилди.*

*2017 йил 1 апрелдан бошлаб рўйхатга олиш тартиб – тамойилларини 30 дақиқагача қисқартириш имконини берувчи тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказишнинг автоматлаштирилган тизими ишга туширилганлиги “Doing Business 2020” глобал рейтингдаги “Бизнесни рўйхатдан ўтказиш” кўрсаткичи бўйича Ўзбекистоннинг мавқеини 24-ўрндан 8 ўрингача кўтаришга хизмат қилди.*

**Мавзунинг долзарблиги.** *Бугунги кунда тадбиркорлик субъектлари экспортида ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш эҳтиёжларини тўлиқ қаноатлантирадиган сифат жиҳатдан янги даражага ўтишга айрим тизимли муаммолар тўсқинлик қилмоқда. Хусусан:*

*- “Ягона дарча” тамойили бўйича давлат хизматлари кўрсатиш имкониятидан тадбиркорлик субъектлари фойдаланиши мумкин, лекин экспортни амалга оширишда ахборот – коммуникация технологияларидан фойдаланиш бўйича муаммолар мавжуд. Бунда тадбиркорлар ханузгача турли давлат органларида ҳужжатларни расмийлаштириш бўйича мураккаб тадбир–тамойиллардан ўтишга мажбур бўлмоқда;*

- қатор давлат органларида ахборот тизимлари, ресурслари ва маълумотлари базаларининг мавжуд эмаслиги, улар идоралараро интеграция қилинишининг паст даражада эканлиги жисмоний ва юридик шахслар томонидан барча давлат хизматлари мажмуасидан қулай ва ўз вақтида фойдаланишларини таъминламаяпти;

- кўпчилик давлат хизматларини кўрсатишнинг тартиб тамойиллари мураккаб ва фойдаланиш учун қийин бўлиб қолмоқда, нархини шакллантириш механизмлари шаффоф эмас алоҳида ҳолларда тор идоравий манфаатларида “монопол” хизматлари кўрсатишга талаблар белгиланмоқда;

- ахборот–коммуникация технологияларини жорий этилишининг паст даражада эканлиги, қоғоз ҳужжатлар айланмасининг сақланиб қолган андозалари асоссиз молиявий харажатларга, фуқаролар кўп вақт кутиб қолиши ва навбатлар юзага келишига ҳамда оқибатда, айрим ҳолларда коррупция ва бюрократия ҳолатларига олиб келмоқда;

- давлат хизматлари кўрсатишни, шу жумладан реал вақт режимида масофадан мониторинг қилиш ва жамоатчилик фикрини ўрганиш орқали назорат қилиш ва сифатини баҳолашнинг таъсирчан тизими мавжуд эмас.

Юқорида қайд этилган омиллар тадбиркорлик субъектларининг давлат хизматларидан кенг фойдаланишни таъминлаш, уларни кўрсатиш билан боғлиқ вақт ва молиявий харажатларни камайтириш, аҳолининг давлат органлари фаолиятдан қаноатланганлик даражасини ошириш имконини бермайди.

**Масаланинг мазмуни.** 2018 йилнинг II чорагидан бошлаб, иқтисодиёт реал сектори корхоналарининг жорий иқтисодий ҳолати ва истиқболдаги кутилмаларини ўрганиш юзасидан даврий (чораклик) сўров ўтказиш йўлга қўйилди.



1–расм. Экспорт ҳажмининг ўсишига тўсқинлик қилаётган омиллар бўйича жавобларнинг тақсимланиши [3]

Ушбу билан реал сектор корхоналари кузатувининг 2018 йилнинг IV чорак якунлари бўйича экспорт ҳажмининг ўсишига тўсқинлик қилаётган омиллар ўрганилганда, сўров натижалари ташқи бозорларда талабнинг пастлиги, ички транспорт харажатларининг юқорилиги ҳамда маҳсулотларни (иш, хизматларни) экспорт қилиш тартиб – тамойилларининг мураккаблиги билан боғлиқ ҳолатнинг нисбатан ёмонлашганлигини кўрсатмоқда.

Хусусан экспорт ҳажмининг ўсишига тўсқинлик қилаётган омил сифатида ташқи бозорларда маҳсулотга талабнинг пастлигини маълум қилган респондентларнинг улуши III чоракдаги 17 фоиздан IV чоракда 24 фоизгача ҳамда экспорт қилиш тартиб – тамойилларининг мураккаблигини маълум қилган респондентлар улуши 14 фоиздан 16 фоизгача ошган (6–расм). Шу билан бирга, экспорт ҳажмининг ўсишига тўсқинлик қилаётган омил сифатида транспорт харажатларининг юқорилигини ҳамда ташқи бозор конъюнктураси бўйича маълумотларнинг етарли эмаслигини кўрсатган респондентлар сони III чоракка нисбатан камайган.

2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харажатлар Стратегияси ва Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислохотлар концепциясини амалга ошириш, шунингдек аҳолига давлат хизматлари кўрсатиш миллий тизимининг сифат жиҳатидан янги даражага ўтишини таъминлаш мақсадида қуйидагилар давлат хизматлари кўрсатиш миллий тизимини тубдан ислох қилишнинг энг муҳим йўналишлари ҳисобланади:



- давлат хизматлари кўрсатиш соҳасида уларнинг сифати, тезкорлиги, шаффофлиги ва фойдаланиш имкониятини тубдан ошириш орқали “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак” деган улуғвор ғояни сўзсиз амалга ошириш;

- тадбиркорлик субъектларига “ягона дарча” тамойили бўйича давлат хизматларини кўрсатиш ягона марказларини ҳам юридик, ҳам жисмоний шахсларга “ягона дарча” тамойили бўйича хизматларни тақдим қилувчи Давлат хизматлари марказларига ўзгартириш;

- давлат хизматларининг ҳар бир тури бўйича “Фуқаролар эмас, ҳужжатлар ҳаракатланади” тамойилига кўра давлат хизматлари кўрсатиш механизмини, энг аввало, ортиқча тартиб- тамойилларни бартараф этиш, ваколатли давлат органлари ва бошқа ташкилотлар зарур ҳужжатлар ва ахборотларини бошқа тузилмалардан мустақил равишда олиши ҳисобига соддалаштиришни назарда тутувчи маъмурий регламентларни тасдиқлаш;

- давлат хизматлари кўрсатиш соҳасига инновацион ечимлар ва ахборот-коммуникация технологиларини жадал жорий этиш, давлат органлари ва бошқа ташкилотларнинг маълумотлар базаларини идораларо электрон ҳамкорлик ягона тизимга интеграция қилиш, Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали давлат хизматлари кўрсатиш амалиётини кенгайтириш;

- давлат хизматларини, шу жумладан олис жойларга чиқиш орқали (“мобил давлат хизматлари”) кўрсатишнинг мақбул, қулай ва шаффоф услубларидан, мазкур соҳада бюрократия ва коррупция юзага келишини бартараф этишга қаратилган навбатни бошқаришнинг автоматлаштирилган тизими ва ишларнинг узайтирилган графигидан фойдаланиш;

- давлат хизматлари кўрсатиш сифати ва тезкорлигини мониторинг қилиш ва баҳолашнинг илғор механизмларини жорий этиш, аҳоли билан қайта алоқанинг самарали тизимини, шу жумладан тезкор алоқаларни, расмий сайтлар, ижтимоий тармоқлар ва мобиль иловалардан онлайн сўровларни ташкил қилиш;

1-жадвал

**Тадбиркорлик субъектлари экспортда АКТдан фойдаланишни ривожлантириш ва лойиҳаларни амалга ошириш жараёнига хос бўлган асосий муаммолар [3]**

Соҳа	Муаммолар	Оқибатлари
Институционал жиҳатлар	Режалаштиришнинг самарасизлиги Мақсадларнинг ноаниқлиги	Тизимларни номуқобил лойиҳалаштириш Тизимларнинг иқтисодий самарасизлиги
Инсон ресурслари	Малакали мутассислар етишмаслиги Профессional ўқитишнинг йўқлиги	Тизимни қўллаб қувватлашнинг самарасизлиги Замонавий технологиялар яратиш манбалардан узилиб қолганлик
Молиялаштириш	Лойиҳалар қийматини етарлича баҳоламаслик Харажатларни қоплаш манбаларининг мавжуд эмаслиги	Лойиҳаларнинг тугалланмаганлиги Тизимларга қўшимча ишлар қийматининг юқорилиги
Ички муҳит	АКТнинг ривожланган миллий ишлаб чиқариш базаси мавжуд эмаслиги АКТни қўллаб қувватлашни таъминлайдиган сервис компаниялари йўқлиги	Тизимнинг малакали техник қўллаб қувватланмаслиги Жорий этишдаги қийинч-ликлар
Технологиялар	Асбоб-ускуналар ва дастурий таъминлаш турларининг чекланганлиги Зарурий дастурий таъминлашнинг йўқлиги	Хар хил тизимларнинг номувофиқлиги Буюртмали тизимларга ҳаддан ортиқ таяниш

- давлат хизматлари кўрсатиш соҳасида малакали кадрларни тизимли тайёрлашни, уларнинг малакасини, шу жумладан хорижий мамлакатларнинг етакчи ихтисослашган муассасаларида стажировка ўташ орқали тизимли равишда оширишни ташкил этиш лозим.

Юқоридаги жадвалда ўтиш иқтисодиётли мамлакатларда тадбиркорлик субъектлари экспортда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишни ривожлантириш лойиҳаларини амалга ошириш жараёнига хос бўлган асосий муаммолар кўрсатилган (1-жадвал).

Компьютер технологияларидан фойдаланишнинг имконияти мавжуд эмаслиги ҳамда улардан фойдаланишнинг асосий билимлар ва кўникмаларининг йўқлиги АКТ тизими муваффақиятли фаолият кўрсатишининг жиддий тўсиқларидан бири ҳисобланади. Чунки тадбиркорларда қулай ва сифатли давлат хизматларидан фойдаланиш имконияти мавжуд эмас экан, уларни ташкил этишга сарфланган саъйи-ҳаракатлар ва маблағларнинг самараси бўлмади. Интернетга кириш қийматини пасайтириш ва ахборот технологияларига ўқитишни ташкил этиш йўли билан бунга қарши курашиш зарур. Интернетдан жамоа бўлиб фойдаланиш пунктлари

(Интернет-киоскалар) ташкил этиш йўли билан ушбу муаммони қисман ҳал этиш мумкин. Ушбу амалиёт Эстония, Сингапур сингари мамлакатларда муваффақиятли қўлланилмоқда. Жамоа бўлиб фойдаланиш шаҳобчалари кутубхоналарда ёки почта бўлимларида жиҳозланиши мумкин. Бевосита ижрочиларнинг, яъни давлат хизматчиларининг ислоҳ қилишнинг мазмуни ва йўналишларини тушуниши муваффақиятнинг муҳим шартлари ҳисобланади. Давлат органлари билан тадбиркорлик субъектлари ўртасида АКТнинг имкониятларини ва ҳоқимият тузилмалари, аҳоли ва бизнес ўртасида муносабатларининг янгича турини йўлга қўйиш учун уларни қўллашнинг муҳимлигини англаб етишлари зарур.

Амалиёт кўрсатмоқдаки, тадбиркорлик субъектлари экспортида АКТдан фойдаланишда қуйидаги муаммолар ҳам долзарблигича қолмоқда:

- тадбиркорлар субъектлари билан ташкилотлар ўртасидаги ҳужжатлар алмашинуви аксарият ҳолларда қоғоз кўринишида бўлиб, кўпгина қарор қилиш жараёнларини секинлаштирмоқда. Бундан ташқари ушбу жараёнларда фойдаланилувчи қоғозларга қилинадиган харажатлар кундан кунга ортиб бормоқда. Шунинг учун ҳам ушбу жараёнларда АКТ функционал имкониятларидан кенг фойдаланиш лозим;

- жаҳон бозорлари талабларидан келиб чиққан ҳолда тадбиркорлик субъектлари экспортини амалга ошириш учун суғурта хизматларини АКТлар ёрдамида расмийлаштиришнинг электрон тизимини амалга ошириш;

- экспортни амалга ошириш жараёнида бахтсиз йўл ҳодисаси рўй берган ҳолда масофадан туриб, ушбу ҳолатга баҳо бериш АКТнинг функционал имкониятларидан кенг фойдаланиш;

- Республикамиздан туриб хориждаги мижозларнинг буюртмаларини электрон шаклда қабул қилиш;

- Экспорт ҳужжатларини расмийлаштиришда кўп вақт билан биргаликда жуда кўп хатоликлар ва коррупцияга дуч келинмоқда;

- Тадбиркорлик субъектларининг ҳудудлараро ҳужжатлар алмашинуви қисқа вақт мобайнида камайтириш;

- Тадбиркорлик субъектларида АКТдан қисман фойдаланилади, асосан ҳисоб-китоб операциялари ва бухгалтерия ҳисоботларини юритишни автоматлаштириш учун;

- Тадбиркорлик субъектлари экспорт фаолиятидаги мақсадларнинг ҳамма вақт ҳам аниқ эмаслиги;

- Экспорт самарадорлигининг пастлиги, реал ҳолат ва риск омилларини инобатга олмай туриб асоссиз қарорлар қабул қилиниши.

Тадбиркорлик субъектлари муаммоларини муваффақиятли ҳал қилиш, ишлар сифатини ошириш ва ушбу соҳани ривожлантиришнинг асосий омилларидан бўлиб, АКТ асосида самарали тизимни жорий қилиш ҳисобланади.



2-расм. Бизнесни ривожлантиришга салбий таъсир кўрсатадиган тартибга солиш омиллари (Респондентлар умумий сонининг %и ) [3]

Сўровда қатнашган тадбиркорлар тадбиркорликнинг ривожланишига салбий таъсир кўрсатадиган қуйидаги омилларни кўрсатдилар:

- Тартибга солиш нуқтаи назаридан, солиқ тизимини тартибга солиш ва банк тизимини тартибга солиш масалалари, шунингдек, махаллий ҳокимият органлари томонидан мавжуд муаммоларга эътибор қаратмаслик ҳолатлари салбий равишда таъкидланади;

- Хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг асосий тўсиқлари – кадрлар масаласи, инвесторлар учун маълумот йўқлиги, шунингдек, маҳаллий ҳокимиятларнинг паст даражадаги қизиқиши.

Тадбиркорликни ривожлантиришга салбий таъсир кўрсатадиган тартибга солиш омиллари бўйича ҳам бир неча омилларнинг таъсирини кўриш мумкин (1-расм).

Иқтисодиёт ва жамиятнинг ҳолатини акс эттирувчи халқаро рейтинглар Ўзбекистондаги ишбилармонлик муҳитининг заиф ривожланишини кўрсатади (2-жадвал).

Ўзбекистон бир қатор муҳим рейтингларда, масалан, Global Entrepreneurship Monitor рейтингда йўқ. Асосий муаммолардан яна бири иқтисодиёт ва жамиятнинг ҳолатини акс эттирувчи халқаро рейтингда Ўзбекистоннинг анча паст ўринларда эканлигидир.

Экспорт жараёнлари ва божхона тўсиқларини давлат томонидан тартибга солиш КБ ва ХТ экспортини ривожлантириш унун сезиларли қийинчиликлар туғдиради, экспорт қиймати юқори бўлиб туриб товарларни расмийлаштириш узоқ вақт олади (2-жадвал).

Бугунги кунда республикада тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлаш инфратузилмасининг етишмовчилиги ҳам мавжуддир (3-жадвал).

- Кўпгина ривожланиш институтларига қарамай, КБ ва ХТни қўллаб қувватлашнинг асосий элементлари мавжуд эмас.

- Ўзбекистонда минтақавий маслаҳат инфратузилмаси йўқ, хусусан, ТҚҚМ (тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш марказлари), ЭҚҚМ (экспортни қўллаб қувватлаш марказлари), минтақавий молиявий инфратузилма (минтақавий кафолат жамғармалари) ва бошқа турдаги қўллаб – қувватлаш инфратузилмаси (технопарклар, бизнес инкубаторлар).

- КБ ва ХТ учун ягона қўллаб қувватлаш органи йўқ.

2-жадвал

Экспорт жараёнлари бўйича мамлакатларнинг даражалари

Мамлакатлар	Экспортда улуши, %*	Экспорт қиймати (АҚШ доллари 1 йил TEUга)**	Экспорт жараёнлари давомийлиги, кун**
Япония	53%	829	11
Хитой	42%	823	21
Буюк Британия	34%	1005	8
АҚШ	%	1224	6
Канада	33%	1680	8
Ўзбекистон	27%	5090	54
Малазия	19%	525	11
Жанубий Корея	19%	670	8
Австралия	5%	1200	9

Изоҳ: \*Очик манбалардан олинган сўнгги фойдаланиш имкони бор даври (2015-2017 йиллар) маълумотлари

\*\*охирги фойдаланиш имкони бор давр учун маълумот – 2014 й.

3-жадвал

Қўллаб қувватлаш инфратузилмасининг етишмовчилиги

Ривожланиш институти	Таъриф
Кичик ва ўрта бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспортини қўллаб қувватлаш жамғармаси	Кичик ва хусусий бизнеснинг экспорт салоҳиятини кенгайтириш мақсадида институт ташкил этилди Чет эл бозорларида замонавий, рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришни кенгайтиришда зарурий юридик, молиявий ва ташкилий ёрдам билан КЎБни таъминлаш
Вазирлар Маҳкамаси қошидаги Давлат томонидан бизнесни ривожлантиришни қўллаб қувватлаш жамғармаси	Асосий фаолият йўналиши – тадбиркорларнинг молиявий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтиришдир (кафолат бўйича ёрдам) Махсус давлат, тармоқ ва минтақавий дастурлар, лойиҳалар ва тадбирларни амалга оширишда иштирок этиш
Савдо- саноат палатаси (ССТ)	Бизнес муҳитини яхшилаш ва тадбиркорликни ривожлантириш учун қулай шарт- шароитларни яратиш мақсадида ишлаётган нодавлат ноижорат ташкилоти консалтинг хизматларини кўрсатади Минтақавий бўлимлари мавжуд

Ўзбекистонда КБ ва ХТни қўллаб қувватлаш бўйича стратегияни ишлаб чиқадиган ягона консолидация қилувчи, шунингдек уни амалга оширишнинг кейинги мониторингини амалга оширувчи орган йўқ. Бунинг учун бутун дунёда тадбиркорлик субъектларини қўллаб қувватлаш марказлари мавжуд бўлиб, улар томондан тадбиркорлик субъектларига ҳар томонлама қўмак беришга мўлжаллаган (4-жадвал).

Тадбиркорлик субъектлари экспортини амалга оширишда АКТнинг имкониятларини ва ҳокимият тузилмалари, тадбиркор ва истеъмолчи ўртасида муносабатларнинг янги типини йўлга қўйиш учун уларни қўллашнинг муҳимлигини англаб етишлари зарур.

Омбор комплекслари хизматларидан норозилигининг асосий сабаблари омбор ишини автоматлаштиришнинг йўқлиги (41%) бўлиб, бу юклаш ва тушириш ишларининг тезлигини, маҳсулотнинг намунасини, маҳсулотнинг белгиланган муддатда етказиб беришга катта таъсир кўрсатади (2-расм).

4-жадвал

## Тадбиркорлик субъектларини қўллаб қувватлаш марказлари

Мамлакатлар	Ишлаб чиқиш КҰК стратегияси	Қўллаб- қувватлаш чораларини амалга ошириш	Мониторинг
Сингапур	SPRING Singapore	Бир неча ташкилотлар	SPRING Singapore, Сингапур савдо ва саноат вазирлиги
Малайзия	SME Corporation		SME Corporation
Япония	SME Agency		SME Agency
АҚШ	SBA		SBA
Вьетнам	SME Development council		SME Development council
Таиланд	OSMEP		OSMEP
Ҳиндистон	Ministry of SME		Ministry of SME
Жанубий Африка	Small Enterprise Development Agency		Small Enterprise Development Agency
Жанубий Корея	SMB Administration		SMB Administration
Россия	Россия Федерацияси Иқтисодий ривожланиш вазирлиги		Россия Федерацияси Иқтисодий ривожланиш вазирлиги
Ўзбекистон	Мавжуд эмас		Бир неча ташкилотлар



3-расм. Ўзбекистон Республикаси тадбиркорлари билан транспорт ва омбор- логистика ҳолати бўйича ўтказилган сўров натижалари [4]

Иккинчи сабаб – маҳсулотни қабул қилиш, сақлаш, жўнатиш бўйича номукамал омбор технологияси (28%) бўлиб, бу узоқ муддатли тушириш, транспортнинг узилиши, товарларнинг узоқ муддатли жойлаштириш ва бошқалар каби оқибатларга олиб келади.

Респондентлар, шунингдек, иш оқимини янгилаш (10%), хизматлар учун мослашувчан тарифларни қўллашни (7%) кўришни истайдилар.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, тадбиркорлик субъектлари олдидаги тизимли муаммоларнинг бартараф этилиши натижасида экспорт борасида ўсишга эришиш мумкин. Бунинг учун мамлакатимизда тадбиркорлик субъектларини хар томонлама қўллаб қувватлаш улар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотларни хориж мамлакатларига экспорт қилишда юзага келган муаммоларни замонавий ахборот – коммуникация технологияларидан фойдаланиш орқали бартараф этиш лозим. Бу эса ўз навбатида ҳудудларда етиштирилган маҳсулотларни ўз вақтида экспорт қилишда қўл келиши шубҳасиздир.

**Хулосалар.** Амалга оширилган тадқиқотларимиз мамлакатимизда фаолият кўрсатаётган эркин иқтисодий зоналар фаолиятини такомиллаштириш борасида бир қатор хулосалар яшаш имконини беради.

**Биринчидан**, қулай иқтисодий муҳит яратиш ва эркин иқтисодий зоналарнинг самарали фаолият юритиши учун уларни ишлаб чиқаришнинг айрим турларига ихтисослашувини таъминлаш муҳимдир. Фаолиятни эркинлаштириш даражаси ва солиқларнинг самарадорлиги муваффақиятли ва муваффақиятсиз эркин иқтисодий зоналарнинг юзага чиқишига олиб келади. Махсус иқтисодий зоналарда бизнес харажатларини камайтириш учун менежмент, молия ва корпоратив бошқарув тизимини халқаро стандартларга олиб чиқиш муҳим саналади.

**Иккинчидан**, эркин иқтисодий зоналарни бошқаришнинг мустақил тузилмаси мавжуд бўлгандагина, махсус ҳудудларни ривожлантириш ва бошқариш самарадорлигини ошириш мумкин бўлади.

**Учинчидан**, марказий давлат бошқаруви идоралари мамлакатни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгилаб берар экан, у эркин иқтисодий зоналарни ривожлантирувчи драйверга айланиши керак.

**Тўртинчидан**, дунёнинг кўпчилики мамлакатларида эркин иқтисодий зоналар иқтисодий сиёсатнинг механизм ва воситаларини синаб кўриш майдончасига айлантирилган. Унга кўра, синалаётган механизм ва воситалар ижобий натижа берса, кейинчалик мамлакатнинг бошқа ҳудудларига жорий қилинади. Шу билан бир қаторда эркин иқтисодий зоналар хорижий инвесторларнинг Ўзбекистон бозорларига кириб келишларини ва у орқали бошқа мамлакатлар бозорига чиқишларини енгиллаштиради. Бунинг натижасида технологиялар трансфери жадаллашади, мамлакатнинг экспорт имкониятлари кенгаяди, миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлиги ортади, аҳоли турмуш фаровонлиги яхшиланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сон Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги “Халқаро рейтинг ва индексларда Ўзбекистон Республикасининг ўрнини яхшилашга оид чора-тадбирларни тизимлаштириш” тўғрисидаги ПФ-5687-сон Фармони.

3. Стратегическое планирование-важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов: материалы Форума экономистов/под общей редакцией Т. Ахмедова/Ташкент: IFMR,2019.-592 с.

4. Ўзбекистон Республикаси тадбиркорларнинг транспорт ва омбор логистика ҳолати ва истиқболлари бўйича сўров натижалари. Бизнес логистика ассоциацияси маълумоти. <http://www/adbl.uz/>.

УДК 657.6

## **МОДЕЛЬ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВОСПРОИЗВОДСТВА ОСНОВНОГО КАПИТАЛА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА**

**А.А. Гуламов, к.э.н., доцент, проректор, Ташкентский институт инженеров железнодорожного транспорта, Ташкент**

**Аннотация.** Мақолада асосий капитални иқтисодий баҳолаш муаммолари, хусусан, янгилашни жараёнининг энг муҳим вазифалари, поездлар ҳаракати хавфсизлигини таъминлашнинг энг илгор моделлари кўриб чиқилган, асосий капиталдан фойдаланишнинг сифат ва миқдорий кўрсаткичлари таҳлил қилинган, темир йўл транспортида асосий воситаларни баҳолаш юзасидан таклифлар берилган.

**Калим сўзлар:** асосий капитал, янгилашни, темир йўл транспорти, сон ва сифат кўрсаткичлари.

**Аннотация.** Рассмотрены проблемы экономической оценки основного капитала, в частности, рассмотрены важнейшие задачи процесса обновления, проблемы создания и ввода в эксплуатацию более совершенных образцов орудий труда, обеспечивающих устойчивую безопасность движения поездов, проанализированы качественные и количественные показатели использования основного капитала, сделаны выводы по улучшению методов экономической оценки основного капитала на железнодорожном транспорте.

**Ключевые слова:** Основной капитал, воспроизводство, железнодорожный транспорт, количественный и качественные показатели.

**Abstract.** The article discusses the problems of economic valuation of fixed capital, in particular, considers the most important tasks of the renovation process, the problems of creating and putting into operation more advanced models of tools for ensuring stable safety of train traffic, analyzed the

*qualitative and quantitative indicators of the use of fixed capital, made a conclusion about estimates of fixed assets in railway transport.*

**Keywords:** *fixed capital (assets), reproduction, railway transport, quantitative and qualitative indicators.*

Показатели воспроизводства основного капитала отражают темпы научно-технического прогресса, характеризуют техническое состояние и движения основных фондов, а также имеют связь с показателями их использования.

Основной капитал железнодорожного транспорта имеет свои особенности. Во-первых, это большие сроки полезного использования, чем основной капитал других отраслей экономики. Во-вторых, большинство основного капитала не могут быть проданы. В-третьих, большинство основного капитала является уникальными в применении, т.е. не могут использоваться по назначению в других отраслях экономики Республики Узбекистан.

По итогам 2019 года на долю железнодорожного транспорта приходится чуть менее 10 процентов основного капитала всех отраслей экономики страны. Объем продаж и величина расходов АО «УТЙ» за 9 месяцев 2019 года составила более 5 трлн. сум и 4,1 трлн. сум соответственно. Средняя степень воспроизводства основного капитала за последние 10 лет составила 7-12 процентов, однако износ по некоторым группам, таких как здания и сооружения, транспортные средства повысился на 3,2 и 1,9 процентов соответственно, что свидетельствует о неэффективности экономической оценки основного капитала общества.

В этой связи важнейшей стратегической задачей и важной проблемой для железнодорожной компании является необходимость разработки новых экономических методов управления основными фондами и экономической оценки их воспроизводства, учитывающих специфику рыночных отношений. Это обуславливает несомненную актуальность и необходимость совершенствования существующих методов.

Потребность воплощения капитала в технических средствах и системах определяется их потребительной стоимостью. В самой общей трактовке потребительная стоимость вещи определяется как ее полезность, ее способность удовлетворять потребности, ее ценность для потребителя. В экономической науке потребительная стоимость основных средств выступает как совокупность технико-эксплуатационных свойств, характеризующих способность средств труда производить нужный обществу продукт (т.е. пользующийся спросом на рынке), экономить и облегчать труд [1], а также эффективно использовать производственные ресурсы. С одной стороны, каждое техническое средство, каждый элемент технической системы, каждая техническая система в целом выполняет детерминированную во времени и пространстве производственную функцию, т.е. имеет конкретную потребительную стоимость. С другой стороны, даже однородные технические средства и системы в разной степени могут экономить, облегчать труд и повышать его производительность, т.е. имеют разную потребительную стоимость.

В [2] предлагается определять продолжительность оборота основного капитала по следующим стадиям нахождения его в форме:

- средств труда;
- незавершенного производства;
- расходов будущих периодов; готовой продукции;
- денежных средств; средств в расчете за товары, работы, услуги.

Такой подробный анализ позволяет выявить резервы ускорения оборачиваемости основного капитала. Под экономической эффективностью понимается экономическая категория отношения результатов к затратам.

Оценка предстоящих затрат и результатов при определении эффективности воспроизводственного процесса осуществляется в пределах расчетного периода, продолжительность которого принимается, учитывая такие факторы, как продолжительность эксплуатации, нормативного срока службы основных фондов. Также предполагается расчет таких важных оценочных показателей, как дисконтированная величина чистых доходов, внутренняя норма прибыльности, рентабельность, период окупаемости.

Однако не один из перечисленных критериев сам по себе не является важным оценочным показателем сам по себе для принятия решения по инвестированию средств на воспроизводство.

Целевыми функциями эффективности инвестиций, характерными для расчета на минимум

и максимум, могут быть:

- максимум приведенной продукции;
- минимум затрат на производство;
- максимум годовой прибыли; максимум производительности;
- минимум потребления материала (материалопотребление).

Выполненные расчеты на максимум и минимум для различных целевых функций, выбранных из приведенного перечня, могут негативно повлиять на принятие решения.

В результате воспроизводства основных фондов на «выходе» производственной системы формируется дополнительный выпуск продукции и прибыль, которые вызваны инвестициями на «входе» системы. Таким образом, можно рассматривать соотношение «затраты - результаты» в виде показателей абсолютной эффективности:

$$\text{-прироста выпуска на один сумм инвестиций } \frac{\sum P^i_{\text{прив}}}{\sum P} ;$$

$$\text{-прироста прибыли на один сум инвестиций } I_{\text{общ}}.$$

Кроме оценки экономической эффективности воспроизводственного процесса основных фондов железнодорожной компании, необходимо оценивать и эффективность самого процесса управления воспроизводством основных фондов.

Управление воспроизводством основных производственных фондов в условиях рыночной экономики играет важную роль, так как оно определяет их количественное и качественное состояние. Управление воспроизводством основных фондов – это комплекс целенаправленных управленческих воздействий субъектов на специфические объекты управления, оказывающие влияние на интенсивность воспроизводства, размер и структуру основных фондов.

В качестве специфических объектов управления выступают:

- основные фонды;
- процесс обновления основных фондов;
- сложившаяся система амортизации основных фондов на железнодорожном транспорте;
- методы оценки и переоценки стоимости различных элементов основных фондов;
- структура основных фондов;
- экономическая оценка состояния и эффективности использования основных фондов;
- оценка финансово-инвестиционных ресурсов.

На наш взгляд, необходимость управления воспроизводством основных фондов на железнодорожном транспорте вызвана тем, что она является неотъемлемым элементом хозяйственного процесса и в этом смысле (как и все другие элементы) нуждается в регулировании. Процесс управления воспроизводством основных фондов включает в себя достижение стратегических и тактических целей.

Управление конечно влияет на результаты и затраты, является сферой приложения общественного труда, к которой относятся требования эффективного использования ресурсов. «Правомерно предположить – считают В. В. Томилов, А. С. Роботов, А. А. Зубарев, - что более эффективное управление производством приводит к повышению его производства.

Но такого соответствия может и не быть, так как эффективность производства может, зависит от многих факторов, находящихся вне влияния управляющей системы» [3]. «...в силу слабой чувствительности укрупненных обобщающих показателей общественного производства к отдельным изменениям в системе управления. Эти показатели затруднительно использовать для решения задачи измерения эффективности управленческих систем» [1]. Так же учеными признается, что управление вообще присуща неопределенность причинно-следственных связей между решением и его результатом. Данный подход принято называть ресурсным.

Широко распространено мнение о том, что состояние системы следует оценивать через показатели, характеризующие деятельность управляемого объекта (по конечным результатам функционирования).

Нами разделяется точка зрения [5] о том, что применительно к системе управления воспроизводственным процессом оценка эффективности должна базироваться на общей методологии определения экономической эффективности производства и в тоже время учитывать специфику функционирования данной системы.

Достижение высокого уровня функционирования железнодорожной компании в условиях рынка требует внедрения механизма эффективного управления процессов воспроизводства

основных фондов. Эффективное управление процессом обновления основных фондов железнодорожной компании сводится к непрерывному измерению и расчету системы взаимосвязанных показателей, анализу соответствия показателей форматизированным целям и принятию соответствующих корректирующих действий по оптимизации функционирования процессов производства (услуг).

Основные назначения системы показателей экономической эффективности воспроизводственным процессом основных фондов железнодорожной компании является выявление возможности управление процессом воспроизводства основных фондов, которые есть в компании, обеспечить немедленную реакцию хозяйствующего субъекта на внешние «вызовы». Показатели экономической эффективности воспроизводственным процессом основных фондов необходимы для определения слабых мест в экономических и технических процессах предприятия и причин, вызвавших данные слабые места. Рекомендуемая система экономической эффективности воспроизводственным процессом основных фондов железнодорожной компании - это модель, которая охватывает все подразделения и процессы в компании и подчиняет их стратегическим целям компании, таким как увеличение капитализации, увеличение прибыли и приведенной продукции на единицу инвестированных средств.

Предложенные подходы должны быть представлены в экономико-математической модели оптимизации процесса воспроизводства основных фондов железнодорожной компании. Адекватность экономико-математического моделирования реальному экономическому процессу проявляется, прежде всего, в способности таких моделей наилучшим образом учесть вероятностный характер исследуемого объекта и с высокой степенью достоверности предсказать характер его развития и перспективный период. Не один из критериев эффективности инвестиционного процесса сам по себе не является достаточным для принятия решения о реализации того или иного вида воспроизводства. Все это определяет необходимость и целесообразность постановки и решения многокритериальных задач (задач векторной оптимизации).

Если предположить, что каждое инвестиционное решение

$$x \in M \tag{1}$$

характеризуется скалярными значениями (в результате некоторого обобщения и приведения) результата

$$\sum \sum P_j^i \rightarrow \max_{x \in M_x}, \sum \sum pl_{прив j}^i \rightarrow \max_{x \in M_x} \tag{2}$$

и инвестиционных затрат

$$I_{общ} \rightarrow \min_{x \in M_x}, \tag{3}$$

то можно выделить следующую концепцию к выбору наилучших вариантов

$$\bar{x} \in M_x. \tag{4}$$

Нужно отметить, что и в случае векторности значений результата и затрат этот подход также остается справедливым.

Концепция оптимальности. Решение  $\bar{x} \in M_x$  является оптимальным, если:

$$\bar{x} = \underset{x \in M_x}{\operatorname{arg\,extr}} F(x), \tag{5}$$

где  $F(x)$  – некоторая функция, определяющая взаимодействие результата и затрат

$$\left( \frac{\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n p_i^i \text{прив } j}{\sum_{j=1}^n I_j}, \frac{\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n P_j^i}{\sum_{j=1}^n I_j} \right), \tag{6}$$

где  $j$  – номер инвестиционного проекта ( $x, j \in [1;n]$ );

$i$  – номер фактора производства,  $i \in [1]$ .

В случае не единственности решения  $\bar{x} \in M_x$  в качестве наилучшего решения может быть принято любое решение из  $\bar{x}$  на основе задания дополнительного критерия оптимальности или результата случайного выбора.

В общем виде задача оценки технического уровня производства и обоснования возможных путей его повышения математически формулируется следующим образом:

-требуется найти аналитическое выражение зависимостей общих показателей эффективности производства от технического уровня производства, определяемого величиной и



динамикой следующих факторов:

-чистого денежного потока, фондовооруженности и производительности труда, то есть нужно найти функции:

$$F^{\text{ЧДП}} = f(z_1, z_2, z_3, \dots, z_n), (7)$$

$$F^{\Phi} = f(z_1, z_2, z_3, \dots, z_n), (8)$$

$$F^{\text{ПТ}} = f(z_1, z_2, z_3, \dots, z_n), (9)$$

где,  $F^{\text{ЧДП}}$ ,  $F^{\Phi}$ ,  $F^{\text{ПТ}}$  - функции, выражающие эффективность производства (чистый денежный поток, фондовооруженность, производительность труда);

$z_n$  – факторы, влияющие на эффективность производства;

$z_1$  – коэффициент ввода основных фондов;

$z_2$  – коэффициент выбытия основных фондов;

$z_3$  – коэффициент износа основных фондов;

$z_4$  – среднегодовой прирост основных фондов;

$z_5$  – фондовооруженность одного рабочего железнодорожной компании;

$z_6$  – амортизационность железнодорожной компании.

Конечной целью разработанной оптимальной программы управление воспроизводством основных фондов железнодорожной компании является выбор объектов воспроизводства, то есть оптимизация программы с помощью экономико-математических методов:

$$\frac{\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n p^i \text{прив}_j}{\sum_{j=1}^n I_j} \rightarrow \max_{x \in M_x} (10)$$

$$M_x = \begin{cases} F_j^{\text{ЧДП}} \geq F_{\text{факт}}^{\text{ЧДП}} \\ F_j^{\Phi} \geq F_{\text{факт}}^{\Phi} \\ F_j^{\text{ПТ}} \geq F_{\text{факт}}^{\text{ПТ}} \end{cases} (11)$$

В данной работе предлагается итерационная процедура выбора проектов на основе данной модели (табл.1)

Таблица 1

Этапы оптимизации программы с помощью экономико-математических методов  
(Составлено автором на базе изученных литературных источников)

№	Название	Содержание
1	Первый этап: осуществляется оптимизация	Воспроизводство основных фондов железнодорожной компании по одному из определенных ранее ограничений модели оптимальности – чистого дисконтированного потока.
2	Второй этап: формируется программа	Воспроизводство основных фондов железнодорожной компании, отвечающая другому ограничению модели оптимальности – максимуму фондовооруженности и производительности труда.
3	Третий этап: формирования оптимальной программы	Воспроизводство основных фондов железнодорожной компании связан с одноименными проектами $x_j$ , то есть проектами, присутствующими одновременно в результате решения обеих локальных задач – максимизация чистого денежного потока, фондовооруженности и производительности труда.

Одноименные проекты формируют оптимизированную программу воспроизводства основных фондов первого уровня. Дальнейшее уточнение производится по критерию максимизации дополнительной приведенной работы в сравнении с затраченными инвестициями в железнодорожную компанию.

При разработке инвестиционной политики и стратегии воспроизводства основных фондов необходимо определить меру влияния факторов на показатели воспроизводства основных фондов железнодорожной компании.

На наш взгляд, поставленную задачу целесообразно решить путем разработки корреляционно-регрессионной модели, на основе которой устанавливаются основные факторы и степень их влияния на интенсивность воспроизводство основных фондов, а также определяется величина инвестиций, необходимых для воспроизводственного процесса основных фондов компании.

С увеличением амортизационных отчислений воспроизводство основных фондов на 1 тыс.

сум и ростом величины прибыли, направленной на финансирование воспроизводства так же на 1 тыс. сум в расчете на 1 тыс. прив.т-км., темпы обновления основных фондов на железнодорожной компании возрастают, соответственно, на 1,19%, 2,12%, 6,01% и 0,86%. Между факторами, включенными в модель, функциональной связи нет, что может так же свидетельствовать об адекватности составленной модели. Парные коэффициенты корреляции не превышают установленного предела  $r=0,7$  (табл. 3).

Таким образом, основными факторами повышения темпов обновления основных фондов в рассматриваемой железнодорожной компании являются собственная прибыль и средства начисленной амортизации.

Моделирование элементами системы амортизации позволит регулировать инвестиционные потоки железнодорожной компании и управлять процессом воспроизводства основных фондов в целях интенсификации воспроизводства основных фондов.

На наш взгляд, при моделировании такого экономического объекта как железнодорожная компания определенный научный интерес представляет подход, предложенный Н. Винером, известный как метод «черного ящика» [2]. В качестве «черного ящика» рассматривается объект в целом вследствие его сложности.

Такой подход может быть использован в экономико-математических моделях, позволяющих решать задачи по выявлению функциональных соотношений:

- определение количественных зависимостей между влияющими факторами исследуемого объекта;
- анализ чувствительности, установление из множества факторов, действующих на систему, тех, которые в большей степени влияют на интегрирующий исследователя характеристики;
- прогноза–определение поведения системы при некотором предполагаемом сочетании внешних условий;




Рис. 4. Влияние темпов обновления основных фондов на объем перевозок железнодорожной компании (Расчеты автора по данным АО «Узбекистон темир йуллари»)

-оценки–определение того, насколько хорошо исследуемый объект будет соответствовать некоторым критериям;

-оптимизации–точного определения такого сочетание переменных уравнения, при котором обеспечивается экстремальное значение целевой функции.

С помощью функции «Регрессия» в пакете Microsoft Excel было установлена зависимость объемов грузоперевозок от интенсивности обновления основных фондов. Она выражается следующим уравнением регрессии (рис. 4.)

$$Y = 9442.3 * e^{0.0561 * K_{обн}}, (14)$$

где, Y- объем производимой продукции железнодорожного транспорта, млн. сум.

Связь между объемами продукции железнодорожного транспорта и обновлением основных фондов очень тесная ( $0,7 < D = 0,712 < 1$ ) и изменение объемов перевозок на 62 процент зависит от величины обновления.

Таким образом, решение задачи определения доли оптимальных долей инвестиций для воспроизводства основных фондов показало, что связь между обновлением и инвестициями высока.

Реализация методологических положений, предложений и рекомендаций постулируемых

при построении совершенствования системы управления процессом воспроизводства позволит акционерному обществу «Узбекистон темир йуллари» формировать адекватную учетную, тарифную, инновационную, инвестиционную и амортизационную политику в интересах собственного развития, обосновать систему критериев для интенсификации воспроизводства основного капитала, определить резервы повышения эффективности использования основного капитала и других ресурсов, что не только повысит их целевые показатели, но положительно отразится на развитии экономики страны в целом.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Абакумов Р. Г. Управление воспроизводством основного капитала в условиях инновационного развития экономики: Монография. - Белгород: Белгородский государственный университет потребительской кооперации, 2009. - 154 с., Абрамов А. Е. Основы анализа финансовой, хозяйственной и инвестиционной деятельности предприятия. М.: АКДИ «Экономика и жизнь», 2010.-346 с..
2. Орехов Н. А. Математические методы и модели в экономике: Ученое пособие для вузов / Н. А. Орехов, А. Г. Левин, Е. А. Горбунов. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 302 с.
3. Мазо, Л.А. Современные методы управления экономическими процессами на железнодорожном транспорте. - М.: Изд-во МЭИ, 2000. - 268 с. [In Russian: Maso, L.A. (2000) *Modern methods of managing economic processes in railway transport*. Moscow: Publishing House of MPEI].
4. Воротилов В. А., Гайденок Ю. К., Лавриков Ю. А. Пути повышения эффективности капитальных вложений и основных фондов. - Л.: Наука, 1982. - 215 с. [In Russian: Vorotilov, V. A., Gaidenko, Yu. K., Lavrikov, Yu. A. (1982) *Ways to improve the efficiency of capital investments and fixed assets*. - Leningrad: Sceince].
5. Экономика железнодорожного транспорта /под ред. В. А. Дмитриева. М.: Транспорт, 1996. [In Russian: (1996) *Economics of railway transport* / ed. V.A. Dmitrieva. Moscow: Transport].
6. Экономика железнодорожного транспорта /под ред. Е.Д. Ханукова М. Транспорт. 1979, - 544 с. [In Russian: (1979) *Economics of railway transport* / ed. E.D. Hanukova M. Transport].
7. Вовк А. А. Характеристика оборачиваемости средств, авансированных в производство // Экономика железных дорог, - №9, 1999. [In Russian: Vovk, A. A. (1999.) *Characteristic of the turnover of funds advanced in production* // *Economics of Railways*, No 9].
8. Поликарпов А. А. Вовк А. А., Измерение и анализ эффективности использования основных средств: Уч. пособие. М.: МИИТ, 1995. - 104 с. [In Russian: Polikarpov, A. A. Vovk, A. A. (1995) *Measurement and analysis of the effectiveness of the use of fixed assets: tutorial*. Moscow].
9. Domar, E.D. *Essays in the Theory of Economic growth*, New York, Oxford University Press, 1957. - 224 pages.
10. Статистические данные акционерного общества "Узбекистон темир йуллари". [In Russian: Statistical data of the joint-stock company "*Uzbekistan railways*"].
11. Гуламов А.А. Разработка методических подходов к оценке основного капитала железнодорожной компании // Экономика и образование, -№2, 2019. -112-118 стр. [In Russian: Gulamov, A.A. (2019) *Development of methodological approaches to the assessment of fixed capital of a railway company* // *Economics and Education*, No 2].
12. Гуламов А.А. Экономическая оценка основного капитала акционерного общества "Узбекистон темир йуллари" // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" научно-электронный журнал, -№2, 2019. [In Russian: Gulamov, A.A. (2019) *Economic valuation of fixed capital of the joint-stock company "Uzbekistan railways"* // "*Economics and innovation technologies*" scientific and electronic journal].

**ТАРИХ ФАҲЛАРИ**

O'UK: 9

**ABULG'OZI BAHODIRXONNING "SHAJARAYI TAROKIMA" ASARIDA TURKMANLAR ETNOGENEZI MASALASI***M.J. Egamberganova, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** *Xiva xoni Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asari turkmanlarning iltimosiga binoan 1660-1661-yillarda yozilgan bo'lib, unda turkiy qabilalar, xususan, turkman xalqining kelib chiqish tarixi, afsonaviy hukmdor O'g'uzxon va uning avlodlari, turkman urug'lari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Abulg'oz Bahodirxon, O'g'uzxon, turkman, salur, alieli, taka, yovmut, xizreli.*

**Аннотация.** *"Шаджарай тарокима" хивинского хана Абулгази Баходирхана было написано в 1660-1661 годах по просьбе туркмен. Оно содержит ценные сведения о тюркских племенах, в частности, истории происхождения туркменского народа, легендарного правителя Огузхана и его потомков.*

**Ключевые слова:** *Абулгази Баходирхан, Огузхан, Туркмен, Салур, Алиели, Така, Йовмут, Хизрели.*

**Abstract.** *"The Shadzharai tarokima" by the Khiva khan Abulgazi Bakhodir Khan was written in 1660-1661 at the request of the Turkmens. It contains valuable information about the Turkish tribes, in particular, the history of the origin of the Turkmen people, the legendary ruler of Oguzkhan and his descendants, Turkmen tribes.*

**Key words:** *Abulgazi Bakhodir Khan, Oguzkhan, Turkmen, Salur, Alieli, Taka, Yovmut, Khizreli.*

Hozirgi kunga kelib har bir xalqning etnogenezi va etnik tarixini o'rganish dolzarb masaladir. Qardosh xalq sanalmish turkmanlarning kelib chiqishi masalasini o'rganishda Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asari asosiy manba sanaladi.

Abulg'oz Bahodirxon "Shajarayi Tarokima" (Turkmanlar shajarasi) asarida keltirishicha, Mavorounnahrda kelgan turkmanlarni tojiklar "ulturk" deb atagan. Besh-olti avlod o'tgach, ularning tashqi qiyofasi o'zgara boshlab, yuzlari kichik, ko'z va burunlari kattalasha borgan. Turkman elidan ham asir va savdogarlar kela boshlagach, tojiklar ularni "turk", avvalgilarni esa "turkmonand", ya'ni "turkka o'xshash"-deb ataydilar. Oddiy xalq bu so'zni aytoymasdan ularni turkman,- deb atay boshladi [1]. Asarda O'g'uz turkmanlari haqida ma'lumotlar, O'g'uzxonning tug'ilishi, taxtga kelishi, turkman urug'lari-bayot, tevagi, solur, yovmut, taka, aymir, bajna, sariq, Xizreli, Ali eli, yozir, ersari kabi urug'larning etnogenezi yoritib berilgan.

Abulg'oz Bahodirxon 1603-yil 12-avgustida o'sha davrdagi Xiva xonligi poytaxti bo'lgan Qo'hna Urganch shahrida tug'ilgan. 1630-1640-yillarda Eronning Isfaxon shahrida siyosiy tutqunlikda yashagan paytida Sharafiddin Ali Yazdiy, Rashididdin singari tarixnavislar asarlari bilan yaqindan tanishadi [2]. Asarni yozish jarayonida muallif Eron va Turon o'lkalari tarixiga oid o'n sakkizta yozma manbalardan va xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalangan. Muallif o'z asarida keltirishicha, "Shajarayi Tarokima" turkman urug' boshliqlari va oqsoqollari taklifiga binoan, besh yasharlik turk o'g'loni ham anglaydigan sodda va xalqchil tilda yozilgan. Asarda aytilganidek, yer yuzida dastavval Odam alayhisallom yaratilgan. Undan keyin farzandlariga o'g'li Shis (ma'nosi "Xudoning haybati") boshchilik qilgan. Shundan so'ng avlodlari Anush ("Sodiq" degani), Qaynan, Mahloyil, Bard, Axnun (laqabi "Idris"), Matushalax, Limaklar yer yuzida birin-ketin hukmronlik qilgan. Limakdan keyin Nux payg'ambar, undan so'ng Xom, Som, Yofas ismli o'g'illari bir davrda dunyoning uch tomonida hukmronlik qiladi. Yofasdan yetti o'g'il-Turk, Xazar, Saqlab, Rus, Ming, Chin, Qamari Tarixlar dunyoga kelgan. Katta o'g'li Turk barchasiga boshchilik qilgan. Uning Tutak, Chigil, Bersachar, Imlak ismli o'g'illari bo'lib, Tutak hukmdor bo'lgan.

Undan so'ng avlodlari Amulchaxon, Baquy Debxon, Ko'kxon, Alinchaxonlar dunyoni boshqargan. Alinchaxonning Tatar va Mo'g'ul ismli o'g'illari bo'lib, merosxo'ri Mo'g'ulning Qoraxon, Ko'rxon, Kirxon, Urxon ismli farzandlari bo'lgan. Qoraxondan O'g'uzxon dunyoga kelgan. Aynan O'g'uzxondan turkman eli kelib chiqqan. O'g'uzxon otasi taxtini egallagach, xalqni musulmonlikka da'vat qiladi, dinga kirmaganlarni jazolaydi. Turon, Hindiston, Shom, Misr, Eron hududlarini o'ziga bo'ysundiradi. O'g'uzxon Shom viloyatida turganida o'g'illarini chorlab, o'zi yashirgan yoy va kamon o'qlarini topishni buyurgan. Uning katta o'g'illari Kun, Oy va Yulduzlar oltin yoyni topib keldilar va

uni o'zaro uch bo'lakka taqsimlab oldilar. Kichik o'g'illari Ko'k, Tog' va Tengizlar uchta oltin kamon o'qlarini topib keldilar va har biriga bittadan o'q tegdi. O'g'uzxon shundan keyin o'g'illarini chorlab, katta o'g'illariga: -“siz uchalangiz oltin yoyni olib kelib, o'zaro buzib ulashtingiz, bundan keyin sizlarni otingizni, sizlardan bo'lgan o'g'lonlarni ham Buzuq desinlar”,- dedi. Kichkina o'g'illarini va ulardan bo'lgan avlodlarni ham Ucho'qlar deyishni buyurdi. O'g'li Kunxonni esa taxt vorisi etib tayinlaydi [3]. Shundan keyin O'g'uzxon avlodlari hukmronlik qiladi. O'g'uz xalqi ham O'g'uzxondan kelib chiqqan.

Turkmanlarning etnogenezida mahalliy dah, massagetlar, shuningdek, sarmatlar, alan qabilalari, qisman qadimgi Marg'iyona, Parfiya va Xorazm davlatlari aholisi qatnashgan. XI asrga kelib hozirgi Turkmaniston hududini o'g'uzlar bosib oladi va eroniy xalqlar bilan qorishgan holda turkman etnosi vujudga keladi [4]. Aynan shu davrda turkmanlarda davlatchilik yuzaga kelgan. XV asrga kelib turkman xalqi shakllangan.

Xorazm zaminida yashovchi turkman millati vakillarining o'ziga xos etnik tarixi mavjud. Abulg'ozii Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” asari esa turkmanlarning etnik tarixini o'rganishda asosiy manba sanaladi. Mavzuni o'rganish jarayonida asarning o'zbek va rus tillaridagi nusxalaridan foydalandik.

Asarni o'rganish orqali quyidagi savollarga javob olish mumkin:

- Turkmanlar etnogenezi va etnik tarixi;
- Turkman atamasining kelib chiqishi va uning ma'nosi;
- Turkman urug'lari va ularning bir-biri bilan o'zaro munosabatlari yoritib berilgan.

Shunisi e'tiborliki, asar sof turkiy tilda bitilgan va o'z zamonasining boshqa manbalariga qaraganda ancha sodda va tushunarli qilib bayon etilgan. Dunyoda ko'pgina xalqlar boshqa etnik birliklar bilan aralashgan holda shakllangan. S. P. Tolstov aytganidek: “Bugungi kunda O'rta Osiyo xalqlarining hech qaysisi qadimgi etnik guruhlarga bevosita borib taqalmaydi. Aksincha, ularning shakllanishida, yerli xalqlar va tevarak-atrofdan ko'chib kelgan xalqlar har xil darajada o'z ta'sirini o'tkazgan” [5]. Shu qatorda, turkman elati ham shakllanish jarayonida ko'plab tarixiy davrlarni bosib o'tgan va hozirgi kunda to'laqonli millat sifatida Turkmaniston hududida yashab kelmoqda. E'tiborga loyiq jihati shunda-ki, turkman yoshlari o'z “tiyra”, ya'ni urug'larini va o'z milliy marosimlari hamda urf-odatlarini besh qo'ldek biladilar, shuningdek, ularga qat'iy amal qilgan holda yashab kelmoqdalar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абулғозий Баходурхон. Шажарайи тарокима. Қ.Маҳмудов таржимаси.- Тошкент, 1995. –Б.-15.
2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000-2001. - Б.-6.
3. Абулғозий Баходурхон. Шажарайи тарокима. Қ.Маҳмудов таржимаси.- Тошкент, 1995. –Б.-10.
4. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000-2001. - Б.-772.
5. Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. СЭ, 1947. № VI-VII. С.304

UDK:141.336(540)

### QADIMGI HINDISTONDA MANTIQ ILMINING SHAKLLANISHI

*T.A. Madalimov, o'qituvchi, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Chirchiq*

*Annotatsiya. Maqolada Qadimgi hind falsafiy maktablari va ulardagi mantiq ilmining rivojlanishi tahlil qilingan*

**Kalit so'zlar:** *mantiq, bilish sezgi, xulosa, analogiya, shubha, taqqoslash*

**Аннотация.** *В статье анализируются древнеиндийские философские школы и развитие в них логики.*

**Ключевые слова:** *логика, познание, вывод, аналогия, сомнение, сравнение*

**Abstract.** *In this article reviews analyzing ancient Indian philosophical schools and the development of logic in them*

**Keywords:** *logic, cognition, perception, conclusion, analogy, doubt, comparison*

Eramizdan oldingi II ming yillikda Qadimgi Hindistonda sivilizatsiya shakllangan bo'lib, Gang vohasi atrofida yashovchi xalqlar dehqonchilikka o'ta boshlagan. Shu davrdan boshlab hind jamiyatida ham mafkuraviy jarayonlar ham asta sekin o'zgarayotgan edi. Bu o'zgarishlar asosan fanning matematika, mantiq, tibbiyot va astronomiya sohalarida kuzatilgan. Matematikadan farqli ravishda Hindistonda mantiq ilmi shakllangan bo'lib, u dastlab yaxlit tarzda fan sifatida emas, hind falsafasining

tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Shuning uchun hind mantig'i barcha falsafiy maktablarda shakllangan. Hindistonda mantiq ilmining rivojlanishi tarixi to'rt davrga bo'linadi:

1. Ilk Budda mantig'i miloddan avvalgi VI-V asrlarni o'z ichiga oladi;
2. Nyaya va Vaysheshika mantig'i –miloddan avvalgi III-II asrlar;
3. Dxarma va Dharmakirti maktabi –milodiy VI-VIII asrlar;
4. To'rtinchi davr VIII-XVII asrlarni o'z ichiga oladi.

Ilk budda mantig'i asosan falsafiy epistemologiyaga bag'ishlangan bo'lib, unda asosan hissiy bilish orqali tafakkur tushuntirilgan. Nyaya va Vaysheshika mantig'i esa hind mantig'ida tub burilish yasagan bo'lib, hind tafakkurining klassik davrga olib chiqdi. Qadimgi hind falsafiy maktablarida to'g'ri bilimga eltuvchi yo'l turlicha ko'rsatilgan. Masalan:

**Charvaka lokayata** falsafiy maktabida —sezgi(pratyaksha) orqali;

**Mimansa**-o'g'zaki guvohlik(Shabda) orqali;

**Vaysheshika va Buddizm maktablarida** –sezgi va xulosa(anumana) orqali;

**Sankhya**-sezgi, xulosa,og'zaki guvohlik orqali;

**Nyaya** –sezgi, xulosa, og'zaki guvohlik, taqqoslash orqali;

**Prabhakara**-sezgi, xulosa, taqqoslash, og'zajki guvohlik, tahmin orqali;

**Bhakti va Vedanta**-sezgi, xulosa, taqqoslash, og'zajki guvohlik, tahmin, mavjud bo'lmaslik orqali;

**Purnyaklar**-ehtimollik, sezgi, xulosa, taqqoslash, og'zajki guvohlik, tahmin, mavjud bo'lmaslik orqali bilimlar tasniflangan.

Hind falsafiy maktabining o'ziga xos jihatlari shunda-ki undagi sillogizmlar antik Yunonistondagi klassik mantiqdan farq qiladi. Mimansa maktabida bilish to'g'riligi og'zaki guvohlik (shabda) orqali amalga oshadi deyilgan. Og'zaki guvohlik - Ishonchli odamning (apta), ya'ni haqiqiy bilimga ega va haqiqat egasining ibratli ko'rsatmasidir. **Mimansaga ko'ra** ishonchli odam quyidagi hislatlarga ega bo'lishi kerak:

-Xurofotlar va tarafkashliklardan xoli;

-Ma'lumot natijalariga qiziqish bo'lmasligi;

- Boshqa hokimiyatlar tomonidan ishonchli deb tan olingan;

Ishonchli odamning fikri muhokama qilinmaydi, faqatgina uni tanlashda yuqoridagi hislatlarga ega bo'lish kerakligi xususida muhokama qilinadi. Lekin tanlovda subyektivlikka yo'l qo'yilmaydi.

Masalan, tamaki kompaniyasiga tamaki sog'liq uchun zararli emasligi to'g'risida "dalillar" keltiradigan "olimlar" ishonchli odamlar emas, chunki ular tamaki kompaniyasi tomonidan moliyalashtiriladi va ularning natijalari isbotlangan mahsulotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Phabkara falsafiy ta'limotida asosiy e'tibor bilishda ehtimollikka urg'u beriladi. Ehtimollik (sambhava) – bir narsaning mavjudligi uning yo'ldoshini ham mavjudligini bildiradi. Masalan „Agar (qora) bulut bo'lmasa yomg'ir yo'q” degan xulosadan kelib chiqib, „Agar qora bulut bo'lsa yomg'ir bo'ladi” degan ehtimoliy xulosa chiqariladi. Bhakti va Vedanta maktablarida bilishning o'ziga xosligi yo'qlik (mavjud bo'lmaslik) metodi bilan tushuntiriladi. Mavjud bo'lmaslik- bu ikki qarama-qarshi narsadan bittasining mavjudligi ikkinchisining yo'qligidan dalolat beradi. Bu xuddi formal mantiqning ikkinchi qonuni-Nozidlik qonuni bilan belgilanadi: “bir vaqtning o'zida aytilgan ikki qarama qarshi teng fikr bir vaqtning o'zida to'g'ri bo'lishi mumkin emas”. Masalan quyoshning yo'qligi –yulduzlarning mavjudligini bildiradi. Bunda bir-biriga qarama qarshi ikki fikr (quyosh va yulduzlarning) mavjudligi bir vaqtda to'g'ri emas. Qadimgi Hindistonda mantiqning eng optimallashtirilgan ko'rinishi Nyaya falsafiy maktabida beriladi. Nyaya tizimi ta'limotlari haqiqatni o'rganish va bilish uchun mantiqiy asos yaratishga qaratilgan. Nyaya tanqidiy surishtiruv bilan shug'ullanadi. U barcha e'tiqodlarni o'rganadi - an'anaviy va zamonaviy va barcha xurofotlarga asoslangan va mantiqsiz e'tiqodlarga qarshi keskin kurashadi. Haqiqiy tushunchani egallashga qaratilgan konstruktiv fikrlash qayerda bo'lsa ham, mantiqqa ehtiyoj bor. Haqiqatni izlashga bo'lgan bu istak inson tabiatida tug'iladi va mantiq bizga konstruktiv ratsional fikrlashni amalga oshirishga imkon beradi. Mantiqning maqsadi o'rganish, tinglash, aks ettirish va hukm qilish vositalarini taqdim etish orqali o'zini anglashdir. Bu shubhalarni bartaraf etish bilan yakunlanadi va yetuk donolikka olib keladi yoki urf-odatlar bo'yicha qabul qilingan narsalarni tasdiqlaydi. Nyayada analogiya to'g'ri bilim olishning mustaqil vositasi sifatida qabul qilingan, chunki u hissiy bilish yoki xulosa orqali erishilib bo'lmaydigan to'g'ri bilimlarni keltirib chiqaradi. Analogiya (O'xshashlik) -biror narsani unga o'xshash boshqa bilim orqali bilish. Masalan, kimdir suv cho'chqasi(kapibar) katta qora sigirga o'xshaydi, deb aytsa. Kimdir suv cho'chqasi(kapibar) yashaydigan joyga sayohat qiladi va katta qora sigirga o'xshagan hayvonni ko'rib, suv

cho'chqasi(kapibar) bo'lishi kerak, degan xulosaga keladi. Nyayaning o'ziga xosligi unda har qanday bilimga yetish uchun shubxa(samsaya)ning zaruriyigidir. Har qanday skeptik yondashuv insonning bilish darajasini yanada mustahkamlaydi. Shubhani xato, ya'ni soxta bilim bilan chalkashtirib yubormaslik kerak. Shubha (Nyayaga ko'ra)- bu to'liq bo'lmagan bilim, bu qo'shimcha tekshirish uchun sabab bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun bu juda ijobiy va kerakli sifatdir. Soxta bilim -xato, qo'shimcha ma'lumot olish istagini yo'q qilish yoki hatto hayotiy alternativlarni jalb qilish orqali ongni chalg'itadigan noto'g'ri ishonchga olib kelishi mumkin. Xato "muvaffaqiyatli harakatlarga olib kelmaydigan bilim" deb ta'riflanadi. Nyaya qoidalari va metodologiyasi shubha tug'ilganda qo'llanilishi kerak va shuning uchun haqiqatni tasdiqlash yoki aniqlashtirish uchun haqiqatni tekshirish kerak. Shubhaning 4 turi mavjud:

1. Umumiy xususiyatlarni idrok etish yoki farqni idrok etmaslik
2. Masalan, zulmatda simyog'ochni odam bilan yoki o'ralgan arqonni ilon bilan adashtirish mumkin.
3. Guvohlarning ziddiyatli guvohliklari yoki bitta yoki boshqa mavzularda ikki yoki undan ortiq odamning fikrlari turlichaligi
4. Yolg'on hissiyot
5. Butaning barglar shovqinini eshitib, u yerda hayvon yoki odam bo'lishi mumkinligiga shubha bilan qarash
6. Sezgisizlikning xatoligi
7. Masalan biror narsani ta'riflangan sifatlarga ega bo'lmagan holda yoki uni borligiga ishonish qobiliyatiga asoslangan holda, uning borligiga ishonmaslik.

Nyaya mantiq fanidir va bilimlar tabiati va bilim ob'ektlarini falsafiy tekshirishning yagona ishonchli metodologiyasini ta'minlaydi. Bu o'zi haqida to'g'ri bilimga ega bo'lish va hayotning maqsadini aniqlash uchun vositadir. Bizning bilim va tajribamizni boshqalarga yetkazish va hayotimizning qolgan qismiga bo'lgan ta'sirini o'zimiz uchun tushuntirishning, shuningdek, ularning adolatsizligini dushman tanqididan himoya qilishning yagona usuli bu mantiq orqali amalga oshiriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mavlyanov A.A. Mantiq: Ma'ruzalar kursi.-T.: O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi, 2006.-135 b.
2. Ahmedova M, Yuldashev S, Shomatov O. Hind falsafasi.-T.: ToshDSHI, 2006
3. Radhakrishnan S. Philosophy of India.-D.: New Delhi-1956
4. Kodirov M., Po'latova D., Ahmedova M., Abduhalimov A. Sharq falsafasi-Tashkent 2013. 288b

#### O'UK: 9

### XORAZMNING ILK O'RTA ASRLAR DAVRI DAVLATCHILIGI TARIXINING ARXEOLGIK VA TARIXSHUNOSLIK NUQTAI-NAZARDAN O'RGANILISHI

*T.S. Matyaqubov, talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazm davlatining ilk o'rta asrlar (milodiy IV-X asrlar) tarixiga oid arxeologik manbalarni tahlili bayon qilingan. Shuningdek bu davr Xorazm tarixiga oid chet el manbalining qiyosiy tahlili ham yoritilgan. Maqolada Xorazm davlatiga tegishli bo'lgan arxeologik obyektlarni tarixshunoslik nuqtai-nazardan o'rganilishi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Jurjon (Urganch), Kat, Mizdahqon, Hazorasp, Xiva, To'qqal'a, Ayvonqal'a.

**Аннотация.** В данной статье представлен анализ археологических источников по истории Хорезмского государства первых средних веков (IV-X вв. до н. э.). Также был освещен сравнительный анализ зарубежного источника по истории Хорезма этого периода. В статье приведено изучение археологических объектов, относящихся к хорезмскому государству, с точки зрения историографии.

**Ключевые слова:** Джурджон (Урганч), Кэт, Миздахкон, Хазорасп, Хива, Туккала, Айвонкала.

**Abstract.** This article describes the analysis of archaeological sources on the history of the first Middle Ages( IV-X centuries BC) of the Khorezm state. A comparative analysis of foreign sources on the history of Khorezm of this period is also covered. The article discusses the study of archaeological objects belonging to the Khorezm state from the point of view of historiography.

**Key words:** Ayvonqal'a, Kat, Mizdahqon, Hazorasp, Xiva, Jurjon.

**Kirish.** Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixi haqida yozma manbalar kam bo'lishi bilan birga arxeologik jihatdan ham kam o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa uning siyosiy tarixi yoki afriq'iyul sulolasi tarixi haligacha Xorazm tarixining eng kam o'rganilgan muammoli sahifalardan biri bo'lib turibdi. Shuning uchun ham Xorazm tarixining mazkur muammoli masalasini nafaqat yozma manbalar balki, arxeologik va numizmatik manbalar orqali yanada chuqurroq o'rganishni taqozo qiladi hamda ilgari davrlarda Xorazm ilk o'rta asrlar davri tarixida bildirilgan ko'pgina fikrlarni qaytadan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz. Zero, Xorazm ilk o'rta asrlar davriga oid yozma manbalar, ayniqsa, buyuk ajdodimiz Beruniy asaridagi ma'lumotlarni nafaqat arxeologik, balki numizmatik manbalar bilan chuqur ilmiy jihatdan solishtirish orqali bu muammoni yechish mumkin. Bu borada biroz ishlar ham qilinganligini ta'kidlash kerak. Ammo shunday bo'lsada, bu muammo to'liq o'z yechimini topmasdan, faqat yangi qarashlar shakllandi xolos. Shu bilan birga bu yangicha qarashlar haligacha to'liq ilmiy muomalaga kiritilmasdan, darsliklarda va ko'pgina akademik nashrlarda haligacha ilgari qarashlar o'z aksini topgan. Jumladan, bugungi kunda Xorazm viloyatidagi barcha o'quv muassasalaridagi darsliklar va o'quv qo'llanmalarida haligacha eski qarashlar asosida ma'lumotlarni uchratamiz. Biz quyida shu yangi qarashlar haqida so'z yuritamiz.

**Asosiy qism.** Umuman olganda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Vizantiya, Xitoy va arab-fors tilidagi manbalarda Xorazmning IV-X asrlardagi siyosiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, ular mavzumiz yuzasidan to'laqonli va aniq ma'lumotlarni bera olmaydi. Bu borada XIX asrdan boshlagan Rossiya va yevropalik tadqiqotchilarning Xiva xonligini o'rganish uchun qilgan sayi-harakatlarini qayd etish lozim. Chor Rossiyasi va Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga e'tibori ortib borishi bilan o'lkaga geograflar, tarixchilar, elchilar, harbiy topograflar, etnograflardan iborat ilmiy ekspeditsiyalar kela boshladi. Ular Xorazm tarixiga oid ma'lumotlarni to'plashdi. Natijada rus geograf, etnograf, tarixchi, rassom, harbiy topograf va sayyohlari qatorida Xorazm vohasi va uning atrofidagi hududlarni o'rgangan V.V.Grigorev [1], N.I.Veselovskiy [2], V.V.Bartold [3] kabi olim va o'lkashunoslar ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator nodir asarlarni yaratdilar. Rus tarixchi olimlaridan N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold kitoblarida Xorazmning IV-X asrlar tarixini tanqidiy o'rganishga intilish yaqqol sezilib turibdi.

XIX asrning 2 - yarmida rus olimlari bilan bir qatorda O'rta Osiyoga Yevropa olimlarining ham e'tibori kuchaydi. Deyarli barcha tadqiqotchilar o'lka hayotining muhim qismi bo'lgan Xorazm vohasi tarixini chetlab o'ta olmadilar. Jumladan, ruslar istilo qilgan Turkiston haqida asar yozgan ingliz G.Lansdell Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixiy yodgorliklari to'g'risida ba'zi bir ma'lumotlarni keltirgan [4]. Musulmon dunyosining sharqida joylashgan davlatlar yodgorliklariga bag'ishlangan asar yozgan G.Le Strenj Xorazm shaharlarini ham tasvirlab o'tadi va kitobiga ilova sifatida bergan xaritasida Jurjon (Urganch), Kat, Mizdahqon, Hazorasp, Xiva shaharlari, vohaga olib boradigan yo'llarda mavjud bo'lgan bir nechta karvonsaroylar va manzilgohlarni ko'rsatib o'tgan [5]. 1875 yilda Leydenda Amudaryo haqida kitob nashr qildirgan golland sharqshunosi de-Gue ham ilk o'rta asrlar Xorazm tarixi haqida ma'lumotlar bergan [6].

Markaziy Osiyo davlatlari tarixini o'rganishda taniqli boshqird siyosiy arbobi Ahmad Zaki Validiy To'g'onning merosi katta qiziqish uyg'otmoqda. Ko'p yillar bolsheviklarning mafkurasiga qarshi kurashgan va Turkiston tarixini xolisona yoritishga uringan Zaki Validiy ko'pgina olimlarning asarlarida yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'irlashga muvaffaq bo'lgan. Xususan, u sharqshunos V.V.Bartold va M.Tomashek V-X asrlarda Xorazmda mavjud bo'lgan shaharlar toponimik nomlarini o'qish borasida noaniqliklarga yo'l qo'rganligini ko'rsatib o'tgan. Jumladan, V.V.Bartold Nuzvar shahri nomini Xadravar, Nufuzravar shahrini — Buran, Varan shahrini — Ravan, Buruzdum shahrini — Savoron Birmum yoki Burzum sifatida o'qish mumkinligini aniq bilmaganligini yozadi [7].

Rossiya va Yevropa olimlari tomonidan XIX asr va XX asr boshlarida olib borilgan tadqiqotlar ham Xorazmning ilk o'rta asrlar siyosiy tarixi haqida to'liq ma'lumotlar bera olmasada, Xorazm ilk o'rta asrlar tarixini xolisona yoritish yo'lidagi dastlabki urinish sifatida baholash mumkin xolos.

XX asrning 20-30-yillarida Xorazmning qadimgi va o'rta asrlardagi tarixini chuqur va har tomonlama o'rganish maqsadida yangi — dadil qadam qo'yildi. Zero shu yillardan boshlab, Xorazm tarixini arxeologik va numizmatik jihatdan o'rganish ishlari olib borila boshlandi. Jumladan, 1928-1929 yillarda A.Yu.Yakubovskiy rahbarligidagi ekspeditsiya Urganch (Ko'hna Urganch), Xo'jaeli shahri yaqinidagi Mizdahqonqal'ada arxeologik izlanishlar olib bordi. Ekspeditsiya a'zolari mazkur shaharlardagi barcha muammolarni kompleks ravishda to'la o'rganishga erisha olmasada, ilk bor Urganch va Mizdahqon shaharlaridan topilgan buyumlarga qarab, Xorazmning ilk o'rta asrlar davri tarixini ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'lindi [8].



Xorazmning ilk o'rta asrlar qatlamlari 1934 yilda M.V.Voevodskiy boshliq arxeologik ekspeditsiya tekshirgan Zamahshar xarobalaridan [9], 1936-1937 yillarda Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi olimlar guruhi o'rgangan Guldursunqal'a va Norinjonqal'a xarobalaridan ham topib o'rganildi [10].

Xorazm vohasida ilk o'rta asr yodgorliklaridan Burgut qal'a va uning atrofidagi hajmi kichik aholi punktlari Ye.E.Nerazik tomonidan o'rganilgan [11]. Xorazmning qadimgi tarixi va uning ilk o'rta asrlardagi siyosiy tarixini o'rganish borasidagi izchil tadqiqotlarning boshlanishi 1937 yilda tashkil etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati bilan uzviy bog'liqdir [12]. Tinib-tinchimaydigan, 30 yoshlik arxeolog va etnograf olim — Sergey Pavlovich Tolstov tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu ilmiy jamoa 40 yildan ortiqroq vaqt davomida Xorazm vohasining qum barxanlari (tepaliklari) ostida qolib ketgan tarixiy yodgorliklari, qal'a va shaharlari, karvonsaroylari, sug'orish inshootlari, Orol hududida yashagan xalqlarning etnik shakllanish jarayonlarini ilmiy jihatdan kompleks o'rgandi.

Ekspeditsiya a'zolari yozma manbalarida ko'rsatib o'tilgan ilk o'rta asrlar Xorazm siyosiy tarixi bilan bog'liq voqealar bilan bir qatorda ilgari hech qayerda qayd etilmagan juda ko'p yangi ma'lumotlarni aniqladilar.

Ilk o'rta asrlar Xorazm siyosiy tarixini arxeologik va numizmatik jihatdan o'rganishning keyingi bosqichi 1958 yildan, ya'ni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali tarkibida «Arxeologiya» bo'limining tashkil etilishidan boshlandi. Nukusda yashayotgan bo'lim olimlari asosan bahor, yoz va kuz oylarida Moskvadan kelib ishlaydigan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi a'zolaridan biroz mustaqil holda va keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar o'tkaza boshlashdi. Ularning aksariyati O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti Arxeologiya bo'limida ishlayotgan bo'lib, ko'pgina dissertatsiya mavzulari ham Janubiy Orolbo'yi hududidagi arxeologik tadqiqotlar muammolariga bag'ishlandi [13]. Natijada Xorazmning ilk o'rta asrlar davri siyosiy tarixi bo'yicha ma'lumotlarni yanada aniqlashtirish va kengroq to'plash imkoniyati yaratildi.

Qoraqalpog' arxeologlarining e'tibori qatlami X-XV asrlarni tashkil etuvchi, biroq, ilk o'rta asrlar qatlamiga ega Xorazmning yirik shaharlaridan biri bo'lgan — Mizdahqonqal'a tarixiy yodgorligini o'rganishga qaratildi. Bu shaharda 1962, 1964-1965 va 1966 yillarda izchil arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirishga O'zbekiston FA Qoraqalpog'iston filiali Tarix, til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi V.N.Yagodin rahbarlik qildi [14].

1963, 1968-1971 yillar davomida arxeolog Yu.P.Manqlov rahbarligidagi Qoraqalpog' arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Katqal'a, Abu Muslimqal'a, Janpikqal'a yodgorliklarini o'rgandilar [15].

Qoraqalpog' arxeologlarining izlanishlar doirasi ayniqsa XX asrning 70-80-yillarida mislsiz darajada kengaydi. Natijada ayrim tarixiy yodgorliklarni bir necha bosqichda kompleks ravishda o'rganish, ular haqida to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish, maqola, to'plam va monografiyalar sifatida chop etish ishlariga e'tibor qaratildi. Jumladan, 1973, 1978-1981, 1981-1983, 1985-1987 yillarda Janpiqqal'ada, 1973-1974 yillarda Vayangan (Ardaxushmisan)da, 1980, 1985, 1986-1987 yillarda Mizdahqonda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Xorazm ilk o'rta asrlar siyosiy hayotini biroz aniqlashtirish imkonini berdi [16].

O'rta asrlarda o'ng qirg'oq Xorazmda shakllangan moddiy madaniyat yodgorliklari ayrim shaharlar misolida ham o'rganildi. Jumladan, uzoq yillar mobaynida A.V. Gudkova boshliq arxeologik guruh ilk o'rta asrlar yodgorliklari bo'lmish To'qqal'a va Ayvonqal'ada arxeologik tadqiqotlar olib borib, Xorazm tarixining noma'lum sahifasi bo'lmish, Xorazm – eftaliylar va Turk hoqonligi munosabatlari, Hamjird shahri va davlati muammosi va arab bosqini davri Xorazm siyosiy tarixi masalalarini ochib berishda muhim ahamiyatga molik ishlar qildilar [17]. Jampiqqal'ada saqlangan moddiy madaniyat qoldiqlarini arxeologik tadqiqotlar asosida o'rganish davomida yosh qoraqalpog' olimi O.T.Dospanov Xorazmdagi shaharlarning o'rta asrlarga xos bo'lgan iqtisodiy-siyosiy va savdo-sotiq munosabatlarini yoritishga intilgan [18].

**Xulosa.** Bu davrda arxeologik tadqiqotlar bilan birga numizmatik tadqiqotlar ham olib borilgan. Zero, 50 yildan ortiq davom etgan arxeologik tadqiqotlar boy numizmatik manbalar berdi. 1988 yilda Kislovodsk shahrining Sharqiy chekkasida joylashgan Alan qabilasiga mansub Mokraya Balka yodgorligidan VIII asr o'rtalarida hukmronlik qilgan xorazmshoh Shavushfan (Savushfan)ning kumush draxmasi topilishi bu aloqalarning ancha ilgaridan mavjudligidan dalolat beradi [19]. Numizmatika

bo'yicha eng ko'p ish olib borgan tadqiqotchi bu B. I. Vaynberg hisoblanadi [20]. Uning tadqiqotlari aynan biz tanlagan mavzu davrlarini qamrab oladi.

Yuqorida nomlari tilga olingan olimlar va ularning qimmatli asarlarini minnatdorlik bilan qayd etgan holda, shu narsani ta'kidlashimiz kerakki Xorazm ilk o'rta asrlar siyosiy tarixi to'g'risidagi hozirgacha mavjud qarashlar qisman arxeologik yoki numizmatik yo'sinda tahlil qilinadi.

Tadqiqotchilarning bir necha avlodi biz tanlagan mavzuni yoritish uchun bebaho ma'lumotlarni to'plaganlarini e'tirof etish kerak. Biroq mualliflardan hech biri o'z oldiga IV-X asrlarda Xorazm siyosiy tarixini maxsus o'rganish hamda to'plangan noyob ma'lumotlarni izchil va muntazam ravishda umumlashtirish vazifasini qo'yaganligini ta'kidlash lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Григорьев В.В. Описание Хивинского ханства и дорога туда из Сарайчиковой крепости//ЗРГО, № 2. — СПб., 1861.
2. Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. — СПб., 1877.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Соч., т. 1. — М., 1963, с. 197-211; Его же: Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVI в. // Соч., т. 3;
4. Lansdell H. Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv. Vol. I-II, London, 1885, p. 314-347.
5. Le Strange G. The Lands of the Eastern Califate. - Cambridg, 1905, p. 446-459.
6. De Goeje M.J. Das alte Bett des Oxsus Amu-darja. — Leyden. 1875
7. Ibn Fadlan's reisebericht von A.Zeki Validi Togan. — Leipzig, 1939; Шигабиддинов Р. Неизвестные страницы А.Валидий. Перевод с башкирск. языка Д.Рашидова // "Ўзбекистон тарихи", 2000, № 1-2, 57-70-б.
8. Якубовский А.Ю. Городище Миздахкан // «Записки коллегии востоковедов», т. V. — Л., 1930; с. 551-591; Его же: Развалины Ургенча // ИГАИМК, вып. 2, т. VI. — Л., 1930.
9. Voyevodsky M. A Summary Report of a Khwarizm Expedition. ВАПАА, 1938, № 3.
10. J.Gulom. Otmush izlari // "Guliston", 1937, № 4.
11. Nerazik E.E. Раскопки в Беркуткалынском оазисе в 1953 – 1956 гг. // МХЭ. Вып. 1. - М.: «Наука», 1959.
12. Толстов С.П. Древний Хорезм. — М., 1948, с. 33,156,157,168-170
13. Гудкова А.В., Ягодин В.Н. Археологические исследования в правобережной части дельты Амударьи в 1958-1959 гг. // МХЭ, вып. 6. — М., 1963
14. Ягодин В.Н. К изучению топографии и хронологии древнего Миздахкана // В кн. История, археология и этнография Средней Азии. — М., 1968; Ягодин В.Н., Ходжайов Т.К. Некрополь древнего Миздахкана. — Т.: «ФАН». 1970.
15. Маньолов Ю.П. К изучению городища Кят // «Вестник» ККФ АН УзССР, 1966, № 2
16. Мамбетуллаев М.М., Кдырнязов М. Городище Воянган//Археология Приаралья, вып. 1. — Т.: «ФАН», 1982
17. Гудкова А.В. Ток-кала. — Т.: «Фан», 1964. — 152 с., 17 таблиц.
**Калим сўзлар:** жаҳолат, маърифат, ҳадис, тарбия, илм, миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик, резолюция.

**Аннотация.** В статье научно обосновано проводимые реформы в Республике Узбекистан, в “борьбе с невежеством самым лучшим является знание”. Были также рекомендации для молодежи о необходимости эффективного использования Интернета.

**Ключевые слова:** невежество, просвещение, хадис, воспитание, наука, межнациональное согласие, религиозная толерантность, резолюция.

**Abstract.** The article scientifically substantiates the ongoing reforms in the Republic of Uzbekistan, in the “fight against ignorance, knowledge is the best.” There were also recommendations for young people about the need to use the Internet effectively.

**Keywords:** ignorance, enlightenment, hadith, upbringing, science, interethnic harmony, religious tolerance, resolution.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида миллатлараро тотувликни мустаҳкамлаш, халқаро ҳамкорликни ривожлантириш борасидаги ишларга алоҳида эътибор қаратдилар [4: 4]: “Мамлакатимизда “Жаҳолатга қарши – маърифат” деган эзгу ғоя асосида ислом динининг инсонпарварлик моҳиятини, тинчлик ва дўстлик каби олижаноб мақсадларга хизмат қилишини тарғиб этиш кун тартибимиздаги доимий масалалардан бири бўлиб қолади”. Шунингдек, мамлакатимиздаги кўпконфессиялилиқ шароитида турли миллат, элат ва дин вакиллари орасидаги тотувликни таъминлаш, жаҳонда тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлаш ишига муносиб ҳисса қўшиш ҳар бир фуқаронинг, айниқса, олий маълумотли зиёлининг муқаддас бурчидир. «Жамиятимизда диний конфессиялар ўртасида ҳамжиҳатлик ва фуқаролар тотувлигини мустаҳкамлашни биз бундан буён ҳам энг долзарб ва эзгу вазифамиз деб биламиз» [3:3].

Нафақат ёшлар, балки бутун жамиятимиз аъзоларининг билими, савиясини ошириш учун аввало илм-маърифат, юксак маънавият керак. Илм йўқ жойда қоқоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлади. Шарқ донишмандлари айтганидек, “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир!”. Шу сабабли ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётини эҳтиёжга айланиши керак [4: 2].

Шунингдек, мамлакатимизда илм-фанни янада равнақ топтириш, ёшларимизни чуқур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси этиб тарбиялаш, рақобатбардош иқтисодий шакллантириш борасида бошлаган ишларимизни жадал давом эттириш ва янги, замонавий босқичга кўтариш мақсадида Президентимиз томонидан 2020 йилга “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодий ривожлантириш йили”, деб ном берилди [4: 2].

Дунё миқёсида миллатлараро ва конфессиялараро ҳамкорлик, ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаш кўп жиҳатдан жамият ҳаётига бағрикенглик тамойилларининг самарали жорий этилишига боғлиқ. Жаҳондаги мураккаб ва зиддиятли кечаётган жараёнлар турли дин вакиллари ўртасида ўзаро ҳурмат, ҳамкорлик ва ҳамжиҳатлик руҳидаги алоқаларни мустаҳкамлаш тарихий зарурият эканини кўрсатмоқда. Шунинг учун ҳам мамлакатимизда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси» нинг бешинчи устувор йўналишида «Хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш ҳамда чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат» асосий вазифалардан бири сифатида белгиланди [2].

Республикамиз Президенти томонидан 2017 йил 19 сентябр куни БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида бағрикенглик ва ўзаро ҳурматни қарор топтириш, диний эркинликни таъминлаш, эътиқод қилувчиларнинг ҳуқуқини ҳимоя қилиш, уларнинг камситилишига йўл қўймасликка кўмаклашишга қаратилган «Маърифат ва диний бағрикенглик» деб номланган махсус резолюциясини қабул қилиш таклифи илгари сурилиши [1] ҳам турли конфессиялар ўртасидаги ҳамжиҳатликка давлатимизда халқаро аҳамиятга эга масала сифатида қаралаётганининг ёрқин ифодасидир.

Интернет фан-техника тараққиёти натижаси, маданият эволюциясининг ҳосиласи ҳисобланади. Ҳозирги кун ҳаётини интернетсиз тасаввур қилиш жуда мушкул. Айниқса, ёшлар ҳаётида глобал тармоқнинг ўрни тобора ошиб бормоқда. Интернет дунёнинг турли нуқталарида яшовчи одамларнинг ўзаро мулоқотини ҳамда ахборот алмашинувини мукамал даражада осонлаштиради. Статистик маълумотларга кўра, дунё бўйича интернетдан энг кўп фойдаланувчилар айнан 21 дан 30 ёшгача бўлган ёшлар ҳисобланар экан.

Интернет ёшлар онги ва ҳиссиётларига, тафаккур тарзига, ҳулқ-атворларига таъсир кўрсатишда катта имкониятларга эга. Интернетнинг ривожини ёшларга гоёвий таъсир ўтказишнинг миқёси ва кўламининг кескин даражада ўсишига олиб келди. Глобаллашувнинг ижобий ва салбий томонлари бўлгани каби, интернет тармоғи ҳам шундай хусусиятларга эга эканини унутмаслик зарур. Албатта, глобал тармоқ – улкан ресурс. Бироқ, бу ресурсдан ким ва қандай мақсадларда фойдаланиши ҳам жуда жиддий масалалар сирасига кирилади. Хусусан, маълумотларда келтирилишича, бугунги кунга келиб, интернет тармоғида маънавий-ахлоқий тубанликни тарғиб этувчи саҳифаларнинг сони бир неча юз миллионни ташкил этган. Ушбу факт ва рақамлар интернет ривожланиб бораётган даврда кишиларнинг ахборотларга нисбатан жуда эҳтиёткорлик, огоҳлик ва зийраклик билан муносабатда бўлишларини тақозо этади. Бошқача айтганда, кишиларимизда, айниқса, ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини шакллантириш бугунги куннинг муҳим вазифаларидан ҳисобланади.

Диний-экстремистик оқимлар ўз мақсадларини амалга ошириш учун замонавий ахборот коммуникацияларидан кенг фойдаланиш, интернет орқали турли тилларда тарғибот олиб бориш ва пухта ишланган стратегия асосида виртуал жамоатлар тузиш асосий вазифага айланган. Масалан, бугунги кунда бир неча йирик террорчи ташкилотлар ўз сафларига фаол тарзда ижтимоий тармоқлар орқали асосан 17-35 ёш оралиғида бўлган кишиларни ёлламоқда. Бунда психологик таъсир самарадорлигини янада ошириш мақсадида ижтимоий тармоқ аъзоларининг саҳифалари, қўйилаётган расмлар, шарҳ ва изоҳлар ҳамда олиб борилаётган суҳбат мавзуларини пухта ўрганади ва шу асосда «нишон»га олинган шахсга мавзуга оид материаллар интернетнинг Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Telegram, Twitter, WhatsApp каби кенг аудиторияга эга бўлган ижтимоий тармоқлари орқали (ёзма хабар, матн, фотосурат, стикер расмлар, аудио-видео ролик) жўнатилади ва ўзаро алоқа йўлга қўйилади.

Ёшлар орасида мутаассибликка йўғирилган бундай форумларнинг тобора оммалашуви ҳамда уларда турли кўринишдаги бузғунчи «фатво»ларнинг бериб борилиши муаммонинг нақадар жиддий эканини намоён этади [6: 76]. Чунки дунё аҳолисининг асосий қисмини ёшлар ташкил қилади. Ёшлар катта куч ҳисобланади. Уларнинг энди шаклланиб келаётган онгига нима сингдирилса, ўша тошга ўйилган нақшдек муҳрланади. Шунинг учун ҳам радикал оқимлар айнан ёшларни тузоғига илинтиришга ҳаракат қилади. Улардаги ишонувчанлик, куч-ғайрат, қизиққонлик уларнинг мақсадини амалга оширишда қўл келади.

Шунинг билан бирга, бугунги кунда аксарият ёшларнинг қўлида интернетга уланган замонавий уяли алоқа воситалари мавжуд. Бу ҳол уларнинг юқорида санаб ўтилган турли хил ижтимоий тармоқларга бевосита уланиш, дўстлари ва танишлари билан узлуксиз мулоқот қилиш имконини беради. Айни пайтда, статистик маълумотларга кўра, Ўзбекистонда энг кўп юклаб олинаётган дастур ичида Telegram, WhatsApp тармоқлари етакчи ўринни эгаллайди. Илм-фаннинг ютуғи бўлмиш бу янгиликлар инсонларнинг узоғини яқин, мушқулини осон қилаётгани шубҳасиз. Шу билан бирга, бу кашфиётлар дунё янгиликларидан бир зумда воқиф бўлиш ва маълумотларни осон тарқатиш имконини ҳам беради. Бироқ, мазкур тармоқларда миллатлар ва динлар ўртасида адоватни келтириб чиқарувчи, низоли вазиятларга сабаб бўлувчи, шунингдек, инсонлар орасида ваҳима уйғотишга қаратилган иғво, фитна-фасод хабарларнинг кенг тарқатилаётгани кўпчиликни ташвишга солиши табиий. Бугун ахборот истеъмол қилинадиган товарга айланган экан, ҳар бир инсон ўзида уни истеъмол қилиш маданиятини тарбиялаши

лозим. Ёшлар шахсий характердаги ахборот ҳимояси бўйича билим ва кўникмаларга эга бўлиши, ўзи фойдаланаётган салбий ахборотлардан ҳимоялана олиши зарур.

Ёшларнинг турли оқимларнинг таъсирига тушиб қолмасликлари учун интернетдан фойдаланишда қуйидаги зарурий кўрсатмаларга аҳамият беришни тавсия этамиз:

- Ёшларнинг бўш вақтларини ижтимоий тармоқларда ўтириш билан ўтказиши хатодир. Чунки, ҳеч нарса жонли, ҳақиқий ва реал мулоқотлар ўрнини боса олмайди;

- Интернетдан фойдаланувчилар шахсий маълумотларини турли ижтимоий тармоқлар, блогларга, электрон почталарга киритишлари, ғаразли мақсаддаги кишиларга айтиш муддао бўлиб хизмат қилади;

- «Ўргимчак тўри»да ақидапарастликни тарғиб қилувчи сайтлар тобора кўпайиб бормоқда. Бундай таҳликали замонда ёшларга фақат «uz» доменидаги сайтлардан фойдаланиш тавсия қилинади;

- Ҳар қандай хабарни бошқаларга тарқатиш керак дейилса, тарқатавермаслик лозим. Баъзан исломий иборалар аралашган мактуб келади. Унда бу хатни шу кечанинг ўзида, бир неча кишига тарқатишингиз керак. Шундай қилсангиз ундоқ бўлади. Қилмасангиз оқибати ёмон бўлиши айтилади. Аслида бу нарсаларнинг бари ёлғон ҳисобланади.

Дарҳақиқат, ислом дини кўрсатмаларида ҳам нақл қилинган бирор хабарга ишонишдан аввал уни текшириб, аниқлаб олиш талаб этилади. Жумладан, Қуръони каримда шундай дейилади: «Эй, мўминлар! Агар сизларга бирор фосиқ кимса хабар келтирса, сизлар (ҳақиқий аҳволни) билмаган ҳолингизда бирор қавмга азият этказиб қўйиб, (кейин) қилган ишларингизга пушаймон бўлмаслигингиз учун (у хабарни) аниқлаб (текшириб) кўрингиз!» (Хужурот, б).

Таъкидлаш лозимки, интернетда бузғунчиликларни тарғиб қилувчи веб-сайтлар, ижтимоий тармоқдаги гуруҳлар сони кун сайин кўпаймоқда. Турли ёлғон маълумотлар кўпайган бир вақтда тўғри ва ҳаққоний ахборотни ажратиш йўллари билиш лозим. Жумладан, бундай шароитда аждодлар тутган йўлни танлаш керак. Имом Бухорий ҳазратлари ҳадислар [8]нинг саҳих, заиф ва тўқималарини ажратишда жуда моҳир бўлганлари сир эмас. Ривоят қилинишича, Имом Бухорий бир ҳадиснинг ровийси, яъни ривоят қилувчисини қидириб топадилар. Лекин ровий бир хайвонни қуруқ қўл билан алдаб, қўрага олиб кираётганини кўриб, суҳбатлашмасдан қайтадилар ва ундан ҳадис ривоят қилмайдилар. Демак, ҳар бир олинган маълумотни текшириб, асосли ёки асоссиз эканини аниқламай туриб, ўша маълумотга қараб иш тутиш ислом моҳиятига қўра, шайтон йўлига кириш ҳамда ёлғончи бўлиб қолиш билан баробар бўлади. Чунки бунда хабар тарқатаётган кишининг ғаразли мақсадини амалга оширишига замин яратиб қўйилади.

Ёшларни турли хилдаги ёт ғоялардан асрашда қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиш муҳим аҳамият касб этади.

Биринчидан, жамоатчилик фикрини чалғитаётган, вайронкор ахборотлар ташқаридан келаётганини назарда тутиб, мунтазам уларга қарши туриш. Бефарқлик ва сукут сақлаш кайфиятига барҳам бериш. Иккинчидан, ҳар қандай ҳужумкор ва бузғунчи ғояга қарши ўз вақтида, мўлжални аниқ олиб муносабат билдириш ва бунда эҳтиросга берилмаслик, ортиқча шов-шувларга йўл қўймасдан вазминлик ва босиқлик, айтиш пайтда, уддабуронлик билан кучлик таъсир ўтказиш усуллари қўллаш.

Турли гуруҳлар миллатни йўқ қилиш, илдинини қирқиб ташлаш мақсадида ахборот тизимидан фойдаланишга зўр бермоқда. Мана шу жараёнда ёшлар ўзининг ақлий салоҳиятини ишга солиб, ўзини ўзи ҳимоя қилиш ва ҳар қандай тажовузларга қарши тура олиш иқтидорини шакллантириши лозим [7: 14].

Ёшларнинг барчаси интернет тармоғидан фақат илм йўлида фойдаланмоқда десак, янглишамиз. Афсуски, интернетдан нотўғри, бузғунчилик ва беҳаёликка доир маълумотларни олишда ҳам фойдаланмоқда. Бу каби нохуш ҳолатлардан сўнг ёшлар келажакда қаҳри қаттиқ, меҳрsiz, ҳаёсиз бўлиб етишмайди, деб ҳеч ким кафолат беролмайди.

Маълумки, кўплаб сайт ва тармоқлар катта маблағлар эвазига филтрлаб қўйилган ва бу ҳолатни кўп давлатларда кузатиш мумкин. Албатта, таъқиқлар ёки филтр воситалари орқали одамларни интернет оламидаги турли кучларнинг хатарли таҳдидларидан ҳимоя қилиш жуда қийин. Республикамизда чоп қилинган кўплаб адабиётлар, жумладан, “Диний мутаассиблик: моҳият, мақсадлар ва олдини олиш йўллари” [6], “Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари” [7], “Илмдан бошқа нажот йўқ” [9], “Ислом ва ақидапараст оқимлар” [10], “Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари” [11], “Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар,



оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари” [12] ва бошқа адабиётларда ёшларимизнинг ушбу оқимларга қўшилмаслиги, илм ҳар нарсадан устун эканлиги ҳамда жаҳолатга фақат маърифат билан курашиш зарурлиги ёритиб берилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Диний-маърифий соҳа фаолиятини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5 сентябрь 2019 йилда 07/19/4436/3693-сонли қарори қабул қилинди. Унга асосан мамлакатимизда миллий анъана ва қадриятларимизни ривожлантириш, улуғ аллома аждодларимиз илмий меросини чуқур ўрганиш, ёшларимизни Ватанга муҳаббат, илм-маърифатли, интеллектуал баркамол авлод этиб тарбиялашга давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида эътибор қаратилмоқда. Бу соҳада олиб борилаётган ислохотлар дунё миқёсида ҳам муносиб эътироф этилиб, диний бағрикенгликнинг намунали модели сифатида баҳоланмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган тарихий нутқида ушбу долзарб масалага алоҳида эътибор қаратиб: “Биз муқаддас динимизни азалий қадриятларимиз мужассамининг ифодаси сифатида беҳад қадрлаймиз. Биз муқаддас динимизни зўравонлик ва қон тўкиш билан бир қаторга қўядиганларни қатъий қоралаймиз ва улар билан ҳеч қачон мураса қила олмаймиз. Ислом дини бизни эзгулик ва тинчликка, асл инсоний фазилатларни асраб-авайлашга даъват этади”, – дея таъкидлаган эдилар.

Бундай адолатли ёндашув халқаро доираларда кенг муҳокамаларга сабаб бўлди. БМТ Хавфсизлик Кенгашининг 2017 йил 21 декабрдаги 2396-сонли резолюциясида: “Терроризм, зўравон экстремизм ҳеч бир дин, миллат ва цивилизация билан алоқадор эмас ва боғлиқ ҳолда талқин қилинмаслиги керак”, деб қайд этилди.

Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази, Имом Бухорий, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказлари, Ўзбекистон халқаро ислом академияси – буларнинг барчаси халқаро даражадаги йирик лойиҳалардир. Ушбу ташаббусларнинг аҳамияти шундаки, илм-маърифат, маданият замини бўлган Ўзбекистондан маърифий ислом ғоялари тарқалиши, муқаддас динимизнинг асл инсонпарварлик таълимотларини ёйиш бўйича Мовароуннаҳрда шаклланган тарихий мактаблар анъанасининг давом этиши “Жаҳолатга қарши – маърифат” билан курашишнинг энг самарали ечими бўлади.

Хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, дунёнинг турли минтақа ва ҳудудларида рўй бераётган ижтимоий-сиёсий жараёнлар, зиддиятли тўқнашувларга теран қараш ҳиссини ошириш, ҳар қандай кўринишдаги таҳдидларга қарши маънавий-маърифий ишларни замон талаблари асосида ташкил этиш, айниқса бу борада келажагимиз ҳисобланган ёш авлодни, бир сўз билан айтганда ҳар биримиз учун муқаддас бўлган оиламизни дин ниқоби остидаги ёт ғоялар таъсиридан асраш учун бор куч ва имкониятларимизни сафарбар этиш, бунда «Жаҳолатга қарши маърифат» билан курашиш тамойили ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамият касб этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи // “Халқ сўзи”, 2017 йил 20 сентябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги 07.02.2017 йил. ПФ-4947-сонли Фармони. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2017 йил 13 февраль, 6-сон, 70-модда.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил, 22 декабр// [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи, 2020 йил, 25 январ, № 19 (7521).
5. «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни (янги таҳрири) // Ўзбекистоннинг янги қонунилари, № 19. – Т.: Адолат, 1998.
6. Диний мутаассиблик: моҳият, мақсадлар ва олдини олиш йўллари / А.Ҳасанов, О.Юсупов, К.Шермухамедов, У.Ғафуров, Ж.Каримов. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2013.
7. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008.
8. Имом ал-Бухорий: Ал-Жамий ас-сахих. IV жилдлик. - Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991-1993.
9. Илмдан бошқа нажот йўқ / А.Абдуллаев, Н.Ҳақимова, Ш.Жўраев, Ж.Каримов. – Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2015.
10. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. Тўлдирилган нашр. Масъул муҳаррир Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Шарк, 2014.
11. Шермухамедов К., Каримов Ж., Нажмиддинов Ж. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари. – Тошкент: «Мовароуннаҳр» нашриёти, 2016.

12. Ҳасанбоев Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. – Т.: ТИУ, 2014. – 552 б.

УДК: 9

## ДНИ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА- ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ

*Н.К. Нуруллаева, к.и.н., доц., УрГУ, Ургенч*

**Аннотация.** *Ушбу мақолада маданият ва санъат кунларининг мамлакатда миллатлараро тотувликни таъминлашдаги аҳамияти ҳақида сўз юритилади.*

**Калим сўзлар:** *маданият ва санъат кунлари, адабиёт ва санъат кунлари, театр спектакллари, рассомлар кўрғазмаси, мусиқа санъати, концерт дастури.*

**Аннотация.** *В данной статье речь идёт о значении дней культуры и искусства, которые являются фактором обеспечения межэтнического согласия в стране.*

**Ключевые слова:** *дни культуры и искусства, дни литературы и искусства, театральные спектакли, выставки художников, музыкальное искусство, концертная программа.*

**Abstract.** *This article deals with the importance of the days of culture and art, which are a factor in ensuring interethnic harmony in the country.*

**Key words:** *days of culture and art, days of literature and art, theater performances, exhibitions of artists, musical art, concert program.*

На рубеже 1990-х годов представлявшие Хорезмский регион - Республика Каракалпакстан, Хорезмская область и Дашхувузская область Туркменистана - предприняли ряд мер по сохранению культурных, социально-экономических связей между ними. Ускорились межобластные культурные связи, например, Хорезмская область подписала соглашение о дружбе культур и искусств с Дашхувузской областью Туркменистана, на основе которого прошли Дни культуры и искусства Хорезма в Дашхувузской области, были организованы несколько встреч коллективов художественной самодеятельности, показаны театральные спектакли и выставки художественного искусства. Особенно были прочны связи тружеников Кушкупирского и Шаватского районов Хорезма с Тахтинским и Дашхувузскими районами Туркменистана. Только в 1989 году состоялись 6 совместных представлений мастеров культуры и искусства Хорезма, Каракалпакстана и Дашхувузской области, которые имели большой успех среди населения и привели к укреплению добрососедских отношений в регионе.

В 1989 году было принято решение о проведении Дней культуры и искусства Хорезмской области в Каракалпакстане и Дней культуры и искусства Каракалпакстана в Хорезмской области. «Главной целью проведения этих мероприятий, - отмечал руководитель Управления культуры Хорезмской области И.Юсупов, - еще ближе познакомить каракалпакский народ с нашим искусством, через народное творчество еще более укрепить нашу дружбу. Потому что песни и музыкальное искусство хорезмцев и каракалпаков очень близки друг другу, как и радости и печали» [1].

Для планомерного осуществления подготовительных мероприятий Дней культуры Хорезмской области в Каракалпакстане был образован Организационный комитет под председательством заместителя председателя исполнительного комитета Хорезмского областного совета Р.Р.Ибрагимова. Также была образована музыкально-постановочная рабочая группа, куда входили главный режиссер областного театра музыкальной драмы и комедии им. Агахи, заслуженный деятель культуры УзССР Ибадулла Инязматов, дирижер данного театра Кадамбай Рахманов, главный балетмейстер, заслуженный артист УзССР Зоя Гаффарова, директор Ургенчского музыкального училища им. М.Харратова Кадамбай Мусаев и другие представители культуры и искусства области.

Была составлена обширная культурная и музыкальная программа. Согласно программе Дней культуры и искусства, планировалось проведение встреч поэтов и писателей Хорезма с читателями Каракалпакстана, организация выставки художников, а также выставки школьников во Дворце пионеров в Нукусе [2]. В Дни культуры и искусства в Нукусе и других районах Каракалпакстана были проведены большое количество встреч с деятелями культуры и искусства Хорезмской области, в частности, состоялись встречи с Эркином Самандаровым, Эркином Мадрахимовым, Сотим Аvezовым, Рахим Бекниёзовым и др. [3].

Таким образом, в декабре 1989 года были проведены Дни культуры Хорезмской области в Каракалпакстане, а 24-26 января 1990 года уже деятели литературы и искусства Каракалпакстана нанесли дружеский визит в Хорезмскую область, для проведения Дней литературы и искусства Каракалпакстана в Хорезме. Каракалпакскую делегацию возглавлял первый секретарь обкома партии С.Ниетуллаев, которого на границе Каракалпакстана и Хорезмской области встречала первый секретарь Хорезмского обкома партии Р.Худайбергенова. В дружественной обстановке встреча двух близких народов продолжилась в Ургенче большой концертной программой деятелей культуры и искусства Каракалпакстана. Состоялись интересные встречи с преподавателями и студенческими коллективами Хорезмского педагогического института и музыкального училища. Артисты Государственного театра им. К.С.Станиславского представили на суд хорезмских зрителей постановку по пьесе С.Юдакова «Проделки Майсары», а Каракалпакский государственный театр юного зрителя им. С.Ходжаниязова осуществил постановку «Суйинши» по пьесе П.Айтмуратова [4]. В Выставочной галерее г. Ургенча была представлена выставка каракалпакских художников, где хорезмцы могли ознакомиться бытом и жизнью Каракалпакстана в произведениях художников. В успешное проведение этих мероприятий свою лепту внесли и представители художественного искусства. Так, председатель правления Союза художников Каракалпакстана Ж.Изентаев утверждал, что «дружба каракалпакских и хорезмских художников стала давней традицией. И с каждым годом крепнут творческие контакты. Группа мастеров по ганчу из Хорезма активно участвовала в оформлении многих административных зданий в Каракалпакии, в г. Нукусе. Например, на строительстве гостиницы «Ташкент», здания «Каракалпакирсовхозстроя», кафе и ресторанов, выставочного зала и т.д.» [5].

Таким образом, культуре народов Хорезмского оазиса в советский период очень повезло. Она росла на оазисе, простирающемся в центре многовековых этнокультурных и этногенетических процессов. Как свидетельствует история, народы Хорезмского оазиса открыты для восприятия чужого опыта и одновременно готовы делиться собственными ценностями с ближними и дальними соседями. Культура народов Хорезма как бы «проникая» в другую культуру, делает ее богаче и универсальнее, в то же время имела тенденцию саморазвиваться.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Маданият ва санъат кунлари// Хоразм хакикати, 1989, 26 декабр.
2. Архив Управления культуры при Хорезмском областном совете народных депутатов за 1989 год.
3. Государственный архив Хорезмской области. – ф.545, оп.1, д.211, л.5.
4. Архив Министерства культуры Республики Каракалпакстан за 1990 год - д.77, л.1.
5. Изентаев Ж. Сила искусства – в единении народов// Советская Каракалпакия, 1989, 23 декабря.

ЎУК: 9

### ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИДА МИЛЛИЙ ВА УМУМБАШАРИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТАРИХИНИНГ ОМИЛЛАРИ

*М.Т. Тожибоев, т.ф.н., доц., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада таълим-тарбия тизимининг ривожланиш босқичларида миллий ва умумбашарий қадриятлар тарихининг омиллари: одоб-ахлоқ, замонавий инновацион таълимни инсонпарварлаштиришга эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** таълим, тарбия, одоб, ахлоқ, инновация, қадрият, миллий қадрият, умумбашарий қадрият, замонавий таълим, талаба, инсонпарварлаштириши.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются факторы истории национальных и общечеловеческих ценностей на этапах развития системы образования и воспитания: обращается внимание гуманизму современного инновационного образования

**Ключевые слова:** образование, воспитание, воспитанность, нравственность, инновация, ценность, национальная ценность, общечеловеческая ценность, современное образование, студент, гуманизм

**Abstract.** The article deals with the factors of history of national and universal values, in the stage of development system of education and upbringing: attention is paid to humanism of modern innovational education.

**Key words:** education, upbringing, good breeding, morality, innovation, value, national value, universal value, modern education, student, humanism

Мустақиллик таълим-тарбия, одоб-ахлоқ масалаларида туб бурилиш даврини бошлаб берди. Миллий анъаналар, миллий маданият, миллий ва умумбашарий қадриятлар тикланиб, қадларини ростлай бошлади. Тарих, маданият, миллий урф-одатларга эътибор кучайди: «Ўзбекистон тарихи», «Дин тарихи», «Одобнома», «Маънавият асослари», «Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар», «Демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти» каби фанлар ўқитила бошланди. Мазкур фанлар талаба ва ўқувчи-ёшларга миллий ва умумбашарий қадриятлар, ўзбекона одоб-ахлоқ қоидалари, урф-одатлари, удумлар, халқ тарбияшунослиги расм-русумларини ўзлаштиришга илмий-амалий жиҳатдан катта ёрдам берди.

Мустақиллик туфайли шарқлик буюк мутафаккирларнинг илмий-тарихий меросларидан кенг баҳраманд бўлмоқдамиз. Жумладан, «Темур тузуклари», ноёб ва бебаҳо манба «Қуръони Карим» нинг ўзбек тилида чоп этилиши миллий қадриятларни тиклаш ва ривожлантириш йўлида катта воқеа бўлди. Соҳибқирон Амир Темур қадрияти мустамлакачилик йилларида онгимиздан ўчириб ташланган эди. Демак, халққа миллий ўзлигини англаш, унутилган тарихни қайта тиклаш ва мамлакатнинг жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллаши, келгуси авлодларга озод ва обод Ватан қолдириш учун керак. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 29 декабрдаги «Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида» ги қарорига биноан 1996 йилни «Амир Темур йили» деб эълон қилиниши соҳибқирон қадриятини тиклашда муҳим аҳамият касб этди.

Илм-фанга ўқлик, маданият ва маърифатга ташналик, одоб-ахлоқ қоидаларини ҳаётга изчил татбиқ этишга интилиш ва бошқа хислатлар ўзбек халқига ажодлардан ўтиб келаётган анъана ҳамда мерос бўлиб, булар унинг қон-қонига сингиб кетган. Яъни, ушбу фазилятлар ва хислатларни янада ривожлантириб, уларни мустақилликни мустаҳкамлаш ишига хизмат қилдириш тарихий босқичларда изчил тарзда амалга оширилди. Чунончи, халқ таълими тизимидаги чуқур ислохотларга кўра умумтаълим ўқув режалари ва дарсликлар ҳамда ўқув қўлланмаларида ўзбек халқининг бой ўтмиши, маънавий мероси, урф-одатлари ҳамда миллий ва умумбашарий қадриятлар анъаналари ўз ифодасини топа бошлади.

Замонавий таълим маконида юз бераётган ўзгаришлар инновациянинг назарий модели имкониятларини тизим ва ташкиллаштирилган фаолият сифатида таҳлил қилиш имкониятини беради. Шу нуқтаи назардан, таълимнинг стандартлаштириш ғояларининг амалга оширилиши диққатга сазовардир. Биринчи президент Ислоом Каримовнинг «Замонавий таълим жараёнлари ва одамлар тафаккурининг юксалиши барча ўзгаришларни амалга оширишда алоҳида аҳамият касб этишини» таъкидлагани бежиз эмас эди, албатта. Таълим стандартлари таълимнинг демократлашуви ва инсонпарварлашуви, турли хил таълим муассасаларининг пайдо бўлиши, таълим дастурларининг табақалаштирилиши, умумий таълим муассасалари тармоғининг диверсификация қилиниши ва таълим олувчилар “таълим траектория”сининг индивидуаллашуви шароитларида ягона таълим маконини сақлашнинг энг самарали воситаси ҳисобланади.

Инновация тизим сифатида инновацион янгиликни англаш негизида вужудга келади. Ўтган йигирма уч йилни таълим тизимида камида иккита янги қоидани яратувчи асос сифатида қайд этиш мумкин.

*Биринчидан*, таълимнинг мазмунини шахс камол топишининг уч элементи: тажрибани ўзлаштириш, тарбиялаш ва ривожлантиришдан иборат яхлит жараён сифатида тушиниш. Бунда умумий таълимнинг мазмуни уни ташкил қилувчи элементларнинг ўзаро алоқаси билан белгиланадиган яхлит тизим сифатида қаралади.

Умумий таълим мазмунини инвариант-фаол ташкил этиш. Бу элемент аниқ ҳаётий фаолиятда бир-бири билан кесишадиган олти асосий инвариантлардир: билиш, ўзлаштириш, коммуникатив, эстетик, жисмоний ва қадриятларга йўналтиришни ўз ичига олади; умумий таълимнинг мазмунини предметли-структуравий ташкил этиш. Ушбу элемент ўрганилаётган объектнинг умумий тузилиши билан белгиланади ва аниқ воқеликнинг яхлитлиги ҳамда зиддиятлилигини сақлаш имкониятини беради.

Шуни ёдда тутиш керакки, умумий таълимнинг мазмуни юқорида зикр этилган элементларнинг ўзаро алоқаси билан чекланмайди, чунки у «...илмий билимнинг предметли тузилишини ҳам, фаолиятнинг тузилишини ҳам, шахснинг тузилишини ҳам, шахснинг камол топиш мантиқини ҳам ҳисобга олади» [1].

*Иккинчидан*, таълим маконини субъектликнинг намоён бўлиш макони сифатида ташкиллаштириш зарурлигини тушиниш. Ушбу маконда фаолиятни танлаш ва ундан ўз йўлини

ўзи белгилаш демократик маданиятнинг терминал кадрларга кўра эълон қилинаётган жамият тузилиши идеаллари билан мувофиқ келувчи бош омили бўлиб ҳисобланади. Бунда амалда таъминланадиган йўл танлаш имконияти улкан аҳамият касб этади. Чунки, «йўл танлаш, ўз тақдирини ўзи белгилаш эркин инсоннинг нормал, табиий ҳолатидир. Келажак авлод реал йўл танлаш имкониятига эга бўлиши, у ўзи танлаган йўл учун жавоб бериши таълимда ранг-барангликни вужудга келтиради» [2].

Шуни қайд этиш лозимки, таълим маконини ташкил этиш асосларини ўзгартириш заруриятини белгилаган тенденция мамлакат маданиятининг ўзгариш хусусиятлари ва қонуниятлари билан боғлиқдир. Зеро, таълим ҳар қандай мамлакат маданиятининг таркибий қисми ҳисобланади [3]. Бинобарин, таълим инновациялари ўз мазмуни ва тузилиши билан янгиликни яхлидликда ташкиллаштириш шакли, таълим маконининг ягоналигини сақлаб қолувчи таълим жараёнини бошқариш усули сифатида амал қилади ва таълим дастурини талабанинг таълимга оид эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда мустақил тузиш имкониятини беради. Бу инновация ижтимоий механизмнинг тадрижий занжири бўлиб, унда тизимлиликка риоя қилинади. Унинг, айниқса кенг тарқалган образлари педагогик фаолиятда қуйидагича намоён бўлади.

*Биринчидан*, бу таълим тизимини ислоҳ қилишнинг инновацион воситаси саналган намунавий режанинг концептуал ғоясини тушуниш ва уни қабул қилиниши;

*Иккинчидан*, таълим соҳаси таълим жараёнини ташкил этишнинг таъсирчан таркибий ва дидактик бирлигига айланди, у ўзининг классик предметли тузилишини сақлаб қолади. Педагогик воқеликда қўлланиладиган ўқув материални интеграция қилишнинг турли шакллари замирида дунёнинг илмий манзараси мазмунининг яхлитлиги ётади;

*Учинчидан*, Республика олий таълим тизимида ягона таълим дастурини синтезлаш ҳолати кузатилади. Айни вақтда бир қанча фанлардан айрим ўқув дастурларини кучайтириш, мавзуларда учрайдиган такрорлардан воз кечиш тенденцияси кучаймоқда.

Буларнинг барчаси таълим тизимида ўқув жараёнини оптималлаштириш ва унда мавжуд инкирозли ҳолатлардан чиқиш ижтимоий механизмнинг амал қилиш натижаси ва омили ҳисобланади. Тизимнинг барқарорлашувига ва унинг инновацион имкониятлари кучайишига ўзаро боғланган икки омил ўзининг салмоқли ҳиссасини кўшади. Бу ҳақда С.Ашуров, «биринчидан, ижтимоий фанларни ўқитиш таълим маконини лойиҳалашнинг инновацион усуллари билан таъминлашга тайёр эканлиги; иккинчидан, таълим жараёни субъектлари (бошқарув ходимлари, давлат тузилмалари, таълим олувчиларнинг ота-оналари) мавжуд инновацион усуллардан фойдаланишлари мақсадга мувофиқ» [4] деган фикрни билдиради. Инновацион жараёнлар табиатига мазмунан мувофиқ келиш имкониятини берувчи бошқарув маданиятини шакллантиришни тақозо қилади.

Инсонпарварлаштириш унинг амалда бажарилиши, ижтимоий ҳаётга татбиқ этилишидир, жумладан, таълимни инсонпарварлаштириш, иқтисодни инсонпарварлаштириш, фанни инсонпарварлаштириш ва бошқалар. XX асрнинг охиридан бошлаб, аниқроғи, 1984 йилдан ижтимоий ҳаётни инсонпарварлаштиришга алоҳида аҳамият берилди.

Таълим соҳасидаги ислохотлар асосида қатор принциплар мавжуд, жумладан, жамиятдаги барча тарбия кучларининг интеграцияси принципи, дифференциация ва индивидуализация принципи – ҳар бир талабанинг қобилиятини ривожлантириш ва уни тўлиқ намоён этиши учун шароит яратиш принципи, демократизация принципи – талаба ва педагогларнинг ижоди ва ташаббусини, фаоллигини ривожлантириш учун имконият яратиш принципи. Мавжуд принциплар ичида энг муҳими инсонпарварлаштириш принципи саналади ва у қуйидаги муаммоларни ҳал этишни назарда тутди: жамиятнинг ҳар бир талаба шахсига эътиборини кучайтириш; олий интеллектуал, ахлоқий ва жисмоний сифатли фуқарони шакллантиришга йўлланма бериш ва таянч бўлиш.

Шу ўринда таълимни инсонпарварлаштириш аслида нимани назарда тутди? – деган ҳақли савол туғилади. Таълимни инсонпарварлаштириш талабаларни мустақил ҳаётга ва амалий касбий фаолиятга тўлақонли ва қийинчиликларсиз киришларини таъминловчи билим олиш ҳуқуқини ҳурмат қилишни назарда тутди. Бу барча таълим муассасаларини малакали педагог кадрлар билан таъминланиши, ўқув режасидаги барча фанларнинг ўқитилиши ва ўқитилганда ҳам талаб даражасида ўргатилиши, олий ўқув юртлари белгиланган ўринлардан ортиқча талабалар билан тўлиб кетмаслиги, олий ўқув юртларининг моддий-техник ва ахборот таъминоти тўлақонли бўлишини англатади.

Таълимни инсонпарварлаштириш, шунингдек, талабаларнинг ахлоқий-руҳий, жисмоний, интеллектуал хусусиятларини албатта ҳисобга олишни, талабанинг ШАХС сифатида қабул қилинишини ҳамда ҳурмат қилинишини ҳам билдиради. Юқорида таъкидланган хусусиятларни ҳисобга олиш олий мактаб таълим дастурининг мазмуни, олий ўқув юртларида моддий шароит ва илиқ ахлоқий-психологик иқлимнинг яратилганлиги орқали, профессор-ўқитувчиларнинг касбий маҳорати, олий ўқув юртлари бошқарувининг талабалар учун инсонпарвар фаолият шароитини яратишга қаратилган тизими орқали амалга оширилади. Бунда қуйидаги шартни албатта эсда тутиш зарур: агар педагогнинг ўзи эркин бўлмаса, ижодий шахс бўлмаса, у ҳолда талабани инсонпарвар, эркин, ижодий шахс этиб шакллантириб бўлмайди. Бундан дастлаб педагог-ўқитувчи шахсини, унинг фаолият шароитларини инсонпарварлаштириш зарур, – деган хулосага келамиз.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Леднев В.С. Содержание образования: сущность, структура, перспективы. – Москва: Луч, 1991. – С.111.
2. Адамский А.И. Управление развитием. – Москва: АСТ, 1997. – С. 78.
3. Каримов М.М. Таълим инновациялари//Фалсафа, фан, таълим. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: Ношир. 2010. – Б. 4.
4. Ашуров С. Давлат таълим стандартлари назария ва амалиёт. – Низомий номидаги ТДПИ, 1997. – Б.132.

ЎУК: 94(47)

### БОЖ ТАРИФЛАРИ ВА XIX АСРДА РОССИЯНИНГ ТАШҚИ САВДО СИЁСАТИ

*А.Г. Холлиев, т.ф.н., доцент, Ўзбекистон Миллий Университети, Тошкент*

**Аннотация.** XIX асрда Россия ташқи савдо сиёсати ривожланишининг асосий босқичлари ва йўналишлари ушбу мақолада кўриб чиқилди. Асосий эътибор кўриб чиқилаётган тарихий даврда Россия давлатида жорий қилинган бож тарифларини таҳлил қилишга қаратилган.

**Калит сўзлар:** Ташқи савдо сиёсати, Россия, бож тарифлари, савдо, экспорт, импорт, фритредчилик, протекционизм.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются основные этапы и направления развития внешнеторговой политики России в XIX веке. Основное внимание уделено анализу таможенных тарифов, введённых в российском государстве в рассматриваемом историческом периоде.

**Ключевые слова:** Внешнеторговая политика, Россия, таможенные тарифы, торговля, экспорт, импорт, фритредерство, протекционизм

**Abstract.** The basic stages and directions of the development of foreign trade policy of Russia in the XIX century are considered in given article. The main attention is paid to the analysis of customs tariffs introduced in the Russian state in the considered historical period.

**Key words:** foreign trade policy, Russia, customs tariffs, trade, export, import, free trade, protectionism

XIX аср боши қарама - қаршилиқлар ва кескин тўқнашувлар билан ажралиб турди. Саноат инқилоби халқаро савдо параметрларини тубдан ўзгартириб юборди.

XIX асрнинг биринчи ярмида Россияда саноатнинг янги усулини шакллантириш суръатлари ўсди, машинасозлик ривожланди, товар-пул муносабатларининг қамров доираси кенгайди ва иқтисодиётдаги роли ошиб борди.

XIX асрнинг биринчи чорагида мамлакат иқтисодиёти ва ташқи савдо алоқалари Россия бошидан кечирган урушларнинг доимий таъсири остида бўлди.

Юзага келган шароитда хорижий кредитларни олишга умид қилиб бўлмасди. Маблағ манбаларини мамлакат ичкарасида излаш керак эди, шу жумладан улар орасига ташқи савдодан келадиган даромадлар ҳам кирганди.

Шу муносабат билан Россиянинг ташқи савдо сиёсати доимий равишда фритредчиликдан (эркин савдо тамойилидан) протекционизмга ва аксинча ўзгариб турди.

1801 йил март ойида Александр I-нинг (1777-1825) тахтга ўтириши рус жамияти томонидан катта умидлар билан кутиб олинди. Ҳукуматнинг янги сиёсати Россиянинг иқтисодий ривожланиш муаммоларига ҳам таъсир кўрсатди. Ташқи савдода 1797 йилги бож тарифига амал қилишга қарор қилинди.

Таъкидлаш керакки, 1797 йилда ҳам мустамлакалардан келтириладиган товарларига, ҳам саноат маҳсулотларининг кўпгина турларига ва ярим тайёр маҳсулотларга импорт божлари

оширилди. Ўша вақтда Россия савдосида иштирок этган чет эллик савдогарлар учун ушбу юқори бож тўсиқларини енгиб ўтишнинг икки йўли мавжуд бўлганди: улар савдо имтиёзларини сақлаб қолиш учун ўз мамлакатлари ҳукумати билан ҳамкорлик қилишга ҳаракат қилишлари ёки тижорат имтиёзларидан фойдаланиш учун Россия фуқаролигини қабул қилишлари мумкин эди. Россия империяси субъектлари томонидан берилган имтиёзлар [7: 47-48].

1801 йил 2-апрелдаги Александр I-нинг манифести эркин савдони эълон қилди ва рус савдогарларига товарларни чет элга экспорт қилиш учун кенг имконият очиб берди.

Эркин ташқи савдо сиёсати баъзи доираларда норозиликни келтириб чиқарди. Унинг мафкурачилари (Н.С.Мордвинов, Н.П.Румянцев ва М.М.Сперанский) шунга амин эдики, Россия хорижий саноат билан рақобатлашишга тайёр эмас ва шунинг учун эркин савдо сиёсати барвақтдир.

Н.П.Румянцев Александр I-га Россиянинг ташқи савдосини ривожлантириш дастурини таклиф қилди. Румянцев раҳбарлигида 1803 йилда импорт учун пасайтирилган тариф ишлаб чиқилган бўлиб, у хорижий давлатлар билан савдо қилган савдогарлар учун фойдали эди. Румянцев "миллий савдо тизими"-ни тарғиб қилди ва чет эллик савдогарлар учун бериладиган имтиёзларга нисбатан салбий муносабатда бўлди [5].

Н.П.Румянцев раҳбарлигида экспорт эркинлигини ва нон импортини чеклашни таъминлайдиган янги бож тарифини ишлаб чиқиш бошланди. Аммо унинг ниятлари рўёбга чиқмади. Россиянинг XIX асрнинг биринчи ўн йиллигидаги доимий урушларда ва 1812 йил урушида иштирок этиши ҳарбий харажатларнинг жуда кўпайишига, мамлакатнинг иқтисодий аҳволининг ёмонлашишига олиб келди, ва Румянцев дастурини амалга ошириш тўхтатилди.

Наполеон устидан қозонилган ғалабадан сўнг Вена конгрессида (1814-1815), Александр I ташаббуси билан, халқаро савдо тўғрисидаги битимни ишлаб чиқиш қарори қабул қилинди. 1815 йил апрель ойида Россия, Австрия ва Пруссия вакиллари Варшавада тўпланишди. Музокаралар давомида Австрия ва Пруссия Польша ва Россияга амалга оширадиган импорти учун имтиёзларни талаб қилишди. Бошқача қилиб айтганда, улар 1810 йилги протекционистик тарифни фритредчилик тавсифига эга янги тарифга алмаштиришни талаб қилишди. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспортчилари ва импорт туфайли кириб келган зеб-зийнат товарларни истеъмол қилувчиларининг босими натижасида протекционистик тариф ўрнига янги, "енгилроқ" тариф жорий қилинди. 1816 йил 31 мартда Молия вазири Гурьевнинг фаол иштирокида жорий этилган ушбу тариф савдо - саноат ва молиявий манфаатларини ҳисобга олди, аммо темир ва тўқимачилик маҳсулотларини олиб киришни тақиқлаш тўғрисидаги қондан сақлаб қолди; Европа (асосан француз) товарларини олиб киришга 1810 йилда қўйилган тақиқларнинг ярми бекор қилинди. Аммо, шунга қарамай, 1816 йилдаги "енгилроқ" тариф ҳам, уч йил ўтгач, Вена келишувига мувофиқ ҳолда, 1819 йил ноябрда қабул қилинган бошқа тариф билан алмаштирилди. 1819 йилдаги тариф барча импорт товарларга қўйиладиган тақиқларни деярли олиб ташлади [7:50].

Россия ҳукуматининг фритредчилик сиёсати натижасида ташқи савдо айланмасининг йиллик ҳажми тез суръатлар билан ўса бошлади. Шу билан бирга, эркин савдо сиёсати Россия саноатида инқирозга олиб келди. Рақобатга бардош бера олмайдиган кўплаб фабрикалар банкротликка учради.

1819 йилги тариф саноат доираларида норозиликни келтириб чиқарди, чунки Россияга товарларни олиб киришда минимал божлар ўрнатилди (2 фоиздан 15 фоизгача).

Либерал тарифнинг киритилиши эркин савдо тарафдорларининг ғалабасини англатди ва Россияга товарлар импортининг ўсишига ёрдам берди.

Протекционизм ғоялари Н.С. Мордвинов томонидан тўла-тўқис билдирилган. Н.С.Мордвинов Россиянинг протекционистик саноат сиёсатига муҳтожлигига амин эди. Шу сабабдан у заиф Россия саноатини юқори бож тарифлари орқали хорижий рақобатдан ҳимоя қилиш зарур деб ҳисобларди.

Эркин савдо сиёсати Россия империяси Давлат Кенгашида протекционизм тарафдорлари томонидан қаттиқ танқид қилинди. Шу сабабдан ва саноатчилар босими остида ҳукумат бож сиёсатини ўзгартириш зарурлигини тан олишга ва Россиянинг миллий манфаатларига мос келадиган протекционистик йўналишга қайтишга мажбур бўлди.

Янги бож тарифи 1822 йилда қабул қилинди. Ушбу ҳужжатда протекционистик ташқи иқтисодий сиёсатнинг асосий мазмуни баён қилинди. Улар қуйидагилардан иборат эди: а) мамлакатда ишлаб чиқарилмайдиган, лекин у бўлмаса иложини қилиб бўлмайдиган, хорижий

хом ашё ва озиқ-овқат маҳсулотлари бож тўловларидан озод қилинади; б) вақт ўтиши билан Россияда ишлаб чиқарилиши мумкин бўлган зарур товарларга ўртача бож тўланади; в) зебзийнат товарларга, ишлаб чиқариладиган мануфактура маҳсулотларнинг айрим турларига, шунингдек Россиянинг ўзида интенсив ҳомийлик билан ишлаб чиқарилиши мумкин бўлган маҳсулотларга юқори божлар солинади; г) Россия саноати билан рақобатлаша оладиган товарларни олиб кириш тақиқланади. Умуман олганда, тарифга кўра 21 та маҳсулотни экспорт қилиш ва 301 турдаги маҳсулотларни, шу жумладан зиғир толасидан тўқилган матолар ва ундан қиммат матолар, мис буюмлар, темир, шиша, сопол буюмлар ва бошқаларни олиб кириш тақиқланди.

Янги бож тарифининг қоидалари XIX асрнинг иккинчи чорагида Россиянинг ташқи савдо сиёсатини шакллантиришнинг бошланғич нуқтаси бўлди. Унинг амалга оширилиши Е.Ф. Канкрин (1823-1844 йилларда молия вазири) номи билан бевосита боғлиқ эди.

Е.Ф. Канкрин томонидан ўтказилган мўътадил протекционизм сиёсати эркин савдо тенденцияларига йўл қўймади ва ташқи савдони кенгайтиришга, шунингдек саноат ўсишини ҳимоя қилишга қаратилган эди. 1825 йилдан 1850 йилгача чет эл товарларининг импорти пул билан саналганда икки баравар кўпайди. Россиянинг ташқи савдо баланси ижобий кўриниш касб этди. Импорт қилинадиган товарларга бож тўловлари Россияда йирик саноат ривожланишининг сабабларидан бири эди. Шу нуқтаи назардан, XIX асрнинг иккинчи чорагидаги мўътадил протекционизм прогрессив ходиса эди.

Мўътадил протекционизм сиёсати XIX асрнинг ўрталарига қадар давом этди.

Е.Ф. Канкриннинг 1844 йилда молия вазири лавозимидан кетганидан кейин савдо-бож сиёсатини экспорт божларини бекор қилиш ва импорт божларини камайтириш томон қайта кўриб чиқиш даври бошланди. Иқтисодий либерализм ва фритредчилик яна жаҳон ташқи иқтисодий алоқалари амалиётига кирди.

Жаҳон бозорига маҳкам боғланган Россия эркин савдо тенденциялари тарқалиши билан, бу жараёндан четда қолмади. Ҳам россиялик, ҳам чет эллик савдогарлар юқори божларни бекор қилишни ёқлаб чиқдилар. Уларни ер эгалари ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилувчилар қўллаб-қувватладилар. Янги ҳаракатнинг мафкураси либерал қарашлари билан танилган йирик рус иқтисодчиси ва статистикачиси, давлат арбоби Людвиг Валерианович Тенгоборский (1793-1857) эди.

Россия Бож қўмитасининг раиси сифатида Тенгоборский 1850 йил 13 октябрда тасдиқланган янги бож тарифининг тузувчиси бўлди. Тарифга мувофиқ кўплаб экспорт божлари бекор қилинди ва саноат учун импорт қилинадиган хом ашё божлари камайтирилди. Тариф 725 та маҳсулот бўйича божларни камайтирди, 89 та тақиқланган товарларнинг 76 тасининг импорти рухсат этилди [5].

Либерал характерга эга 1850 йилдаги тариф 1822 йилдан буён амалда бўлган мўътадил протекционистик ташқи савдо сиёсатидан 1877 йилгача давом этган эркин савдо босқичига ўтишни англатди.

Россиянинг эркин савдо тенденциялари кейинги савдо бож тарифларида, шу жумладан, 1854 йили Қрим уруши даврида, ташқи савдо кескин пасайган пайтда қабул қилинган тарифда мустаҳкамланди. У тўловларни пасайтирди ва тақиқланган товарлар сонини камайтирди.

1857 йилда божхона низоми қабул қилиндики, унга мувофиқ импортга тақиқ қисман бекор қилинди ва тарифлар сезиларли даражада пасайтирилди. 1864 йилда барча экспорт чекловлари олиб ташланди [7:51].

1861 йилдаги Деҳқонлар ислоҳоти ва Александр II-нинг бошқа ислоҳотлари Россияда узок вақт давомида иқтисодий қайта қуриш даврини очиб берди.

Россия иқтисодиётининг, биринчи навбатда саноатнинг жадал ривожланиши шароитида, дунёнинг кўплаб мамлакатлари у билан интенсив иқтисодий алоқаларни сақлаб туришди. Россия ташқи савдосининг ривожланиши жуда нотекис эди. Унинг айланмасига иқтисодий инқирозлар, ҳосилнинг ҳажми, урушлар, ҳукумат бож сиёсатининг ҳимояси остига олувчи хусусияти, рақобатнинг кучайиши ва бошқа омиллар таъсир кўрсатди. 60-70-йилларда Россия импорти экспортдан устун эди. Айнан шу даврда XIX асрнинг иккинчи ярмидаги энг мўътадил тарифи - 1868 йилги тариф қабул қилинди ва қўлланилди.

80-йилларда - иқтисодий ривожланишнинг нисбий пасайиши ва Россия ҳукуматининг савдо сиёсатидаги протекционистик тенденцияларнинг кучайиши даврида - импорт камайиб кетди.



60-йилларнинг охири - XIX асрнинг 80-йиллари бошларида Европада бож сиёсатида ҳомийлик қилиш йўналиши устунлик қилди. 70-йилларнинг ўрталарида Россия кучайтирилган протекционизм сиёсатига ўтди. Ислохотдан кейинги давр протекционистик тизимнинг босқичма-босқич мустаҳкамланиши билан тавсифланди: импорт қилинадиган товарларга бож тўловлари оширилди.

Шундай қилиб, 1857-1868 йилларда импорт қилинган товарлар қиймати бўйича бож миқдори 17,6% ни, 1869-1876 йилларда 12,7% ни ташкил этди; 1881-1884 йилларда - 18,7%; 1885-1890 йилларда 28,3%; 1891-1900 йилларда 33% [5].

1877 йилдан бошлаб божлар олтин валютада олина бошланди. Бу тарифларнинг 30-50% ўсишига олиб келди [4: 117].

Россиянинг бож сиёсатида давлат даромадларини қўпайтириш истаги билан солиқ-бюджет манфаатлари устун келди. 1877 йилдан кейин бож тўловлари давлат хазинасига тушадиган даромадларни қўпайтириш ва айрим саноат тармоқларига ҳомийлик қилиш мақсадида қайта-қайта оширилди.

Россия бож тарифлари саноат эҳтиёжларига қараганда кўпроқ давлат даромадлари эҳтиёжлари билан белгиланди. Алоҳида тармоқларнинг манфаатларини илгари сурадиган махсус тарифлар йўқ эди [3:39].

1877-1892 йилларда мамлакатга олиб кириладиган товарлар қийматига нисбатан импорт божлари даражаси 14,7% дан 32,7% гача кўтарилди [6: 104].

Ислохотдан кейинги даврда Россия 28 та мамлакат билан давлатнинг бож сиёсати томонидан тартибга солинган ташқи савдо алоқаларини сақлаб турди. Бироқ, бож солиқлари масалаларида саноат, савдогарлар ва ер эгаларининг манфаатлари ҳар доим ҳам мос келавермади.

Айниқса 1870 йилларнинг охиридан бошлаб бож сиёсатининг кескинлашиши ва ҳукуматнинг фаол савдо балансига эришиш истаги, бир томондан, Россиянинг саноат ривожланиши жараёнига ижобий таъсир кўрсатди. Кўмир ва темир рудаларини қазиб олиш, темир, пўлат ва темир ишлаб чиқариш ўсди. Бошқа томондан, бундай сиёсат ташқи савдони чеклаб қўйди, мамлакатга илғор технологиялар, машина ва жиҳозларнинг кириб келиш оқимини чеклади.

Юқори божлар Россияга чет эл товарларини олиб киришга тўсқинлик қилди, аммо капитал импортини чекламади. Россия ҳукумати божхона масалаларини хорижий саноат сармоядорларнинг манфаатларини ҳисобга олган ҳолда ҳал қилди. И.А.Вишнеградский 1886 йил декабрь ойида, молия вазири лавозимига тайинланишидан олдин, Александр III-га кичик хат билан мурожаат қилдики, унда Россия саноатига чет эл инвестициялари оқими таъминланган тақдирдагина протекционистик бож сиёсати самарали бўлиши мумкинлиги таъкидланганди. И.А. Вишнеградский муҳофаза бож тизимидан доимий ҳомийлик тизимига ўтиш ғоясининг асосий ўтказувчиси бўлди.

XIX асрнинг иккинчи ярмида протекционистик сиёсатнинг Россия саноати ва савдосига киритилган хорижий инвестициялар динамикасига нисбатан кўрсатган рағбатлантирувчи таъсири аниқ намоён бўлди. Россияда ишлаб чиқариш бўлинмаларини ташкил этиш соҳасида хорижий ишбилармонларнинг фаоллиги кўп жиҳатдан саноат маҳсулотларига тарифларнинг ошиши билан боғлиқ бўлди.

Чет эл капитали импорти энг юқори божга тортилган товарларни Россияда ишлаб чиқариш бўйича ўз корхоналарининг филиалларини ташкил қилиш орқали бож тўсиқларини айланиб ўтишга интилди.

Сергей Юльевич Витте (1849-1915) - 1892 йил августидан 1903 йил августигача молия вазири, 1905-1906 йилларда Вазирлар Кенгаши раиси - Россиянинг хорижий давлатлар билан хилма-хил иқтисодий алоқаларини мустаҳкамлашнинг чинакам тарафдори бўлди. XIX асрнинг сўнгги ўн йиллиги ва XX аср бошида Россия иқтисодий ривожланишининг деярли барча йўналишлари унинг номи билан боғлиқдир.

С.Ю. Витте Россия учун иқтисодий ривожланишнинг умумий дастурини ишлаб чиқди. Ушбу дастурнинг таркибий қисмлари қуйидагилардан иборат бўлди: пул ислохоти, бож сиёсати, ташқи савдо, ташқи заёмлар, чет эл инвестициялари иштирокидаги саноат ва темир йўл қурилиши, транспорт ва алоқа, иқтисодий соҳани ҳукуқий тартибга солиш, тижорат таълими тизимини такомиллаштириш, Ғарбий ва Шарқ мамлакатлари билан иқтисодий алоқаларни ривожлантириш.

XIX асрнинг 90-йиллари бошларига келиб Россия ва Германия ўртасида мустақкам иқтисодий алоқалар мавжуд эди. Германия экспортчилари учун Россия бозори жуда истиқболли бўлиб кўринарди; ўз навбатида, Германия Россия товарлари сотиладиган ўта аҳамиятли бозор бўлди. Россия экспортнинг тўртдан бир қисми Германияга тўғри келди. Россия экспорт қиладиган товарларнинг энг катта истеъмолчилари орасида Германия 1880-1890 йилларда иккинчи ўринни, 1891-1892 йилларда эса биринчи ўринни эгаллади. Агар импортчи сифатида Германия икки энг йирик шериклардан бири бўлса, Россия бозорига товар етказиб берувчи сифатида у шубҳасиз етакчи мавқени эгаллади. Россия, шунингдек, Германия савдосида етакчи ўринлардан бирини эгаллади. 80-90 йиллар чегарасида Германия импортнинг қарийб 13% ва Германиядан экспорт қилинадиган товарларнинг 6% Россия ҳиссасига тўғри келди. XIX асрнинг 90-йиллари бошида Россия Германия савдосида Англия, АҚШ ва Австрия-Венгриядан кейин тўртинчи ўринни эгаллади. Германия билан савдо-сотиқ Россия ташқи савдосининг таркибини белгилайдиган энг муҳим таркибий қисмлардан бири эди.

Россия ва Германия ўртасидаги кенг, узоқ муддатли ва барқарор савдо алоқалари мавжуд бўлиб, уларнинг аҳамиятини томонларнинг ҳар бири яхши тушунган - буларнинг барчаси ўзаро манфаатли муносабатларни сақлаб қолишга ёрдам беради деб туюларди. Бироқ, савдо, маълумки, нафақат бирлаштиради, балки рақобат асосида қарама-қаршиликларни келтириб чиқаради. Россия-Германия тижорат муносабатларида иккала тенденция ҳам намоён бўлди.

Германия ҳукумати уч марта (1879, 1885 ва 1887 йилларда) нонга божларни оширди. Россия донининг Германияга экспорти пасайишни бошлади [2:10].

80-йилларнинг бошларида Россия томонидан божнинг дастлабки миқдоридан 100% га тўрт марта ошиши Германиядан товарлар импортнинг қисқаришига ва савдо балансининг Россия фойдасига ошишига олиб келди. 1884-1885 йилларда металл (куйма темир, темир, пўлат) ва ундан ишлаб чиқарилган саноат маҳсулотларига божлар оширилди. 1887 йилда Россияга чўян олиб кириш тақиқланди. Кўрилган чоралар Германия экспортига сезиларли зарба берди.

1891 йилда Россияда янги бож тарифи қабул қилинди. Бу нафақат 80-йиллардаги барча бож тўловларини умумлаштирди, балки уларни янада оширди. Янги тарифга мувофиқ бож миқдори импорт қилинадиган товарлар қийматининг 33 фоизини ташкил этди.

Тарифни тайёрлашда Россия ҳукумати ўзининг асосий савдо шериклари, биринчи навбатда Европа мамлакатларининг позициялари билан ҳисоблашишга мажбур бўлди. Масалан, Франция ҳукумати билан музокаралар анча мураккаб кечди. Ён беришлар натижасида конвенциялар имзоланди. Конвенцион ставкаларнинг пасайиши Россия тарифининг 51 моддасида кузатилди. Конвенциялар Европанинг барча мамлакатлари билан тузилмаганлигини ҳисобга олсак, жуда юқори божлари туфайли баъзи европа товарларини Россияга импорт қилиш амалий жиҳатдан фойдасиз бўлиб қолди. Айниқса ноқулай шароитларга Германия тушиб қолди [8: 115].

Германия, ўз навбатида, 22 та давлат билан, шу жумладан, нонни сотиш соҳасида Россия рақобатчилари билан савдо битимларини имзолади. Натижада, Россия Германия бозоридан деярли чиқариб юборилди. Бундай шароитда Россия ҳукумати 1892 йилда Германияга божларни ўзаро камайтиришни таклиф қилди. Олти ой давом этган музокаралардан сўнг Германия ҳукумати рад жавобини берди.

“Савдо уруши”нинг кескинлашиши шароитида Витте ташаббуси билан “максимал” тариф деб номланган “параллел” бож тарифи тайёрланди. Унинг ставкалари 1891 йилдаги “минимал” тарифдан 20-30%-га юқори эди. Германия бунга жавобан бож тўловларини 50%-га оширди. 1893 йилда Германия ҳукумати рус нонига бож тўловини киритдики, у АҚШдан олиб келинадиган дон маҳсулотларига нисбатан икки бараваридан кўпроқ эди. Россия-Германия савдоси фалаж ҳолатга келди.

“Савдо уруши” нафақат савдо соҳасини, балки икки давлат ўртасидаги муносабатларнинг бошқа соҳаларини ҳам қамраб олди.

Савдо уруши на Россия, на Германия учун фойда келтирди. Бундай шароитда 1893 йил октябрь ойида Берлинда савдо масалалари бўйича музокаралар бошланди. Ўзаро муроасага келиш натижасида 1894 йил февраль ойида икки давлат ўртасида савдо ва юк ташиш тўғрисида 10 йиллик конвенция шартномаси имзоланди. Энг юқори даражадаги ратификациядан сўнг шартнома 1894 йил 8 (20) март куни кучга кирди [8: 115].

Савдо уруши объектив иқтисодий қонунлар давлатлараро сиёсат билан чамбарчас боғлиқлигини ва унда ўз давомини топишини тасдиқлади.

С.Ю.Витте, молия вазири бўлиб, доимий равишда Александр III, кейин эса Николай II-нинг эътиборини рус ишлаб чиқарувчиларини ҳимоя қилиш мақсадида божларни тартибга солиш орқали ташқи савдони такомиллаштириш зарурлигига қаратди. Витте олиб борган бож сиёсати Россия саноатини рағбатлантиришга қаратилган эди. Витте 1891 йилги тарифни сақлаб қолиш тарафдори бўлди [1:23].

“Савдо уруши” тугаганидан кейин Россияда асосий саноат товарларига нисбатан қўлланиладиган божлар ривожланган мамлакатларникидан юқори бўлди.

Дастлаб Россия ва Германия ўртасидаги савдо-сотик муносабатларида татбиқ этилган 1894 йилги Конвенция тарифи шартномалар тузиш бўйича кенгроқ жараёни бошлаб берди. 1894 йилдаги тариф ставкалари кейинчалик Европанинг аксарият давлатлари ва АҚШга нисбатан қўлланилди.

Виттенинг ташқи савдо сиёсати нуфузли заминдор дворянларнинг фаол қаршилигини келтириб чиқарди. Саноат тадбиркорлигига нисбатан олиб борилган бож ҳомийлиги тизими биринчи бўлиб маломатлар остида қолди.

1896 йилда Николай II-нинг тож кийиш маросимига етиб келган губерния дворянларининг (зодагонларининг) раҳбарлари унга ҳимоя бож тарифларини бекор қилиш ёки юмшатишни талаб қилган хатни топширдилар. Уларнинг босими остида император бу масалаларни кўриб чиқиш учун дворянлар ишлари бўйича Махсус кенгаш ташкил этишни буюрди.

С.Ю. Витте рақибларнинг чақириғини қабул қилди. У Нижний Новгород Бутунроссия кўрғазмасининг ташкилотчиларидан бири бўлди.

Кўрғазма Николай II тахтга ўтирганидан кўп ўтмай, 1896 йил 28 майда очилди. 17-20 июнь кунлари кўрғазмага Николай II ташриф буюрди. Витте ҳамроҳлигида у павильонларни айланиб чиқди ва экспозициядаги саноат экспонатларини батафсил кўриб чиқди. Императорнинг кўрғазмага ташрифи ҳам Виттенинг обрўсини оширишга, шунингдек, рус ишлаб чиқарувчиларини қўллаб-қувватлашга қаратилган бож сиёсатига ёрдам берди. Россиянинг иқтисодий қудратини кучайтириш учун Николай II рус саноатининг ривожланишига ёрдам беришга қаратилган Виттенинг сиёсатини қўллаб-қувватлашни зарур деб ҳисоблади ва зодагонларнинг бож протекционизмидан воз кечиш ҳақидаги талабини қабул қилмади.

1897 йил учун бюджет ҳисоботида, Витте протекционизм сиёсатини ҳимоя қилишни давом эттирди. Виттенинг бож сиёсати амалга оширилганлиги сабабли, Россия хазинасининг божлардан олинадиган даромади 1860 йилда - 49,9 миллион, 1880 йилда - 104,9 миллион, 1890 йилда - 126,5 миллион ва 1900 йилда - 209,7 миллион рублни ташкил этди [5].

Шундай қилиб, XIX аср давомида Россия ҳукуматининг бож сиёсати бир неча бор ўзгарган, бу ҳам сиёсий нуктаи назардан, ҳам ташқи савдо манфаатларидан келиб чиққан.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ананьич Б.В. Россия и международный капитал. 1897-1914. Очерки истории финансовых отношений. – Л.: Наука, 1970.
2. Бовькин В.И. Очерки внешней политики России. Конец XIX – 1917. –М., 1960.
3. Грегори П. Экономический рост Российской империи (конец XIX - начало XX в.): Новые подсчеты и оценки. - М.: РОССПЭН, 2003.
4. Зивекинг Г. Внешняя торговая политика. – СПб., 1908.
5. Ионичев Н. П. Внешние экономические связи России (IX – начало XX века. – М.: Аспект-Пресс, 2001. Гл. 5,6.
6. Китанина Т.М. Хлебная торговля России в 1875-1914 гг. (Очерки правительственной политики). – Л., 1978.
7. Томпстон С.Р. Российская внешняя торговля XIX – начала XX в.: организация и финансирование. –М.: РОССПЭН, 2008.
8. Шкунов В.Н. Государственно-правовое регулирование внешней торговли Российской империи в XVIII-XIX веках. – Саратов: Ай Пи Эр Медиа, 2018.

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

O'UK 81'282

**XORAZM SHEVASIDAGI UMUMTURKIY SO'ZLAR TAHLILI***N.Sh. Ahmedova, f.f.n., dots., Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Tashkent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilining o'g'uz lahjasida gaplashuvchi Xorazm shevasidagi hozirgi turk tili bilan bir xil ishlatiladigan so'zlari etimologik tahlil qilingan. So'zlar ma'nosiga ko'ra bir xil ma'noda ishlatiluvchi va ma'nosi o'zgarishga uchragan, shakliga ko'ra bir xil shaklda ishlatiluvchi va fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarga ajratilib tavsiflangan.

**Kalit so'zlar:** turkiy tillar, qadimgi turkiy til, til tarixi, tarixiy manbalar, adabiy til, o'g'uz lahjasi, sheva so'zlari, etimologik tahlil, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, fonetik o'zgarish.

**Аннотация.** В этой статье сделан этимологический анализ слов из огузского наречия хорезмского диалекта узбекского языка, которые одинаково используются в современных тюркских языках. Они разделены на нижеследующие части: слова с одинаковыми значениями; слова с изменёнными смыслами, но одинаковые по форме; слова, которые подверглись фонетической вариации.

**Ключевые слова:** общетюркские слова, древнетюркский язык, история языка, исторические источники, литературный язык, огузское наречие, диалектные слова, этимологический анализ, расширение смысла, сужение смысла, фонетические вариации.

**Abstract.** This article makes an etymological analysis of words from the Khorezm dialect of the Uzbek language, which are equally used in modern Turkish. They are divided into three parts: words with the same meanings; words with altered meanings, but identical in form; words that have undergone phonetic variation.

**Keywords:** Turkic words, ancient Turkic language, history of language, historical sources, literary language, oguz dialect, dialect words, etymological analysis, expansion of meaning, narrowing of meaning, phonetic variations.

O'zbek tili turkiy tillar ichida ko'p lahjaliligi bilan ajralib turadigan, shevalari bir-biridan keskin farqlanadigan tillardan biridir. O'zbek tili qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga mansub shakllarga ega bo'lib, asosan o'g'uz lahjasiga kiruvchi Xorazm shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga ko'ra farq qiladi. O'zbek shevalarining leksikasini o'rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xorazm shevasi ikkita: qipchoq va o'g'uz lahjalariga mansub bo'lib, shundan o'g'uz lahjasi Xiva, Xonqa, Shovot, Hozarasp, G'azovot, Urganch singari shevalarni qamrab oladi. Biz ushbu maqolada Xorazm shevasiga mansub, adabiy tilda mavjud bo'lmagan, hozirgi turk tilida esa ishlatiladigan so'zlar, ya'ni umumturkiy so'zlar tarixi va tahliliga e'tibor qaratdik.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lmagan, shevada ishlatiladigan umumturkiy so'zlarni ma'nosiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Bir xil ma'noda ishlatiluvchi so'zlar. Bunday so'zlar turk tili va Xorazm shevasi o'g'uz lahjasida aynan bir xil tushuncha ifodalashga xizmat qiladi: *qarınza, dāji, čāvaq, kirpi, qapi*.
2. Ma'nosi o'zgarishga uchragan so'zlar. Bunday so'zlar turk tilida ifodalaydigan ma'nosi Xorazm shevasida ifodalaydigan ma'nosi bilan o'zaro farqlanadi: *baldiz, jağış, ũgrä / ũ:rä*.

Qavm-qarindoshlik so'zlaridan *dāji* shakli Xorazm shevasida farzandga nisbatan "onaning akasi yoki ukasi" ma'nosida ishlatiladi. O'zbek tilining boshqa lahjalarida esa uchramaydi. Turk tilida ham *dayı* so'zi ayni shu ma'noda faol qo'llanadi. Bu so'z turkiy tillarda turli fonetik o'zgarishli shakllarda mavjud bo'lib, fors tiliga turkiy tillardan o'zlashgan. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga ko'ra bu so'z qadimgi turkiy tilda *tay – ona, og'a – aka* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan: *tay + og'a – tayog'a – tag'a* [1, 352]. Mahmud Koshg'ariy asarida bu so'z *tag'ay* shaklida beriladi. Ozarbayjon va turkman tillarida ham bu so'z ayni shaklda ishlatiladi. Ko'rinadiki, har ikkala leksema ham umumturkiy so'z hisoblanadi.

Mahmud Koshg'ariy devonida *čāvaq* - "mayda baliq" ma'nosida keltirilgan so'z Xorazm shevasida *chavak* shaklida "mayda baliq" ma'nosida ishlatilib, turk tilida esa *chapak* ko'rinishida qo'llaniladi. Undan tashqari, ozarbayjon va turkman tillarida baliqning bir turi, qirg'iz, qozoq, boshqird, tatar tillarida esa bu so'z "kichik baliq" ma'nosida ishlatilishi, ruscha *chabak* so'zi turkchadan o'zlashgani aytib o'tiladi.

Xorazm shevasida *tipratikon* soʻzi oʻrnida *kirpi* soʻzi ishlatilib, bu soʻz turk tilida ham ayni maʼnoda qoʻllaniladi. Turk tilining etimologik lugʻatida bu soʻz turkman, tatar, boshqird, qozoq, qoraqalpoq, hattoki fors tilida ham mavjudligi aytib oʻtiladi [2, 246]. Mahmud Koshgʻariy davrida ham bu soʻz isteʼmolda boʻlgan: *kirpi – tipratikon, kirpi; oqlugʻ kirpi* – tipratikonning juda katta xili [3, 167]. Oʻzbek tilining etimologik lugʻatida *kirpi* soʻzi qadimgi turkiy tilda mavjudligi, hozirda sheva soʻzi ekani, *kirpi* – koʻp tikan maʼnosini bildirishi aytib oʻtiladi [1, 210].

*Baldiz* soʻzi qadimiy qavm-qarindoshlik terminlaridan boʻlib, “xotininging singlisi” maʼnosida ishlatilishi aytiladi. Hozirgi turkman tilida *balliz*, qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq tillarida *baldiz* kabi variantlari mavjud. Xorazm shevasida *baldiz* soʻzi “erining qiz ukasi” [4, 25] maʼnosida ishlatiladi. Qirgʻiz tilida esa “xotininging singlisi, opasi” maʼnosida qoʻllaniladi. Qoraqalpoq tilida xotininging singlisi va uning kichik yoshdagi ayol qarindoshlari shuningdek, qayininisi maʼnosida ham ishlatiladi [5, 122]. “Devonu lugʻoti-t-turk”da “xotinninging singlisi” maʼnosini bildirishi, erining singlisiga *baldiz* deyilmasligi, singil deyilishi aytiladi [3, 182]. Vaqtlar oʻtishi bilan bu soʻz semantikasida siljish roʻy berib, hozirda Xorazm shevasida “erining qiz singlisi” maʼnosida ishlatilayotganini kuzatish mumkin.

Hozirgi turk tilida *yağış* soʻzi yogʻingarchilik maʼnosida – barcha yogʻin turiga nisbatan ishlatilsa, oʻgʻuz lahjasida “yomgʻir” maʼnosida qoʻllaniladi, turk tilida esa yomgʻir maʼnosida *yağmur* soʻzi ishlatiladi, *yogʻin, yogʻingarchilik* soʻzlari barcha yogʻin turi maʼnosini ifodalaydi. Demak, oʻgʻuz lahjasidagi *jağış* soʻzining maʼno taraqqiyotida maʼno torayishi hodisasi kuzatilgan.

Hozirgi oʻzbek tilida ishlatiladigan *ugra* soʻzi turk tilida ham mavjud. Oʻzbek tilida “xamir kesilib tayyorlanadigan suyuq ovqat” maʼnosida ishlatilsa, turk tilida “xamir yoyishda xamirning taxtaga yopishmasligi uchun sepiladigan qalin un” maʼnosini bildirishi lugʻatda izohlangan [2, 385]. Xalq orasida *ugra* soʻzi *urga, urva, uvra*, ozarbayjon tilida *urva*, turkmanchada *urba*, qoraqalpoqchada *urpa*, qirgʻizchada *urpaq* shaklida ishlatilishi keltirib oʻtiladi. Xorazm shevasidagi *ügrä / ü:rä* soʻzi ham “xamir yoyishda xamirning taxtaga yopishmasligi uchun sepiladigan un” maʼnosida ishlatiladi. Demak, bir soʻzning ikki shakli boʻlgan, bitta maʼno anglatadigan *ügrä / ü:rä* va *urpa* soʻzlari oʻgʻuz lahjasida boshqa-boshqa maʼno ifodalashga xizmat qiladi. Bulardan *ugra* soʻzi oʻzbek adabiy tilida ham mavjud boʻlsa, *urpa* soʻzi faqat sheva soʻzi hisoblanadi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida mavjud boʻlmagan, shevada ishlatiladigan, turk tilida qoʻllaniladigan soʻzlarni shakliga koʻra:

1. Bir xil shaklda ishlatiluvchi soʻzlar: *baldiz, jumurta, kirpi, al, doňmaq, bulašiq* kabi.
2. Har xil shaklda ishlatiladigan, yaʼni fonetik oʻzgarishga uchragan soʻzlar: *ašağ, dišan, gačçi, solqim, žorap, yali, aja* kabi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida mavjud boʻlmagan, shevada ishlatiladigan, turk tilida qoʻllaniladigan bir xil shakldagi soʻzlarga *jumurta, kirpi, al, doňmaq, bulašiq, salinzaq, jumruq* kabilarni kiritish mumkin.

Oʻgʻuz lahjasiga oid shevalarda *jumurta* soʻzi tuxum maʼnosini ifodalaydi. Tuxum soʻzi asli fors-tojikcha soʻz boʻlib, “urugʻ, tuxum; avlod, nasl” maʼnosini bildiradi va oʻzbek adabiy tilida faol ishlatiladi. Turk tilida *jumurta* soʻzi “parrandalarning koʻpayishiga imkon beradigan qobiqli ozuqa, tovuq tuxumlari, paypoqlarni tuzatish uchun ishlatiladigan tuxum shaklida, odatda yogʻoch yoki marmardan yasalgan narsa” maʼnosini bildiradi. Bundan kelib chiqadiki, *jumurta* soʻzi oʻgʻuz lahjasi va turk tilida bir xil maʼnoda ishlatiladi hamda umumturkiy soʻz hisoblanadi. “Attuhfatuz zakiyatu fillugʻotit turkiya” (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa) asarida ham *jumurtqa* shaklida ishlatilishi aytib oʻtiladi.

Oʻzbek tilidagi *belanchak* soʻzi “chaqaloqlarni yotqizib ovutiladigan yoki uxlatiladigan, argʻimchoqdek yoki beshikdek tebratiladigan moslama» maʼnosini bildiradi. Oʻgʻuz lahjasida *belanchak* maʼnosi *salinzaq* soʻzi bilan ishlatiladi. Bu soʻz hozirgi turk tilida ham mavjud boʻlib, “ikkala uchi arqon bilan bogʻlangan, oʻtirgan holda tebratadigan moslama, yosh bolalarni uxlash uchun beshik oʻrniga ishlatiladigan osilgan karavot” maʼnosida ishlatilib, bu Xorazm shevasidagi ayni leksema maʼnosi bilan bir xil. “Attuhfatuz zakiyatu fillugʻotit turkiya” (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa) asarida *saldi* (otish, irtitish), *salindi* (osilmoq), *salinadi* (chayqalish, tebranish) kabi soʻzlar qipchoq tilida ham mavjudligi aytib oʻtiladi [6, 244].

Oʻzbek tilidagi *musht* soʻzi forscha soʻz boʻlib, “mushtum, mushtum bilan urish; hovuch, kaft” maʼnosida faol ishlatiladi. Ushbu forscha soʻz oʻrnida Xorazm shevasida *jumruq* soʻzi ishlatiladi. Hozirgi turk tilida *yumruk* soʻzi oʻgʻuz lahjasidagi bilan bir xil maʼnoda qoʻllaniladi. *Yumruq* soʻzi asli *yummoq* – *yopmoq* maʼnoli feʼldan yasalganligi koʻrinib turibdi. Hozirgi oʻzbek tilida *yummoq* –

yopmoq ma'noli so'z ishlatilsa-da, *jumruq* so'zi arxaiklashgan va uning o'rnida forscha *musht* so'zi qo'llaniladi.

Xorazm shevasida "echki" ma'nosini bildiradigan *gaçêi* so'zi turk tilida *keçi* shaklida bo'lib, Mahmud Koshg'ariy devonida *keci – echki* (o'g'uzcha) tarzida keltirilgan bo'lsa, "Attuhfa" asarida ham *kechi – echki* ma'nosida qo'llanilgani aytib o'tiladi. Demak, bu so'z nafaqat o'g'uz lahjasida, balki qipchoq lahjasida ham ishlatilganini ko'rish mumkin.

Xorazm shevasida faol qo'llanadigan so'zlardan biri *aşaq* (ma'nosi past) va *dişan* (ma'nosi tashqari) so'zlari o'zbek adabiy tilida mavjud emas. *Aşaq* so'zi o'rnida past, ost kabilar, *dişan* so'zi o'rnida esa tashqari so'zi ishlatiladi. Turk tilida *aşagı* so'zi pastga, *dışarı* so'zi tashqari ma'nosida qo'llaniladi.

Hozirgi turk tilida *halı* leksemasi "odatda jun, ipakdan to'qilib, yerga, polga to'shaladigan yoki bezak uchun xona devorlariga osib qo'yiladigan uy jihozi; badiiy to'qimachilik buyumi" ma'nosida ishlatilib, uning fonetik o'zgarishga uchragan shakli *yalı* Xorazm shevasida ayni shu ma'noda ishlatiladi. Hozirgi kunda o'zbek tilida bu so'z o'rnida fors tilidan kirib kelgan *gilam* leksemasi ishlatilib, *halı* so'zi arxaiklashgan, lekin uning fonetik varianti o'g'uz lahjasida saqlanib qolgan. "Attuhfa" asarida ham bu so'z turk tili bilan bir xil hali – kiygiz shaklida izohlanadi.

O'zbek tilida hisob so'zi ma'nosida qo'llaniladigan (*bir bosh uzum* birikuvidagi) *bosh* so'zi Xorazm shevasining qipchoq lahjasiga xos hududlarida ham mavjud. O'g'uz lahjali hududlarida esa *bosh* o'rnida *solqım* so'zi ishlatiladi. Turk tilida esa *solqım* so'zi *salkım* shaklida qo'llaniladi. "Attuhfatuz zakiyatu fillug'otit turkiya" (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa) asarida *solqım* so'zi qipchoqlarda *bosh*, *shingil* ma'nosida ishlatilishi keltirib o'tilgan.

Turk tilida *bıçkı* shaklida ishlatiladigan so'z "yog'och, metall, tosh kabi narsalarni qirqish, kesish uchun ishlatiladigan qirra tishli asbob" ma'nosida ishlatilib, Xorazm shevasida ham aynan shu ma'noda ishlatilishini kuzatish mumkin. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu ma'noni fors tilidan o'zlashgan *arra* so'zi ifodalashga xizmat qiladi.

O'zbek tilida "ma'lum qilmoq, aniq qilmoq" ma'noli so'zlar o'rnida Xorazm shevasida *belli etmāk* fe'li ishlatilib, bu fe'l hozirgi turk tilidagi *belli etmek* so'zining aynan o'zidir. O'g'uz lahjasiga mansub bu so'z asosan katta yoshli aholi vakillari tomonidan ishlatilishini kuzatish mumkin, ya'ni bu so'z hozirda arxaiklashish jarayonini boshdan kechiryapti.

O'zbek tilidagi "birov bilmaydigan, ko'rmaydigan yoki topa olmaydigan joyga qo'ymoq, berkitib qo'ymoq" ma'nosini ifodalovchi *yashirmoq* so'zi o'rnida Xorazm shevasida *gizlāmāk* fe'li ishlatiladi. Bu fe'l turk tilida *gizlemek* shaklida bo'lib, o'g'uz lahjasidagi so'z bilan ham ma'no, ham shakl tomondan aynan teng keladi. Ozarbayjon va turk tillarida hozirda *gizli*, turkman tilida esa *gizlin* so'zi yashirin ma'nosida ishlatiladi. "Attuhfa"da *kizladi* so'zi maxfiy, yashirmoq ma'nosida qipchoqlarda faol ishlatilishi aytib o'tiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turkiy tillar, xususan, turk tili bilan o'zbek tilining Xorazm shevasining leksik jihatdan mushtarak jihatlari talaygina. Shevadagi ayrim so'zlar turk tili bilan bir xil shaklda, ba'zan esa fonetik o'zgarishga uchragan shaklda ishlatilishini kuzatish mumkin. Bunday leksemalarning ayrimlari bir xil ma'noda ishlatilsa, ayrimlari ma'no kengayishi yoki torayishiga uchragan holda hozirgi kungacha yetib kelgan. Xorazm shevasidagi arxaiklashgan umumturkiy so'zlar o'rnida o'zbek adabiy tilida fors-tojik, arab tillaridan o'zlashgan so'zlar qo'llanilayotganini kuzatish mumkin. Tilimiz boyligi bo'lgan bunday umumturkiy so'zlarni o'rganish va saqlab qolish globallashib borayotgan bugunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmog'i zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (Turkiy so'zlar). 1-qism. – Toshkent, 2000.
2. Hasan Eran. Türk dilinin Etimolojik Sözlüğü. – Ankara, 1999.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'oti-t-turk (Turkiy so'zlar devoni). – Toshkent, 2017.
4. Abdullayev F. Xorazm shevalari. – Toshkent, 1961.
5. Ismoilov M. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent, 1966.
6. Attuhfatuz zakiyatu fillug'otit turkiya (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa). – Toshkent: Fan, 1968.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI SPORTGA OID TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK O'RGANILISHI

*J. Ermetova, f.f.n., Urganch davlat universiteti, Urganch*  
*M. Karimova, magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xorijiy tajribalar asosida sport atamaları va sport atamaları lug'atining tuzilishi o'rganildi. Maqolada sportga oid terminlar ingliz va o'zbek tillarida tahlil qilindi. Tillarni taqqoslash sport munozaralariga xos bo'lgan muhim jihatlarini ochib berdi. Qiyosiy tahlil jarayonida uch bosqichda tahlil qilindi: lingvistik, kognitiv-kommunikativ va lingvistik-madaniy jihatlariga e'tibor berildi.

**Kalit so'zlar:** sport terminologiyasi, qiyosiy tahlil, metafora, sport munozarasi

**Аннотация.** В данной статье рассматривается создание словаря спортивных терминов и терминов на основе зарубежного опыта. В статье анализируются спортивные термины на английском и узбекском языках. Сравнение языков выявило важные аспекты спортивной дискуссии. Сравнительный анализ был проанализирован в три этапа: лингвистический, когнитивно-коммуникативный и лингвокультурный.

**Ключевые слова:** спортивная терминология, сравнительный анализ, метафора, спортивная дискуссия

**Abstract.** This article explores the construction of a dictionary of sports terms and terms based on foreign experience. The article analyzed sports terms in English and Uzbek. Comparison of languages revealed important aspects of sports discussion. The comparative analysis was analyzed in three stages: linguistic, cognitive-communicative and linguistic-cultural.

**Keywords:** sports terminology, comparative analysis, metaphor, sports discussion

Kirish. Ingliz va o'zbek tillarida sport lug'atlarini yaratish zarurati uzoq vaqt davomida sport ishtirokchilari va tilshunoslar uchun o'rganilishi zarur ob'jekt sifatida qarab kelingan va bu ehtiyoj umumiy yoki xususiy sport turlari bo'yicha xarakterlanib sport terminologiyasining lug'atlarini yaratish orqali qisman qondirilgan.

Biroq, barcha sport turlari vakillarini, shu bilan birgalikda tilshunoslarni ham ishonchli ma'lumot materiallari bilan ta'minlaydigan, ulardan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar beradigan, leksikografik manbalarni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar shu kungacha yo'lga qo'yilmagan. Atamalarni o'rganish fani, ya'ni terminologiya [Superanskaya 1989] nisbatan yosh, ammo hozirda u zamonaviy tadqiqotchiga o'zining asosiy aksiomalari sifatida qabul qilingan ko'plab yutuqlari va kashfiyotlarini taklif qilishi mumkin. Bugungi kunda turli xil terminologik muammolarga bag'ishlangan asarlarni aniq hisoblash qiyin. Shuning uchun, bu soha atamaları yetarli darajada tadqiq qilinmagan ilmiy soha deb hisoblanadi. Aslida, umumiy so'z va atamani farqlash masalasi kabi ba'zi eski savollarning polemik keskinlashuvi olib tashlanib, munozaralarga sabab bo'layotgan keng tarqalgan muammolar hozir to'liq hal qilinmasa, kerakli darajada noaniqlikka sabab bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Biroq, terminologiya muammolarini yaqindan ko'rib chiqish shundan dalolat beradiki, qarama-qarshilikda paydo bo'lgan atama nazariyasi hanuzgacha munozarali bo'lib kelmoqda. Ikkalasi ham qayta-qayta ko'tarilgan va nisbatan yangi savollar bo'lib, ular ikkilik qarama-qarshiliklar deb nomlanadigan tizimni tashkil qiladi:

- a) umumiy adabiy lug'at / avtonom maxsus lug'at;
- b) turli xil lug'atlardagi atamani aniqlashda lingvistik / ensiklopedik lug'at;
- c) adabiy til / maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan til;
- d) terminologiya mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida.

Ushbu qarama-qarshiliklar zamonaviy atamalar nazariyasining "qurilish tamoyillari" (X.A. Ilyina atamasi) bo'lib, ularning mazmunini yanada xususiy savollar majmuasi sifatida ifodalash mumkin. Shu kungacha olib borilgan tadqiqotlarda atamaning mohiyati haqidagi savollar muhokamalarda aniq tavsifini topmagan (Vinokur G.O., 1939; Kotelova N.Z., 1970; Leichik V.M., 1986; Superanskaya A.B., 1989; Volodina M.N., 2000). Matnda ishlatilgan (Leichik V.M., 1990), nutqning turli turkumiga mansub so'zlarining terminologik holati to'g'risida Reformatskiy A.B., 1986; Danilenko V.P., 1977; Kiyak T.R., 1989; Kosova M.V., 2000 va boshqalar ish olib borganlar.

Terminologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarga o'zbek olimlari ham hissa qo'shganlar, jumladan H. Poluvanovning ekologik terminlarga bag'ishlangan doktorlik ishi, B. Alixanov, S.

Samoylovlarning ekologik terminlar borasidagi, M. Shokirova, Sh. Nurullayevning kimyo terminlariga oid, A. Saidov, D. Yahyoyevaning soliq va iqtisodiyot terminlar, T. Ergashevning iqtisodiyot terminlarini tatbiqiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari misol bo'la oladi.

Metodologiya. Hozirgi vaqtda terminologiya bir qator mustaqil tadqiqot yo'nalishlaridan ajralib turadi. Avvalo, unga asoslangan maxsus lug'at va amaliy terminologiyaning rivojlanishi va ishlatilish qonuniyatlarini o'rganadigan, atamalar va atamalar lug'atlaridagi kamchiliklar, atamalarni tavsiflash, baholash, tahrirlash, soddalashtirish, yaratish, tarjima qilish va ishlatilish qonuniyatlarini o'rganadigan nazariy terminologiyani ajratib ko'rsatish mumkin. Umumiy terminologiya lug'atda yuzaga keladigan eng umumiy xususiyatlarni, muammolarni va jarayonlarni o'rganadi, xususiy yoki tarmoq atamaları maxsus lug'atlar va ma'lum tillarni bilishning alohida sohalari tushunchalarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Qiyosiy terminologiya - bu turli tillarning, masalan, o'zbek va ingliz tillarining maxsus lug'atlarining umumiy xususiyatlarini qiyosiy o'rganadi. Semiologik terminologiya maxsus leksemalarning ma'nosi (semantikasi) bilan bog'liq muammolarni, ma'nolarni va har xil semantik hodisalarni -polisemiya, sinonimiya, antonimiya va boshqalarni o'z ichiga oladi. Onomasiologik terminologiya maxsus leksemalarning tarkibiy shakllarini, maxsus tushunchalar va tanlovlarni nomlash jarayonlarini o'rganadi va u nomlarning maqbul shakllaridir. Terminologiya tarixini ularning ta'limi va rivojlanishidagi tendentsiyalarni ochib berish uchun o'rganadi va shularni hisobga olgan holda tartibga solish uchun to'g'ri tavsiyalar beradi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar natijalariga asoslanib mustaqil lingvistik fan - antropologizm paydo bo'ldi. Funktsional terminologiya terminning zamonaviy funktsiyalarini turli xil matnlarda kasbiy aloqa va o'qitish holatlari, shuningdek, so'zlashuv va kompyuter tizimlaridagi atamalardan foydalanish xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq.

Hozirgi kunda tadqiqotlar orasida bir qator yangi yo'nalishlar shakllanmoqda, ular orasida ilmiy bilish va tafakkurda atamalarning rolini o'rganadigan kognitiv yoki epistemologik terminologiyani ajratib ko'rsatish kerak. Tilshunoslikni o'rganishda amaliy terminologiyaga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq. Amaliy terminlar haqida gap ketganda, avvalo ushbu atamalarning holatini aniqlashtirish kerak. Tilshunoslikda, ya'ni amaliy tilshunoslik nazariyasida mavjud bo'lganidek, amaliy terminologiya va amaliy terminologik faoliyatning bir qator yo'nalishlariga oid nazariyalar mavjud. Shu bilan birga, amaliy terminologik faoliyatning nazariy shartlari har xil bo'lib, yo'nalishlarini tanlash u yoki bu terminologik tadqiqot maktabi tomonidan belgilanadi, shuningdek prinsiplar, usullar, hajm, faoliyat darajasi, uning natijalari va ushbu natijalarni amalda qo'llash, masalan, xalq tilida yoki iqtisodiyot sohasidagi kabi. Shunday qilib, o'zbek terminologiya maktabi amaliy faoliyatning quyidagi yo'nalishlarini rivojlantiradi: leksikografik terminologik faoliyat X. Narxodjayeva, T. Valiyev, D. Kadirbekova; atamalar va terminologik tizimlarni birlashtirilib, ular uchta turni o'z ichiga oladi - atamalarni soddalashtirish, standartlashtirish va uyg'unlashtirish, atamalar bo'yicha muharrirning ishi (terminologik tartibga solish); ilmiy, texnikaviy va boshqa maxsus matnlarni tarjima qilish borasida atamalarni tarjima qilish; terminologik ma'lumotlar, bankini yaratish; turli darajadagi mahalliy tarmoqdan tortib xalqaro doiradagi terminologik tadqiqot organlari va markazlarning tashkiliy-uslubiy (ilmiy va tashkiliy) faoliyati, terminlar tadqiqotiga oid izlanishlarni boyitdi.

Atamashunoslik bilan yaqindan bog'liq bo'lgan fan terminografiya- (lug'atlar, ya'ni maxsus so'z tuzish) fani, terminologlar tomonidan o'rganilgan ko'plab muammolar maxsus lug'atlarni ishlab chiqish jarayonida yuzaga keldi va bu muammolarning yechimi esa lug'atlarni tuzish usullariga ta'sir qildi. Shu bilan birga, maxsus lug'atning har bir sohasini o'rganish, terminografiya bilan uzviy bog'liqdir, chunki terminologiyani aniqlash, tadqiq qilish va soddalashtirish bo'yicha ish natijalari odatda lug'at shaklida yoziladi.

Ingliz tilida har bir sport turining o'z terminologiyasi, professional lug'ati, jarangli so'zlari va iboralar to'plamlari mavjud. Sport tili, ishtirokchilarning ijtimoiy va yosh guruhlari uchun farqlidir. Lingvistik nuqtai nazardan, sport tili kamdan-kam hollarda zamonaviy tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Bunga javoban, keng ommaga xizmat qiladigan "ommaviy" sportga bag'ishlangan yangi nashrlar va turli xil entsiklopediyalar tez-tez nashr etiladi. Ba'zi tilshunoslarning fikriga ko'ra, ba'zi sohalarga qaraganda sportga oid atamalar mukammal ishlab chiqilmagan. Ayrim sport tili ilmiy holatlarda tadqiqot doirasiga qo'shilmaydi, bu ijtimoiy jihatdan bog'langan aralash guruhlarning tili sifatida qaraladi. Sport tili ishlatilish sohasiga qarab uni maxsus ilmiy adabiyotlarda yoki jurnalistika sohasida deb hisoblash mumkin. Sport maxsus tilining tipik xususiyati sport individual tarmoqlari va mavjud sohaga oid so'zlarning barchasini o'z ichiga olgan maxsus lug'atdir.

Ishning amaliy faoliyati. Terminologik nominatsiyalar frazeologiyaning bir qismi sifatida minimal tasavvurga ega. Sport atamaları barcha belgilangan talablar, jumladan ma'no aniqligi, tizimga



mansubligi, qisqartirish va lingvistik to'g'rilik kabi tamoyillarga javob berishi kerak. Sport terminologiyasi majoziy yoki metaforaga asoslangan bo'lishi mumkin. Xususan, yetakchilikni mustahkamlash, hisob sindirish, maydonni berish, o'yinni berib qo'ymoq kabi iboralar o'zining lug'aviy ma'no doirasidan chiqib, ko'chma ma'no aks ettirgan.

Sport atamaları o'zbek tilida uch va to'rt komponentli birikmalar qo'llashi mumkin, ular muntazam ravishda tayyor shaklda va semantik tuzilishning barqarorligi bilan takrorlanadi: g'oliblar qatorida bo'lish, to'pni hujum ostida qo'yish, zarbani burilishdan ushlab turish, o'yinni nazoratga olish, turnir jadvalida joyni kafolatlash, ranglarni himoya qilish kabi. Bular barchasi yuqori darajada ixtisoslashgan atamalar hisoblanadi. Ulardagi majoziy metafora sport sohasiga oid matnlarda ishlatilishi va muntazam ravishda takrorlanishi tufayli susaymaydi, ammo kasbga oidligini jargon xususiyatlariga qarab aniqlay olmaymiz.

Mavjud xorijiy lug'atlar sport sharhlari va hisobot matnlarida keng qo'llaniladigan alohida so'zlar guruhidir. O'zlashmalar eng keng tarqalgan leksik qatlamdir. Ularning grafik shakli "amaliy transkripsiya" orqali amalga oshiriladi. Ushbu atama ularning talaffuzini hisobga olgan holda, milliy alifbo yordamida chet el so'zlarining tilga qabul qilinishidir. Sport anjomlari nomlarining matnlarida "amaliy transkripsiya" juda keng tarqalgan. Masalan, "Time" so'zi ingliz tilida vaqt degan ma'noni bildirib, bu so'z umumiy ma'nodagi - "vaqt" shakli. O'zbek tilidagi sport terminologiyasida time "futbol o'yinining davri" dir. Futbol o'yini ikki qismdan iborat bo'lib, ular orasida qisqa tanaffus mavjud. Ushbu tanaffus "break" so'zi bilan ifodalanadi. Ushbu chet tilidagi leksemalar foydalanuvchilar doirasiga osongina o'rnatiladi va sport munozarasi doirasidagi atama bo'lib qoldi. Boshqa ingliz o'zlashmalaridan foydalanib ushbu misollarini keltirish mumkin:

Ingliz tili	O'zbek tili
bodybuilding	bodibulding
Armstrong	Armstrong
superweight	superog'ir
diving	dayving
bowling	bovling
golf	golf

Xorijiy atamalarning (borrowings) jalb qilinishi sportning so'z boyligini kengaytirishga xizmat qiladi, sinonimiyaning rivojlanishiga yordam beradi, nutq resurslarini tejashga imkon beradi, mamlakatlar - ona tilida so'zlashuvchilar va boshqa til madaniyatlari o'rtasidagi aloqalar mavjudligidan dalolat beradi. Sport terminologiyasida tartibga solinmagan til shakli bilan ajralib turadigan ko'plab yo'llar mavjud. Bu shuni anglatadiki, yo'llar bitta so'zda, so'zlar guruhida, jumla yoki jumalalar guruhida bo'lishi mumkin. Ular so'z birikmalarining stilistik manbalari bilan bog'liq bo'lib, efirga uzatilgan nutqning tasviriy va ifoda tasvirini oshiradi, taxminiy va hissiy ifodali ma'nolarni yetkazadi. Ma'no ko'chishidan faol foydalanish jarayoni ommaviy axborot vositalari matnining asosiy funktsiyalaridan birini amalga oshirishga yordam beradi. Sport xabarlarini muallifi hissiyotlarni keltirib chiqaradi va axborot xabarini jonlantiradi.

Sport lug'ati ko'pincha adabiyot va sport jurnalistikasida ishlatiladigan yangi tashqi vositalar bilan to'ldiriladi (masalan, yopiq eshiklar, shafqatsiz mergan va boshqalar). Masalan, sport ommaviy axborot vositalarining tilida bunday iborani ta'kidlash mumkin: *to'q sariq to'p ishqibozlari haqiqiy dam olishni yaxshi ko'radilar. "To'q sariq to'p o'yini"* ostida sport basketbol o'yini yashiringan, unda deyarli har doim to'q sariq to'p bilan o'ynashadi.

Sport munozarasida metaforizatsiya bilan bir qatorda, umumiy lug'atni qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'lgan sinekdoxa ham keng qo'llaniladi. Sport sharhlari va hisobot matnlarida ko'pincha o'yinchilar formasining rangini o'yinchilarning o'zlariga nisbatan qo'llash bilan bog'liq bo'lgan sinekdoxa mavjud. Sinekdoxaga misol: *to'rtinchi yo'lakning birinchi yarmi ko'k va oq ranglar ostida yozilgan*. Yuqoridagi iborada sportchining kiyib olgan kiyimi rangi ko'k va oq ranglardir.

**Xulosa.** Sport terminologiyasining leksikografik nuqtayi nazaridan ko'pgina ommaviy topshiriqlar bajarilishida, so'zlarning izohli lug'atlaridagi ma'no xususiyatlari, internatsional va psevdointernatsional xususiyatlari, ularning tarjimadagi leksikasi, hozirgi kun ilmiy tadqiqot mavzularining dolzarb masalasidir. Ushbu tadqiqot sport terminologiyasining ham nazariy, ham amaliy asoslarining yaratilishiga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Edwards, D. (1997). Discourse and cognition. London: Sage.

2. Edited by David Caldwell, John Walsh, Elaine W. Vine, Jon Jureidini. The Discourse of Sport analyses from Social Linguistics 1st Edition. New York: Routledge
3. Александрова Е.Н. Спортивный дискурс.-Уфа: БГУ,2011.-196с.
4. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры /Н.Д. Арутюнова. -М. ,1990.-.5-32.
5. Олянич А.В. Презентационная теория дискурса/А.В.Олянич. -Гнозис, 2007.-407с.
6. Карасик В.И.Речевое поведение и типы языковых личностей/ /Массовая культура на рубеже XX-XXI веков: Человек и его дискурс: Сборник научных трудов / Подред Ю. А.Сорокина, М.Р. Желтухиной. ИЯРАН.-М.: Азбуквник, 2003.-С.24-45.
7. Суперанская А.В. Терминология и номенклатура/ /Проблематика определений терминов в словарях разных типов.-Л.,1976.-С.73-83.
8. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н. В. Общая терминология: Вопросы теории/А.В.Суперанская, Н.В.Подольская, В.Н.Васильева. -М.: Просвещение, 1989.-246с.
9. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: Терминологическая деятельность/А.В.Суперанская, Н.В. Подольская, В.Н. Васильева. - М.: АСТ,1993.-228с.

O'UK: 81.115

## TILLAR QARINDOSHLIGI VA UMUMIYLIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHDA SANSKRITNING O'RNI

A. Jumaniyazov, f.f.n., professor, UrDU, Urganch  
D.A. Jumaniyazova, o'qituvchi, UrDU, Urganch

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada gap sanskrit tilining tillar qarindoshligi va umumiyluk xususiyatlarini o'rganishdagi o'rni haqida ketadi. Zero qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tahlili asosida aynan shu til yotadi, tahlil metodlari va prinsiplari manbasi sanskrit hisoblanadi. Dunyo tilshunos olimlari tomonidan bu borada olib borilgan tadqiqotlar ham keng yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Til, sanskrit tili, lug'at tarkibi, tillarning o'zaro qarindoshligi, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar, qiyosiy grammatika, qiyosiy fonetika, qiyosiy tahlil

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет о роли языка санскрит в изучении языкового родства и их общих характеристик. Потому что, данный язык является основой анализа сравнительно-исторической лингвистики, санскрит — это источник методов и принципов анализа. Также широко освещаются исследования, проведенные по этому поводу лингвистами мира.

**Ключевые слова:** Язык, санскрит, словарный состав, межязыковое родство, сравнительно-историческая лингвистика, сравнительно-исторические исследования, сравнительная грамматика, сравнительная фонетика, сравнительный анализ

**Abstract.** The article deals with the role of Sanskrit in the investigation of the linguistic affinity and common features of languages. Since, Sanskrit is the basis of the analysis of the comparative-historical linguistics, Sanskrit is the resource of the methods and principles of analysis. Besides, investigations of the world scholars on this issue will also be widely discussed

**Key words:** Language, Sanskrit, vocabulary, linguistic affinity, comparative- historical linguistics, comparative- historical investigations, comparative grammar, comparative phonetics, comparative analysis

Ma'lumki, bashariyat odamni organik olam taraqqiyoti bosqichlarining eng oliy mavjudoti deb qaraydi. Binobarin, odam ob'ektiv borliqning eng aziz va mukarram mavjudotlaridan bo'lib, unga normal hayot uchun eng muhim bo'lgan 5 hissiy a'zolaridan tashqari ong va aql ato etilgan. Bu qudratdan ijtimoiy foydalanish uchun, unga ikkinchi bir mo'jizaviy qurol karomat qilinganki, u ham bo'lsa tildir. Shu ma'noda odam dunyoni mushohada qilish, tafakkur orqali muayyan shaxsiy xulosalarga kelish va idrok qilgan narsalarini zamondoshi uchun nutqiy til orqali ifoda qila oladigan va shu tufayli barcha boshqa maxluqotlardan ustun turadigan zotdir. Insonga berilgan yana ayrim qo'shimcha xususiyatlar borki, inson mehnat qilishi, yaratishi, hatto ob'ektiv borliqni o'zgartira olishi ham mumkin. Mazkur ustunlikning asosi va sababi sifatida odamning kim va nima ekanligini o'rganuvchi barcha fanlar (tilshunos olimlar) bu qudrat ostida yakdillik bilan insonning o'zaro muloqot imkoniyati, ya'ni **til** turishini ta'kidlab keladilar. Darhaqiqat, "til" ob'ektiv borliq haqida va undagi narsa-hodisalar borasidagi "inson qalbi ifodasi"[1, 3-bet] dir. Binobarin, "qalb ifodasi" maqsadiga ko'ra yuqorida ta'kidlaganimizdek ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, unda insonning real hayot mushohadasi, tafakkuri aks etadi, ya'ni u til orqali yegani, ichgani, kiygani va ko'rgan, eshitgan, his qilgan narsalari –


lo'ndaroq aytganda, umuman bilgan narsalari haqida zamondoshiga aytadi, xabar beradi. O'zaro muloqotda ob'ektiv borliqni muayyan so'z va gaplar (narsalarni nomlash) orqali dunyo ikkinchi marta muloqot ishtirokchilari orasida qayta gavdalanadi, muloqot orqali paydo bo'lgan tasavvur va tafakkurlar mushohadasi faqat va faqat til birliklari orqali go'yo "videotasvir"ga aylanadi [2, 8-bet]. Til lug'at tarkibi qancha boy bo'lsa, "videotasvir" shuncha aniq chiqadi. Biroq kezi kelganda shuni ham qayd qilib o'tish lozimki, dunyodagi tillar (til egalari) ning hech biri haligacha ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisalarni to'la nomlashga qodir emas. Milliy tilimizning o'rtacha 1.500.000, hozirgi kunda dunyo tiliga aylangan ingliz tilining 2.500.000 va yer yuzining eng boy tili hisoblangan arab tilining 3.500.000 - gina so'zga ega ekanligi, tillarning nafaqat alohida ravishda, balki dunyodagi barcha tillarning so'z boyliklarini qo'shib chiqqanda ham, universum (o'n sakkiz ming olam) tarkibidagi narsa va predmetlarning mingdan birini nomlanilmaganligini ko'z oldimizga keltirish mumkin. Yuqorida keltirilgan xalqlar va ularning tili lug'at boyligi sonlaridan yaqqol ko'rinib turibdiki, insoniyat tomonidan olamda kashf qilingan narsalar va ularga berilgan nomlarda har bir xalq va ularning tillarini muayyan hissalar bor. O'zaro miqdor farqlari mingdan millionlargacha. Qizig'i shundaki, hozirgi kunda muayyan bir til boyligi haqida gap ketsa, mazkur til lug'at tarkibidagi so'z va iboralar aynan inobatda tutilayotgan xalqniki emas, balki bunda avvalo qo'shni tillar, qolaversa dunyoning boshqa chekkasida joylashgan, biroq nisbatan rivojlangan, tillardan o'zlashgan so'zlarning ham hissasi katta ekanligi faqat tilshunoslarga emas, balki oddiy xalq uchun ham muayyan darajada ma'lum hodisa. Binobarin dunyoda o'zga tillar imkoniyatidan foydalanmagan birorta ham til yo'q, aralashganlik doimo yaqqol sezilib turadi. Endi tillarning o'zaro qarindoshligi, bir-biridan so'z o'zlashtirishi, yoki ma'lum darajada aralash ekanligi masalalarining tilshunoslikda o'rganilishiga, ayniqsa milliy tilimizning Sanskrit tili bilan aloqalari masalalariga to'xtaladigan bo'lsak, bu mavzuga qiziqish aslida jahongashta sayyoh italiyalik Filippo Sassetti (1540–1588) tomonidan boshlangan. Sassetti o'zining Hindistonga qilgan besh yillik (1583-1588) safarida hind xalqi va urf-odatlarini diqqat bilan kuzatgan, qadimgi hind - Sanskrit tilini o'rgangan. 1585 yilda do'sti Florentsiyalik Bernardo Davanzatiga yozgan maktubida u sanskrit va italyan (masalan, deva / dio "God", sarpa / serpe "ilon", sapta / "yetti", ashta / otto "sakkiz", nava "to'qqiz") so'zlarining o'xshashligini ta'kidlagan edi. Ushbu e'lon qilinmagan kuzatuv bugungi kunda hind-evropa tillari oilasi kashfiyotining dastlabki timsollaridan biri deb tushuniladi. F.Sassettidan keyin sanskrit tilini evropa tillari bilan aloqalarini astoydilroq (fransuzlar Marcus Zuerius van Boxhorn 1612–1653, Gaston-Laurent Coeurdoux 1691–1779) hisobga olmaganda o'rgangan angliyalik filolog V. Jons (William Jones, 1746 –1794) hisoblanadi. Chet tillarini o'rganishga o'ta qobilyatli hisoblangan mazkur tilshunos olim evropa mamlakatlariga ularning tillarini o'rganish maqsadida ko'plab sayohatlar uyushtirgan va pirovard natijada lotin, grek, fransuz, italyan, nemis, ispan, portugal, ibroniy va hatto arab tillarini ham mukammal bilgan. Keyin uni sharq tillari qiziqitira boshlagan va Angliya qiroli Georg III dan Hindistonga mamlakat vakili sifatida yuborilishini iltimos qilgan. Qirol Jonsning istagini qondirib, uni Kalkutta shahrining sudyasi qilib tayinlagan. O'z davrining "Jons-garmonik shaxs" laqabini olgan bu tilshunos Hindistonda yana 30 dan ortiq (xitoycha ham) tillarini o'rgangan va dunyoda birinchi bo'lib ko'p tillarning o'xshashligini muqoyasa qiluvchi birinchi tilshunos olim vujudga kelgan. Zero ungacha ayrim tillar o'rtasida o'xshashlik borligi, tillar umumiy qadimiy bobotildan kelib chiqqanligi, keyinchalik esa har biri alohida mustaqil rivojlanganligi borasida muayyan fikrlar aytilgan bo'lsada, ushbu o'xshashliklarning sabablari uzoq yillar davomida aniq yoritib berilmagan edi. Endi bu kashfiyotni Jons o'zining dunyoning ko'p tillarini tushunishi va ularda muloqot qila olishi tajribasiga tayanib qilishi mumkin bo'lgan yagona shaxs edi. U buni anglar va shu bois sanskrit tilini astoydil o'rganishga jazm qildi. Va bildiki, sanskrit tili, ajoyib tuzilishga ega, yunon va lotin tillaridan ham mukammalroq va ikkalasiga nisbatan grammatika bobida yanada nozik, gottlar va keltlar tili esa sanskritga asoslanadi degan fikrga keldi. U lotin va grek tillarining sanskrit bilan o'xshashligini ham yaqqol sezdi, biroq lotin va grek tili sanskrit tilidan kelib chiqqan emas, sanskrit tili ham lotin yoki grek tilidan kelib chiqmaganligini ham tushundi [3, 87-bet]. U o'ylar ediki, grek, lotin, sanskrit, nemis va boshqa tillar qarindoshlar, lekin ularning "bobo"si kim, bilmas edi. Uning tasavvuricha, "bobo til" hozir yo'q, u o'lgan bo'lishi kerak. Binobarin, nemis hatto irland tillari ham uning qiyosiy tajribasiga ko'ra sanskritni eslatishardi. U yo'qolib ketgan tillar ichidan "bobo til"ni izlamoqchi bo'ldi, biroq unga barvaqt o'lim xalaqit berdi. Biroq u "Osiyo izlanishlari" asarini yozib qoldirdi va Bengaliyada tilshunoslarni "Osiyo jamiyati" ning tashkil qilinishiga o'z hissasini qo'shdi [4, 16-bet]. O'lik tillar orasidan "bobo til" ni izlashni esa uning izdoshlari davom ettirdi. Sanskrit tadqiqoti bo'yicha tilshunoslikda V. Jons qoldirgan izni kattaroq yo'lga aylantirgan va uning birinchi yo'l boshchilaridan hisoblangan nemis olimi Fridrix Shlegel (1772-1829) bo'ldi. U qiyosiy tipologiya

fanining birinchi qaldirg'ochi, Hindistonga bormagan bo'lsada *hindshunoslikka* yo'l ochgan ulkan shaxs edi. Uning „Hindlarning tili va donoligi“ monografiyasi jamoatchilikda Hindistonga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi. Mazkur monografiyada sanskrit tilining nafaqat lug'at tarkibi (vokabular)da, balki so'zlarning o'zaro ma'no munosabatiga kirib, shakllarni o'zgartirishi (grammatika)da ham lotin, grek, german va fors tillariga xoslik borligi, ularning qarindosh ekanligi, kelib chiqishiga ko'ra aynilik xususiyatlari borligini qayd qildi. Bu asar 1808 yil nashr qilinib, unda muallifning til, din va madaniyat haqidagi romantik g'oyalari ifodalangan edi. „*Qiyosiy tilshunoslik*“ degan lisoniy termini hamda „*shamanizm etimologiyasi*“ tushunchasi birinchi marotaba mazkur asarda keltirilgan edi. Yuqorida nomlanilgan tillarning sanskrit bilan umumiy asosga ega ekanligi hozirgi kunda muayyan tuzatishlar va qayta nomlanishlardan keyin tilshunoslikda to'la tan olindi.

12. Носиров А.Н. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (Юлдузли тунлар романи мисолида): Филол.фанлари номз.дисс. автореф. – Тошкент, 1999. 24 б.
13. Ойсулов. Айтувчи Эргаш Жуманбулбул ўғли. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). kutubxonasi.
14. Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт).10.01.02-Ҳозирги ўзбек адабиёти. Ф.ф.д. илмий даражасини олиш учун тавсия қилинган диссертациянинг автореферати. Тошкент.1994. 50 б.
15. Раҳимов А. Ҳаёт ҳақиқатини излаб.-Т.: ФАН. 1989.
16. Раҳимов А. Роман санъати. – Ф.: Фарғона, 2015. - 96 бет.
17. Салом, Ғайбуллох, Отажон, Нёматуллох. Жаҳонгашта “Бобурнома”.-Тошкент: Халқ мероси,1996. – 356 б.
18. Сотти Хусайн. Роман ҳам ҳақиқат/Ўзбек адабий танқидий тарихи: антология. Тузувчи Б.Каримов. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2011. – Б. 38-43.
19. Тафаккур –тарихи мезони. Муҳаммад Али билан профессор Нуъмон Раҳимжон суҳбати//Шарқ Юлдузи, 1992, № 11. – Б.163-173.
20. Умурув Х. Бадиий ижод асослари. – Тошкент, Ўзбекистон, 2001.
21. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд/Тузувчилар: Насимхон Раҳмонов, Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: Фан, 2003, – 332 б.
22. Худойберганов Н. Оламлардан олам яратади/Кўшжонов М. Сайланма 2 жилдлик, 1-жилд. Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982 йил. 3-7 бет.
23. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004.
24. Шермухаммедов П. Тарихнинг руҳий муаммоси/Ўзбек адабий танқиди:антология. –Т.: “TURON-IQBOL”. 2011. – Б.193-204.
25. Куронов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 128 б.
26. Куронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тарихи очерклари – Тошкент: Фан, 2008. – 276 б.
27. Ғафуров И. Ям-яшил дарахт. Адабий танқидий мақолалар-Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976.
28. Ҳошимова Д. “Бобурнома” матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Фил.фан.док. ... дисс. автореф. –Тошкент: 2018. – 74 б.

УДК: 81-115

## ЗНАЧЕНИЯ И СИНТАКСИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В РОДИТЕЛЬНОМ ПАДЕЖЕ БЕЗ ПРЕДЛОГА

*Ш. Катаева, магистрант, УрГУ, Ургенч*  
*Х. Бабаджанов, проф., УрГУ, Ургенч*

**Аннотация.** Она в рус тилларининг хусусиятларини инобатга олган ҳолда, ўқитувчи ўқув дидактик материални шундай таъкил қилиши мумкинки, уни рус тилида сўзлашмаган талабалар ўзлаштириши унчалик қийин бўлмайди. Масалан, генитатив ҳолатдаги отларнинг маъноларини ўзлаштириши учун мўлжалланган дидактик материаллар жумлаларда танланиши керак.

**Калит сўзлар:** келишик, от, феъл, дидактик материал

**Аннотация.** Учитывая особенности родного и русского языков, преподаватель может так организовать учебный дидактический материал, что усвоение его не русскоязычными студентами будет происходить с меньшими трудностями. Дидактический материал, например, предназначенный для усвоения значений имен существительных в родительном падеже, должен быть подобран в словосочетаниях.

**Ключевые слова:** падеж, существительное, глагол, дидактический материал

**Abstract.** Given the characteristics of the native and Russian languages, the teacher can organize educational didactic material in such a way that mastering it by non-Russian-speaking students will occur with less difficulty. Didactic material, for example, intended to assimilate the meanings of nouns in the genitive case, must be selected in phrases.

**Keywords:** case, noun, verb, didactic material

Русские имена существительные в родительном падеже употребляется в предложении без предлога и с предлогом.


В соответствии с узбекским языком в русском языке обнаруживаются специфические особенности. Например, существительные в родительном падеже без предлога в сочетании с некоторыми глаголами (бояться трудностей, добиваться успехов, бояться темноты, ждать весны, хотеть мира, желать счастья, требовать ответа, бояться простуды, опасаться простуды, хотеть счастья, выпить воды, купить молока, добиться результатов) отвечают на вопрос *чего?* В узбекском языке в эквивалентной конструкции ставится другой вопрос: қийинчиликлардан

кўркмоқ (нимадан?), коронгиликдан кўркмоқ (нимадан?), шамоллашдан кўркмоқ (нимадан?). В русском языке это соответствует вопросу *от чего?* Эквивалентное имя существительное во второй конструкции отвечает на вопрос *нимага?* Например, ютуқларга эришмоқ (нимага?), юқори кўрсаткичларга эга бўлмоқ (нимага?).

Речевые ошибки студентов национальных групп объясняются тем, что они строят русские конструкции на основе грамматических законов родного языка (т.е. наблюдается интерференция родного языка).

Учитывая особенности родного и русского языков, преподаватель может так организовать учебный дидактический материал, что усвоение его не русскоязычными студентами будет происходить с меньшими трудностями. Дидактический материал, например, предназначенный для усвоения значений имен существительных в родительном падеже, должен быть подобран в словосочетаниях.

Сравнительный метод понимается многими как метод сравнения явлений русского и родного языков, тогда как в русском языке, разнообразные формы его внутреннего строя дают весьма богатый материал для сравнения фактов внутри самого русского языка. Например, одно и то же значение определения может быть выражено разными существительными в родительном падеже, оформленном неодинаковым показателем. Сравните: Министерство обороны, Министерство культуры. Эти конструкции составляют одну и ту же языковую модель, которую можно схематически выразить как «И.п.+Р.п.». Поэтому хороший эффект при изучении подобных конструкций дают хорошо продуманные, графически выдержанные схемы моделей типа:



При изучении особенностей глагольного управления в русском языке, а именно: употребления при глаголах имен существительных в родительном падеже без предлога, полезно подобрать из словаря определенное количество слов наиболее употребительных глаголов, которые сочетаются с существительными в родительном падеже без предлога (вернее употребляют родительным падежом без предлога). Так, например, при глаголах *ждать, желать, искать, просить* имена существительные в родительном падеже без предлога обозначают предмет желания, ожидания: Мы хотим мира во всем мире. – Биз бутун дунёда тинчлик истаймиз. Я очень долго ждала весны. – Мен бахорни жуда кўп кутдим. Александр добился высоких

результатов. – Александр юқори кўрсаткичларга эришди. Прошу прощения за опоздание. – Кечикканим учун узр сўрайман. Всем людям желаю здоровья, успехов и счастья. – Барча инсонларга соғлиқ, омад ва бахт тилайман.

Употребление имен существительных в родительном падеже без предлога при глаголах «опасения», «лишения», «удаления» резко отличается от формы управления в узбекском языке. Сравните формы глагольного управления в сопоставляемых языках в эквивалентных конструкциях. Они не боятся трудностей. – Улар қийинчиликлардан кўркмайдилар. Андрея лишили водительских прав. – Андрейни ҳайдовчилик гувоҳномасидан маҳрум қилишди. Моя сестренка боится темноты. – Менинг синглим қоронғиликдан кўрқади. Опасаясь простуды, я не пью холодную воду. – Шамоллашдан кўрқиб совуқ сув ичмайман.

Еще более необычным для студентов национальных групп является употребление имен существительных русского языка как обозначение субъекта в структуре конструкции со значением отрицания: у меня есть карандаш. – У меня нет карандаша. У мамы есть платок. – У мамы нет платка. У брата есть машина. – У брата нет машины. У Аллы есть кукла. – У Аллы нет куклы. У папы есть золотые часы. – У папы нет золотых часов. У сестры есть туфли на каблуках. – У сестры нет туфель на каблуках.

Особым и специфичным в русском языке является сочетание количественного числительного с существительным, которое употребляется в счете. Синтаксическая связь строится так: числительное один (одна, одно, одни) согласуется с существительным в падеже, числе и роде. Например: 1. Сто двадцать восемь учеников. 2. Мама купила две тетради, два карандаша и одну ручку. 3. Два дня продолжался наш отпуск. 4. Я как-то в воскресенье просидел с удочкой весь день и поймал трех маленьких пескариков (В. Распутин). 5. В первый раз я спустил девяносто копеек, во второй – шестьдесят (В. Распутин). 6. Я осторожно вынул одну трубочку (В. Распутин). 7. Я своими собственными глазами на расстоянии двадцати сантиметров видел, что она трогала монету, а она уверяет меня, что не трогала (В. Распутин). 8. А внизу в толстой ватной обертке я нашел три красных яблока (В. Распутин). 9. Но не успели они сделать и десяти шагов, как с балкона понеслись новые пронзительные крики (А. Куприн). 10. Старший мальчик первый оторвался от созерцания очаровательного зрелища (А. Куприн). 11. Минут десять никто не мог произнести ни слова (А. Куприн). 12. Через две минуты Гришка уже растапливал печку дровами (А. Куприн). 13. Я ждал двадцать девятое февраля (А. Алексин). 14. Двадцать восьмое февраля – это суббота (А. Алексин). 15. Седьмая вода на киселе (погов.). 16. Один в поле не воин (погов.). 17. Семеро одного не ждут (погов.). 18. Одно дерево срубишь – десять посади (погов.). 19. В классе сидели десять мальчиков и восемь девочек. 20. Мой брат учится в четвертом классе.

УЎК: 811.512.133-25

## НУТҚИЙ КОННОТАЦИЯНИНГ МОРФОЛОГИК УСУЛДА ИФОДАЛАНИШИ (Ўзбек болалари нутқи мисолида)

*М.А. Қурбонова, ф.ф.д., доц., Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети,  
Тошкент*

**Аннотация.** Мақолада нутқда коннотатив вазифа бажарувчи морфологик бирликлар ажратилиб, болалар ва катталарга хос морфопрагматик бирликларнинг фарқли жиҳатлари асосланган. Коннотациянинг болалар нутқида ҳосил бўлиши усуллари тадқиқ этилган.

**Калим сўзлар:** коннотация, прагматика, болалар нутқи, аффикс, коммуникатив мақсад.

**Аннотация.** В статье определены морфологические единицы, выполняющие коннотативную функцию в речи, обоснованы дифференциальные особенности морфопрагматических единиц, свойственных речи взрослых и детей. Исследованы способы образования коннотации в детской речи.

**Ключевые слова:** коннотация, прагматика, детская речь, аффикс, коммуникативная интенция.

**Abstract.** The article morphological units that perform connotative function in speech have been defined, and different aspects of morphopragmatical unit's peculiar to children and adults have been substantiated. The ways of formation of the connotation in children's speech have been revealed.

**Key words:** connotation, pragmatics, child's speech, affix, communicative purpose.

Нутқ бирликларининг прагматик талқинида коннотатив воситалар муҳим ўрин тутди. Коннотациянинг ўзига хос ифодаси болалар нутқида ёрқин акс этади. Улар нутқ жараёнида кичрайтириш, эркалаш, улуғлаш, катталаштириш, кучайтириш, фахрланиш, ҳурмат маъносини ҳосил қилувчи аффикслар ёрдамида коннотатив маънони ҳосил қиладилар. Ўзбек тилида кичрайтириш маъносини ҳосил қилувчи *-ча, -чоқ, -чак, -чиқ* аффикслари қайд этилади. Булардан *-ча* аффикси болалар нутқида ниҳоятда кенг ишлатилади.

Кузатишларимиз шуни кўрсатадики, мактабгача ёшдаги болалар *-ча* аффиксини турли морфологик бирликларга қўшиб қўллайдилар. Бундай ҳолатда *-ча* аффикси кичрайтириш маъносидан ташқари бошқа коннотатив маъноларни ҳам ҳосил қилади.

Э.Қиличев *-ча* аффиксининг *қозонча, тақсимча, дафтарча, болача, йигитча, хотинча* сўзлари таркибида объектив кичиклик маъносидан ташқари, субъектив баҳо маъносини ҳам ифодалаши, “*Кечга қолдинг, тулкичам, кеч келдим эчкичам*” мисолида кичрайтириш ва эмоционал маънони ифодалаши, атокли отларга қўшилганда сўзловчининг салбий эмоцияси бўрттирилиши (“*Шундай эмасми, Файзича? – деб сўради бой*”), эгалик аффикси билан ёнма-ён келиб, ўрни билан кесатиш, пичинг, ҳазил маъноларини ифодалашини қайд этган [1, 21].

Р.Сайфуллаева бошчилигидаги муаллифлар гуруҳи томонидан ёзилган “Ҳозирги ўзбек адабий тили” китобида *-ча* аффиксининг *домлача, одамча* каби сўзларда камситиш маъносини ҳам ҳосил қилиши кўрсатилган [2, 231]. Мазкур ҳолат, асосан, катталар нутқида хос бўлиб, болалар коммуникатив фаолиятида учратмадик.

Катталардан фарқли тарзда болалар, хусусан, мактабгача ёшдаги болаларда *-ча* аффикси кичрайтириш, эркалаш, суйиш каби коннотатив маъноларни ҳосил қилади. *-ча* аффикси эгалик аффикси билан бирга қўлланганда бу каби коннотатив маънолар янада ёрқинлашади. Масалан:

а) кичрайтириш: *Санамбуви уч ёшли Роҳила деган кўғирчоққа ўхшаган сингилчаси бор эдику, ўшаниям эргаштириб чиқибди.* (Х.Тўхтабоев. “Жаннати одамлар”)

б) эркалаш-суйиш маъноси: *Бетимни иссиққина баданига босиб, “бузоқчам, шириним”, деб эркалайман.* (Х.Тўхтабоев. “Жаннати одамлар”)

Баъзан бола нутқида кичрайтириш кўшимчалари қўша қўлланади. Бундай ҳолатда *-ча* кўшимчаси эркалаш маъносини ифодалаш учун хизмат қилади. Мактабгача ёшдаги болалар нутқида *қўзичоқчам, тойчоқчам* сўзларида кичрайтириш кўшимчаларининг қўша қўлланиши қайд этилди.

Болалардан фарқли тарзда катталар нутқида кичрайтириш ва эркалаш шакллариининг бир асосга кетма-кет қўшилиши ҳам кузатилади: *бўталоқча, қизалоқча, қўзичоққинам* [3, 276].

Манбаларда *-чоқ, -чак, -чиқ* аффиксларининг санокли сўзларга қўшилиб, кичрайтириш маъносини ҳосил қилиши қайд этилган. Масалан, “Ҳозирги ўзбек адабий тили” китобида *-чоқ, -чак* аффикслари билан ҳосил бўлган *тойчоқ, қўзичоқ, келинчак, тугунчак* сўзларида кичрайтириш маъноси ҳосил бўлганлиги қайд этилган [4, 243]. Бизнингча, *-чоқ* аффиксининг кичиклик семасига эга бўлган *қўзи, той* сўзларига қўшилишида (*қўзичоқ, тойчоқ*) янада кичикликни ифода этувчи коннотатив маъно ҳосил бўлади. Шунингдек, бу сўзлар катталар томонидан болаларга нисбатан кўчма маънода, эркалашни ифода этишда қўлланганда ҳам, коннотатив вазифа бажаради. Мана шу ҳолатларни ҳисобга олмаганда, кўрсатилган аффиксларнинг нафақат болалар нутқида, катталар коммуникатив фаолиятида ҳам коннотацияни ҳосил қилиши чегараланган.

Мактаб ёшидаги болалар нутқида *-гина (-кина, -қина)* аффикси нафақат эркалаш, балки кичиклик маъносини бўрттириб кўрсатиш орқали ҳам коннотацияга йўл очади. Масалан:

*Ҳандалакдеккина қишлоғимиз бор: уч маҳаллага бўлинган бўлса ҳам, орастагина, шинамгина.* (Н.Фозилов. “Болалигим – пошшолигим”)

Ўзбек тилида эркалаш маъносини ҳосил қилувчи аффикслар сифатида *-жон, -хон, -ой, -бой, -лоқ (-алоқ), -гина, (-кина, -қина), -той* кабилар ажратилади. Булар ичида *-жон, -гина, (-кина, -қина)* аффикслари болалар нутқида нисбатан фаол қўлланиб, нутқий коннотацияни ҳосил қилади.

Болалар *-жон* аффиксидан эркалаш, суйиш, ҳурмат маъноларини ифодалашда кенг фойдаланадилар. Қуйидаги мисолларда *-жон* аффикси эркалаш маъносини ҳосил қилишда ишлатилган:

1. – ... *Хўш, қани айт-чи ўғлим, одобли бола қанақа бўлади?*

– *Йиқилиб тушганда йиглаб ўтирмайди, дарров ўрнидан туриб кетаверади.*

– *Яхши! Яна қанақа бўлади?*

...– Яна, укаси йиқилганда ўрнидан турғизиб, йиглама, **укажоним**, йиглама, деб елкасини силаб қўяди. (Х.Тўхтабоев. “Жаннати одамлар”)

2. Танишиб қўяйлик: отим Ҳошим, эркалатиб чақирмоқчи бўлсангиз, Ҳошимжон деб атайсиз. (Х.Тўхтабоев. “Сариқ девни миниб”)

Болалар -жон аффиксини суйиш маъносини ифодалашда ҳам қўллайдилар. Масалан:

1. Аста ўрнимдан туриб билдирмасдан бориб, **энажонимнинг** бўйнидан маҳкам қучоқлаб олдим. (Х.Тўхтабоев. “Жаннати одамлар”)

2. Қорин ҳам очган, **ойижоним** пишириб қўйган **паловжонни** кўз олдимга келтириб, ҳар замонда лабларимни чапиллатиб қўяман. (Х.Тўхтабоев. “Сариқ девни миниб”)

3. – **Акажон**, сиззи яхши кўраман. (Тошкент шаҳар шеvasида сўзлашувчи Абдуллох Муҳиддинов, 4 ёш).

Болалар нутқида қўлланган -жон аффикси баъзан ҳурмат маъносини ҳосил қилади. Масалан: *Ўша ака жудаям яхши экан. Катта бўлганда, Худо хоҳласа менам шунақа ака бўламан. **Бобожонлар** йиқилганда ўрнидан турғизиб қўяман, зорланса, кўчатларини кўчириб бераман.* (Х.Тўхтабоев. “Жаннати одамлар”)

Болалар нутқида қўлланган -гина, (-кина, -қина) аффикси эркалаш маъносидан ташқари, маънони кучайтириш вазифасини бажариб, коннотацияни ҳосил қилади. Қиёсланг:

*Бундай қарасам... Оббо, сочларига ленталар тақиб, **оппоққина** қўйлақларини кийиб, бир даста гулни бағрига босиб, бир чеккада Доноҳон турибдилар!* (Х.Тўхтабоев. “Сариқ девни миниб”).

Ўзбек тилида улуғлаш, катталаштириш, кучайтириш маъносини ҳосил қилувчи -вор, -кон, -дон, -он аффикслари ҳам нутқий коннотацияни ҳосил қилади. Булар ичида -кон аффикси болалар нутқида нисбатан кўпроқ ишлатилиб, муайян коммуникатив мақсадни ифодалашга хизмат қилади. Мазкур аффикс белгининг меъёрдан ортиқлиги маъносини ҳосил қилиб, коннотацияга йўл очади. Масалан:

*Ҳатто мана бундай шабадасиз оқшомда сизирларнинг туёқларидан кўтарилган оппоқ чаннинг каттакон жулдур кўрпага ўхшаб ҳавода муаллақ қалқиб юриши, ҳамма-ҳаммаси ҳар куни бўладиган манзара.* (Н.Фозилов. “Болалигим – пошшолигим”)

Ўзбек тилида эгалик аффиксларининг фахрланиш, ҳурмат, танқид, кесатик маъноларини ҳам ҳосил қилиши илмий асосланган [5,75], [6,86]. Эгалик қўшимчаларининг бу каби коннотатив маъноларни акс эттириши мактаб ёшидаги болалар нутқида хос хусусият ҳисобланади. Масалан:

1. Бу аҳволда ишим пачава бўладиганга ўхшайди. Қалли отанинг номзодини ўзим таклиф қилиб, буёқларга ўзим келган бўлсам-у, Тўрткўлга сўппайиб қуруқ борсам! Нима деган одам бўламан. Айниқса, Самад қув нима дейди? Йўқ, бу **ишингиз** бўлмайди, Согиндиқвой! (Н.Фозилов. “Болалигим - пошшолигим”)

2. Ман сани касринга қолиб, бутун бошли қўйдан айрилдим.

– Қўй дийсанми? Ўзинга ўхшаб, зўрга оёғини судрарди.

– Ман уни боқиб, семиртирдим.

– *Бари бир йўлда ўлиб қоларди-ю! Эҳ ҳа, хаёлизда бириз ўн бўлиб, бойиб кетдизми-а?* (Ш.Аббосов, А.Наумов. “Шум бола” кинофильми)

Биринчи мисолда қўлланган **ишингиз** сўз шакли таркибидаги эгалик аффикси кўплик ёки ҳурматни ифода этмаган, балки сўзловчининг ўзига нисбатан танқид оттенкасини ҳосил қилган. Иккинчи мисолда эса эгалик аффиксининг шевага хос шакли (-из)га кесатик маъноси юкланган.

Хуллас, болалар нутқида коннотациянинг ифодаланишида морфологик бирликлар ҳам алоҳида ўрин тутади. Морфологик бирликлар сирасида, айниқса, луғавий шакл ясовчилар ва аффикс юкламалар фаол иштирок этади ва болалар нутқининг ўзига хос жиҳатларини намоён қилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
2. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
4. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
5. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983.
6. Максумова С.С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012.

## ТИЛДАГИ НОАНИҚЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ КЎРИНИШЛАРИ

(Ўзбек тили синтактик омонимлари мисолида)

*Н.С. Сайидирахимова, ф.ф.н., доц., Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, Тошкент*

**Аннотация.** Мақолада тилда намоён бўлувчи – ноаниқликлардан бири саналган омонимия ҳодисаси хусусида фикр юритилади. Унда омонимия тилнинг нафақат лексик-семантик сатҳи объекти, балки тилнинг турли сатҳларида қузатилувчи кўп қиррали ҳодиса сифатида талқин қилинади. Шунингдек, синтактик сатҳдаги омонимиянинг юзага келиши, яъни синтактик ноаниқликларнинг келтириб чиқарувчи: лингвистик омилар ва когнитив асослари аниқланиб, таҳлилга тортилади.

**Калим сўзлар:** тилдаги ноаниқликлар, полисемия, омонимия, билатериал бирликлар, синтактик омонимия, структур омонимия, когнитив асослар, кодлаштирилган пропозициялар.

**Аннотация.** В данной статье идёт речь о языковой неоднозначности, как полисемия и омонимия. А также, омонимия рассматривается как многоаспектным явлением языка, точнее объектом синтаксического уровня. Анализируются синтаксические омонимы узбекского языка. Выявлены лингвистические принципы и когнитивные основы проявления синтаксической омонимии и предоставляются выводы по изученным объектом.

**Ключевые слова:** языковые неоднозначности, полисемия, омонимия, билатериальные единицы, синтаксическая омонимия, структурная омонимия, когнитивные основы, закодированные пропозиции.

**Abstract.** This article is about linguistic ambiguity, like ambiguities and homonymy. And also homonyms is considered as a multidimensional phenomenon of the language, more precisely, an object of the syntactic level. The syntactic homonyms of the Uzbek language are analyzed. The linguistic principles and cognitive foundations of the manifestation of syntactic homonyms are revealed and conclusions are drawn on the studied object.

**Key words:** linguistic ambiguities, polysemy, homonymy, bilateral units, syntactic ononymy, structural homonymy, cognitive foundations, encoded propositions.

Тилдаги ноаниқлик тил белгисининг икки ва ундан ортиқ маъно англатиши демакдир [5, 36-42].

Тил белгилари – икки томонлама: ифода (ташқи - оптик-график) ва ифодаловчи (мазмун) планига эга бўлган билатериал бирликлар саналади. Бироқ уларда тилнинг икки (ифода ва мазмун) томони шартланганлигига қарамай, улар тилдаги умумий ассимметрия қонунларига бўйсунди ва айрим ҳолатларда тилда турли ноаниқликларни намоён этади.

Бизнингча, тилдаги ноаниқликлар, ягона ифодаланувчининг турли ифодаланувчиларга эга бўлиши натижасида юзага келади [5, 36-42]. Бундай ноаниқликларнинг асосий кўриниши кўпмаънолилиқ (полисемия) ва омонимия ҳодисалари саналади. Маълумки, полисемия сўзларнинг икки ва ундан ортиқ лексик маънога эга бўлиши саналади. Масалан, “Игна” сўзи, матн таркиби ва нутқий ситуацияда турли маъноларни англатиши: 1.Игна (тикиш машинаси учун ишланган маҳсул восита). 2.Игна. Қўлда тикиш учун мўлжалланган анжом. 3. Игна. Арча дарахти игнаси. 4. Игна. Янтоқли ўсимликлар игнаси. 6. Игна. Типратикон игнаси каби қатор маъноларни англатиши билан кўпмаънолилиқ ҳосил қилади. Бироқ барча ифода-мазмун ҳолатларида ҳам “*учи учли, ингичка, ўтқир*” умумий маъно семасининг сақланиши ва доминатлашиши тилда ноаниқликларнинг юзага келиши учун йўл очади.

Маълумки, омонимия – тилдаги бирликларнинг товуш ва график жиҳатдан тенг келиш ҳодисаси саналади. Масалан, “пўст-пост” сўзи “*илоннинг пўсти*”, “*олманинг пўсти*” каби маъноларни англатиши, бироқ ўзга тилдан кириб келган “*пост*” сўзи билан талаффузда яқинлашиши, бу сўзнинг ўзи эса “*пост*” – “*милиция таянч пункти – милиция пости*”, “*Интернетда қолдирган хабар – пост*” маъноларини англатиши билан ҳам кўпмаънолилиқ, ҳам омонимиялик характериға киришиши тилдаги ноаниқликларнинг келиб чиқишига асос бўла олади.

Тилдаги ноаниқликлар тилнинг барча сатҳ бирликлари: морфем, сўз шакллари, лексик-семантик, фразеологик бирликлар, сўз бирикмалари ва гапларда намоён бўлувчи кўпқиррали лингвистик ҳодиса саналади.

Бундан ташқари омонимия юқорида таъкидланганидек, тилшуносликнинг графика бўлими, яъни график тизимида фонема ва графеманинг тенг келишида, масалан, *офтоб-офтон; гард-гарт; барг-барк* каби квазиомонимлар таркибида фонемаларнинг нейтрализация (мўътадиллашуви) ҳодисасига учраши, шунингдек, ўзбек тилида полифонемали графемалар саналган “о” ва “ж” фонемалари таркибига (“ота” сўзидаги ўзбекча “о” фонемасини, “водород” сўзида ўзбек тилидаги “у” фонемасини ифодалаши; “жўжа”, “жўра” сўзларида ўзбек тилидаги сирғалувчи “ж” фонемасини; “жем”, “жемфер”, “аждар”, “мужда” каби ўзлашма сўзлар таркибида қоришиқ “дж” фонемасини ифодалаши) икки фонеманинг кодлаштирилиш ҳолатларида ҳам кузатилиб, тилдаги ноаникликлар, шунингдек, кўпинча омограф ва омофонлар (*ток/ток; тўрт/торт*)нинг юзага келишига ҳам сабаб бўлади.

Лексик сатҳда омонимия ҳодисаси ҳам айтилиш ва ёзилиши бир хил бўлиши ва оғзаки ҳамда ёзма нутқда тенг келиб қолиши деб изоҳланиб, мазкур ҳолатлар тилда, аниқроғи ифодада, турли ноаникликларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Масалан, “наво” сўзи омонимик характерга эгаллиги [6, 5] билан тилда турли ноаникликларнинг келиб чиқишига сабаб бўлишини кўриш мумкин:

НАВО I - Куй, оҳанг; хониш. *Кумрининг тўйи: Безалган уйи, Найнинг навоси Қайта-қайтадан Чалиниб тинмай.* Ғ. Ғулом.

НАВО II - Ярим ёй шаклидаги безак тури; шифт билан девор оралиғидаги қайрилма эгик безак. *Уста Ширин Муродовнинг гангли ажойиб наволари кўпгина биноларни беади.* Газетадан.

Айтиш жоизки, тилдаги омонимия ҳодисаси шу кунга қадар лексик-семантик, морфологик сатҳда ўрганиб келинди, бироқ у тилнинг барча сатҳларида намоён бўлувчи кўпқиррали ҳодиса саналадики, унинг синтактик сатҳда ўрганилиши ҳозирги ўзбек тилшунослиги илмида ўз ечимини кутаётган масалалардан бири саналади.

Замонавий тилшуносликда асосида икки томонлама синтактик боғлиқлик, яъни айни дамда сўз ва сўз бирикмалари бир қанча доминантга боғлиқ бўлган конструкциялар кенг тарқалган [1, 29-31]. Бизнингча, синтактик боғланишнинг бундай ностандарт кўриниши структур ва синтактик омонимия билан узвий алоқадор.

Структур омонимия тушунчаси остида биз бир қанча доминантасига эга бўлган нутқий занжирни тушунамиз [5, 37], бироқ мазкур ҳолатда жумланинг асосий маъно-мазмун плани ўзгармайди, яъни асосий етакчилик қилаётган мазмун матндан, нутқий вазиятдан англашилади. Масалан: “*Бошлиққа хужжатлар тақдим этилди*” гапида “*хужжатлар*”, “*У тутқични тутиб турди*” гапидаги “*тутқич*” сўзи, “*Қудрат тугмани босди*” гапида эса, “*тугма*” сўзи, “*Буларни Назокат тугди*” гапида эса “*тугди*” сўзининг қўлланилиши синтактик ноаниқликка йўл очганини кўришимиз мумкин. Сабаби мазкур синтактик конструкцияларни таҳлил қиладиган бўлсак, биринчи гапдан “*қозонни ушлашдаги тутқични тутиб турганлиги*” / “*Эшик тутқичини ушлаб турганлиги*”; иккинчи гап орқали “*Кийимнинг тугмасини босганлиги*” / “*Эшик кўнғироғининг тугмасини босганлиги*” / “*Стул четидаги тугмани босганлиги*”; учинчи гапдан эса “*Ипнинг тугунларини Назокат тукканлиги*” / “*Чучвара (сомса, манти)ларни Назокат тукканлиги*” / “*Тоғора (шевада – тугун)ларни Назокат тукканлиги*” каби пропозициялар англашилади, мазкур пропозициялар эса тилнинг турли сатҳларида қаралувчи синтактик омонимиянинг юзага келишига йўл очади.

Синтактик омонимия ўзида шундай лингвистик ҳодисани намоён этадики, синтактик қурилма таркибига кодлаштирилган пропозицияларнинг фақатгина биттаси белгиланган нутқий вазиятга мувофиқ реаллашди, яъни нутқий ифода репрезентацияси сифатида намоён бўлади. Бошқача айтганда, синтактик омонимия моҳиятига эга бўлган конструкцияларда икки томонлама боғлиқлик, яъни бир сўз ёки бир қанча сўз гуруҳларининг барчаси умумий доминантга боғланади, бироқ нутқий ифодада нутқий шароит тақозосига бевосита боғлиқ равишда доминантга бирлаштирувчи ифода семантикаси ўзгаради. Масалан, “*Мен сизга уй бердим, вақтида туз бердим, пешонангизни силадим*” гапидаги “*туз бердим*” бирикмаси “*уй бердим*”, “*пешонангизни силадим*” бирикмалари билан бемалол боғланади, яъни омонимлашаётган элементнинг синтактик қурилманинг қайси доминантга тобелигидан келиб чиқиб, жумла икки ва ундан ортиқ: 1) ош тузи – намакни бергани; 2) нон-ош-овқат бергани; 3) бошпана берганлиги каби пропозицияларда англашилиши мумкин ва кези келганда “*уй бердим*”, “*пешонангизни силадим*” бирикмалари “*туз бердим*” бирикмаси ўрнида бемалол ишлатилиши мумкин.

Аслида эса синтактик ноаникликлар ифоданинг асл мазмунини бузади ва коммуникатив жараёнда узатилаётган фикрни тўғри англашни қийинлаштиради. Шу сабабли, бемалол айтиш

мумкинки, гаплардаги бундай ҳолатларни лингвистик ҳамда когнитив нуқтаи назардан ўрганиш ўта муҳим саналади. Бироқ синтактик ноаниқликлар – синтактик омонимларни белгилаш, уларнинг лисоний ва когнитив омиллари хусусида гапириш тилда бироз қийинчиликларини туғдиради.

Анъанавий ва хорижий тилшунос олимларининг бу борадаги тадқиқот натижалари [3, 38; 4, 23-35; 5, 38] ҳамда ўзимизнинг қузатишларимиз асосида шундай хулосага келдикки, синтактик жиҳатдан ноаниқ конструкциялар – синтактик омонимияни аниқлаш ва бартараф этишда икки томонлама алоқа-мазмунни ифодалайдиган жумла – гап таркибий қисмларидан бирининг омонимлигини бузиш саналади.

Бизнингча, кўзланган мақсадга эришиш турли усуллар орқали амалга оширилиши ҳам мумкин. Бунда ифода ва контекст таркибидаги сўзлар асосий деомонимизаторлар сифатида танланади. Бундан ташқари, синтактик ноаниқликларни бартараф этишнинг яна бир қанча усуллари мавжуд бўлиб, бунда гапнинг таркибий қисмларини янгилари билан алмаштириш, сўзнинг грамматик шаклларини ўзгартириб кўриш, бир ифодани бошқаси билан алмаштириб кўриш, синтактик конструкция таркибини қайтадан тузиб чиқиш, ишоравий белгиларни, шунингдек, экстралингвистик усулларни (шеърый матнларни нутқнинг фонетик жиҳатдан бўлинишига асосланиб, турли синтагмаларга ажратиб) қўллаш синтактик сатҳдаги омонимияни аниқлаштириш ҳамда уни бартараф этиш имконини беради. Бироқ синтактик ноаниқликларни аниқлашда бундай усулларни қўллашдан олдин матнда синтактик омонимияга йўл очаётган турли омилларни топиш ва аниқлик киритиш лозим бўлади. Сабаби бу жараёнда омонимик конструкцияларнинг спецификасига боғлиқ равишда муайян муаммолар келиб чиқиши мумкин. Рус тилшуноси А.Н.Гвоздев таъбири билан айтганда, “инсоннинг фақат тилни ҳис қилиш қобилияти омонимларни аниқлашга сабаб бўла олмайди, балки у омонимларни аниқлашга қаратилган тил материални онгли равишда лингвистик жиҳатдан кўриб чиқиш орқалигина аниқланади” [2, 382]. Олимнинг айтишича, бундай конструкциялар матн яратилаётган жараёнда эмас, балки муаллифнинг матнни яратиш, ундан анча узоқлашганидан бироз кейин кашф этилади. Бироқ шунинг унутмаслик керакки, ноаниқликларни аниқлашда муайян оралиқ вақт зарурлиги ҳар доим ҳам ижобий натижа беравермайди. Сабаби, талабалар томонидан аудиторияда топшириқларни бажарётганларида, мактаб ўқувчилари томонидан иншо, баён каби ёзма ишларнинг бажарилишида, шунингдек, журналистик амалиётга йўналтирилган ноширлик ишларида омонимияни тезлик билан аниқлаш мутлақо мумкин эмас.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ўзбек тилида турли ноаниқликларга сабаб бўлувчи омиллар, синтактик конструкцияларнинг кўплаб учрашига қарамай, тилшуносликда омонимиянинг тилнинг юқори синтактик босқичида юзага келиши деярли ўрганилмаган. Эътибор берсак, кўпгина тилшунослар синтактик сатҳдаги омонимия ҳақида гапирганда синтактик жиҳатдан бир хил конструкциялар ёки гап турлари ўртасидаги омонимия ва полисемия ёки матнни автоматик қайта ишлаш жараёнида юзага келувчи синтактик ноаниқликлар ҳақида шунчаки, тўхталиб ўтганликларини кўришимиз мумкин [1, 30-38; 3, 39-43]. Аслида эса, тилда юзага келувчи ноаниқликлар, хусусан, синтактик омонимия ҳодисасини мукамал лингвистик ҳамда когнитив аспектда ўрганиш, таҳлилга тортиш ҳамда уларнинг юзага келишидаги когнитив асосларни белгилаш тилшунослик илмида бир қатор янги-янги хулосаларга олиб келиши мумкин.

### **ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Лутфуллаева Д. Лексик ва синтактик семантика муносабати. Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари // Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, ТДПУ, 2015.
2. Гвоздев А. Н. Об одной проблеме стилистики / А. Н. Гвоздев // Очерки по стилистике русского языка – М.: КомКнига, 2009.
3. Лутфуллаева Д. Гапнинг семантик қурилиш узвлари. Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: Унив., 2004.
4. Ермаков А.Е. Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии/А.Е.Ермаков//Труды Международного семинара Диалог' 2002 : в 2 т. – М. : Наука, 2002. Т. 2. – 2002.
5. Сайидирахимова Н. Синтактик омонимия юзага келишининг когнитив асослари/О'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Тошкент.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-том. –Тошкент: ЎзМЭ, 2007. –Б. 5.



ЎУК: 82

## МЕКЕМБОЙ ОМАРОВ ИЖОДИДА ЭКОЛОГИК МАВЗУНИНГ ЁРИТИЛИШИ

Б.Т. Уразов, ўқитувчи, Гулистон давлат университети, Гулистон

**Аннотация.** Ушбу мақола Мекембой Омаров ижодини таҳлил қилади ва унинг ижодий фаолиятидаги йўналишларни баён қилади. Мақолада диққат марказига қўйилган мавзу бу М. Омаровнинг ўз шеърларида атроф-муҳитни, табиатни хониши қилишидир. Муаллиф бу инсонни серқирра ижодкор эканлигини айтиб ўтган ва унинг шеъррий тўпламларидан бир нечасини мисол тариқасида тақдим қилган. Шунингдек мазкур шеърларни таҳлилини ҳам айтиб ўтган.

**Калит сўзлар:** табиат, бевосита, билвосита, экология, ижод, шоир, тўплам, ватан.

**Аннотация.** В данной статье будут проанализированы работы, сделанные Мекембаем Омаровым, и рассказано о направлении его деятельности. Основное внимание в этой статье уделено теме М. Омарова, чьи стихи основаны на темах о природе и окружающей среде. Автор утверждает, что этот поэт очень креативен, и приводит в качестве примера несколько сборников его стихов. Также в статье был проведен анализ этих стихов.

**Ключевые слова:** природа, прямой, косвенный, экология, творчество, поэт, холм, родина.

**Abstract.** The following article will analyze the works done by Mekembay Omarov and talks about the direction of his activities. The main attention in this article is paid to the theme of M. Omarov whose poems are based on the topics about the nature and environment. Author claims that this poet is very creative and cites several collections of his poems as an example. Also, the analysis of those poems took place in the article.

**Key words:** nature, direct, indirect, ecology, creativity, poet, hill, homeland.

Ижодкор, айниқса шоир одам ўз ижодида ҳар битта асаридида табиат мавзусига, теварак атрофдаги нарсалар, жониворлар ва ўсимликлар дунёси мавзуларига мурожаат қилмай иложи йўқ. Шоир ватан ҳақида ёзадими, эл-юрт, одамлар, манзаралар, атроф-муҳитдаги нарсалар ҳақида шеър битадими – бунда ҳар битта сатрда, сатрлардаги фикрда ё бевосита, ёки билвосита экологик муносабатларни албатта тилга олиб ўтади, воқеа ҳодисаларга шоир сифатида ёндашади, ёритади, изоҳ беради, тасвирлайди. Бинобарин, ҳар қандай шоирнинг ҳар қандай тўпламини биз чин маънода “экологик мавзулардаги тўплам” деб айта оламиз. Бунинг мазмун-мантики шундан иборатки, шоир ижодидаги ҳар бир шеърда Ватан, инсоний кечинмалар, нарсалар билан бирга, табиатга, жонли ва жонсиз нарсаларга, фауна ва флорага оид мавзуларга – бир сўз билан айтганда экологияга оид шеърлар, фикрлар албатта жой олган бўлади.

“Экология” сўзи қадимги юнон (грек) тилидаги “ойкос” – уй, ватан ва “логия” – билим, таълимот маъноларини англатувчи сўзлардан ясалган бўлиб, биология фанининг бир бўлаги сифатида жониворлар, ўсимликлар, микроорганизмларнинг ўзаро муносабатларини ва теварак атроф билан муносабатларини ўргатувчи фан ҳисобланади. Бинобарин, инсоннинг ўзи яшаб турган теварак - атрофдаги, ундаги ўсимликлар, жониворлар (фауна ва флора) оламига нисбатан, табиатга, борлик, жонли ва жонсиз нарсаларга нисбатан муносабат ифодаланган ҳар қандай мақола, асар, таълимот, илмий йўналиш ҳам мана шу “экология” сўзи билан англатилган бўлади. Агар мана шу юқоридаги айтганлардан келиб чиқиб, биз ўрганаётган шоир – Мекембой Омаров ижодини экология нуқтаи назаридан олиб қараганда ҳам, унинг ижодкор, шоир, педагог, журналист каби ижодий йўналишида ҳам экологияга оид жуда кўплаб асарлари мавжудлигига ишонч ҳосил қиламиз. Масалан, М.Омаровнинг болалар шоири сифатида ёзган шеърларининг сарлавҳасига бир кўз югуртириб чиқайлик. Шоирнинг “Махаббат” (“Мухаббат”) номли шеъррий тўпламида “Кўғали кўл”, “Бўстонлиқ. Январ”, “Самсерек. Август”, “Шау-кеншек. Февраль”, “Ўрик”, “Менинг ватаним”, “Юлдузлар”, “Қибрай, чилла”, “Чойиб олиб ёсирга”, “Тўзилган юрт”, “Тўрғай”, “Асқар тоғ”, “Бизнинг эл”, “Турналар”, “Жўжа”, “Капалаклар”, “Пиёз”, “Тошбақа”, “Чия”, “Томчилар”, “Тиканак”, “Кучик”, “Ариқ”, “Чувалчанг”, “Улоқ”, “Кўзи”, “Бузоқ”, “Той”, “Чумчуқ”, “Кирпи”, “Болари”, “Кўк гуллар”, “Астра”, “Ёз” каби шеърларида, “Таудай бол” (“Тоғдай бўл”) номли тўпламидаги “Булут”, “Бўз ёмғир”, “Оқ ёмғир”, “Қора ёмғир”, “Ўткинчи ёмғир”, “Кўнғиз билан чувалчанг”, “Беда-на”, “Балиқ”, “Жухори ва қамиш”, “Чумчуқ билан Булбул”, “Ғўза”, “Поя”, “Новдалар”, “Кишимши”, “Хусайин узуми”, “Қизилча қурт”, “Қовун”, “Рай-ҳон”, “Тарвуз”, “Ошқовоқ”, “Йўлтикан”, “Кўл билан тоғ”, “Қурбақа”, “Қаш-қирнинг алласи”. “Ондатралар”, “Мушук”, “Ипак қурти”, “Кўк чивик”, “Кана билан қумурсқа”, “Ёрқанот (кўришапалак)”, “Чиркай ва чивин”, “Қумурсқа”, “Данак”, “Ўсимлик

тухумлари”, “Бугдой билан бугдойиқ”, “Қуёи” каби юздан зиёд шеърларини, топишмоқларини тилга олиб ўтиш мумкин.

Юқорида айтиб ўтилганидай, ҳақиқий шоир ижодидаги намуналар ҳақида фикр юритилганда, битта шеърнинг ўзини турли мавзуларда, турли йўналишларда талқин қила олиш мумкинлигини айтиб ўтиш лозим бўлади. Яъни, хоҳлаган мавзудаги шеърларида шоир ҳам Ватан мавзусини, ҳам табиат мавзусини, ҳам экологик мавзунини ёритиб бера олади. Масалан, М.Омаровнинг кичиккина бир шеърини келтириб ўтайлик:

#### Бизнинг элда

(“Таудай бол” тўплами, 75-бет)

*Айтайин бир шукрона сўз  
Кун ҳам бугун роса қизди.  
Пиёз кессам – сути чиқиб,  
Кўзларимдан ёш оқизди,  
Сўзимни ким маъқул деркан,  
Тошкент деган – қут-баракам.  
Бизнинг элда сигир тугул,  
Пиёзда ҳам сут бор экан!*

Мана, саккиз қатордан иборат оддий бир шеър. Унда кундалик турмушда тез-тез учрайдиган оддий воқеа – пиёз арчиш жараёни тасвирланган. Пиёз арчиганда, кесганда пиёздан ачимхид чиқиши, бундан эса кўзнинг ёшланиши ҳаммага маълум, буни ҳатто кичкина болалар ҳам билади. Бироқ шоир болалар учун бола бўлиб шу шеърни ёзар экан, пиёздан ҳид билан бирга яна сутга ўхшаш намлик (суюқлик) чиқишини ҳам тасвирлаб ўтади ва бу оқ рангли намликни “пиёздан чиққан сут” дея бола онгига мослаб таърифлайди. Дарҳақиқат, пиёзга тиг ёки пичоқ тегиши билан ундан оқиб чиқадиган суюқлик ранг жиҳатдан сутга ўхшаш – яъни оқ рангда бўлади. Бу ҳам ҳаммага маълум гап. Энди шеърнинг кашфиётига қарангки, бу оддий воқеани (пиёз сувининг сутга ўхшашлигини) шеърга олиб кириш орқали боланинг фикрлаш тарзига мос равишда ўхшатиш қилаяпти, ҳам оддий пиёз сувини поклик, оқлик, муқаддаслик рамзи сифатида сутга қиёслаяпти. Мана шу манзаранинг тасвирдан ўқувчи ўзи учун ўнлаб маъно-мазмун кашф этиб олиши мумкин. Қолаверса пиёз сувининг муқаддас оқликка – сутга ўхшатилишининг ўзиёқ бола тафаккурида янги бир дунёларни – муқаддас тушунчаларни кашф этиб юборади, мурғак онг бундай фавқулотда чиройли сатрлардан дарҳол сергак тортади, фикри равшанлашади, зехнида пиёз суви ҳам худди сут мисоли поклик, покизалик, муқаддаслик касб этади. Бола психологиясини яхши биладиган шоир эса ғурурланишга сабаб-асос бўла оладиган сатрни мурғак онгга шундай етказди: “Бизнинг яшаётган юртимиз, мамлакатимиз шунчалар табаррук ва муқаддаски, бу юртда нафақат сигирларда, ҳатто пиёзида ҳам сут бор!”, - дейди. Бир қарашда оддийгина туюладиган кундалик манзара мана энди бирданига улғу бир тушунчага – “бу юртнинг ҳатто аччиқ пиёзи ҳам муқаддасдир!” деган ғурурбахш фикрга йўл очиб беради.

Ёки, ман М.Омаровнинг болалик хотираларига асосланиб ёзган “Ўрик” шеърини ўқиб чиқайлик. (“Махаббат” тўплами, 9-бет). Шеър катталар учун ёзилган, 10 банддан иборат, унда болалик чоғдаги бир воқеа – ота ва болаларнинг ўрик кўчатини ўтқазиб воқеаси ёдлаб ўтилади. Ота-болаларнинг биргалашиб, боғ-роғ, томорқа ишларини бажаришлари одатдаги воқеа. Шоир мана шу воқеаларни эслаш баробарида ўрик дарахти маҳаллий халқлар учун табаррук эканини, миллий рамз эканини ҳам шеър ораларига қистириб ўтади:

*Заминга турмайсин сен ҳеч эгилмай,  
Томир ёз гулобининг палагиндай.  
Улуснинг бахти бўлар болалар ҳам  
Кўнайсин тубингдаги данагиндай...*

Хуллас, дарахт экилди, барг ёзди, мевага кирди. Орадан йиллар ўтиб, бир куни ўрикнинг вужудига ҳам болта тегди, ёшини яшаб, умри паёнига етган дарахтни кесишга фурсат этади. Яна болалар тўпланади, кўни-кўшнилари чиқади, ҳатто кўшниларидан бири “бу ўрикнинг кўчатини мендан олгандинлар, кесилгандан кейин ҳам менга берасизлар!” деб туриб олади. Аммо уй эгаси дарахтнинг танасини бошқа бир эзгу ишга – дутор (дўмбира) ясаш учун ишлатади. Куни кеча мева бериб ўтган-кетганни ширин-шакар ўрик билан боққан дарахт танаси, мана энди чолғу асбобига айланиб, дилларга маънавий озуқа бера бошлади. Муаллиф бу воқеадан ибратли бир хулоса чиқаради: умр бўйи одамларни ширин мева билан боқиб келган табаррук дарахт оддий

ёғочга айланганидан кейин ҳам кулоқларга ширин куй-наво бағишлайдиган чолғу асбоби бўлиб, давраларнинг тўридан, хоналарнинг энг иззатли жойидан ўрин олди.

Мекебой Омаровнинг экология мавзусига бевосита боғлиқ бўлган шеърлари ҳақида гапирганда, шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, у кичкинтой болалар психологияси, ўйлаш даражаси, кичкинтойларнинг ўз ички оламини яхши биладиган ижодкор. Шу билан бирга, Мекебой Омаров – ҳар қандай воқеадан фалсафий маъно чиқара оладиган, болани ўйлашга, фикр юритишга, ўзича хулосалар чиқаришга даъват қиладиган, шунга “мажбурлай” оладиган педагог-шоир. Масалан, унинг “Турналар” шеърини ўқиб кўрайлик.

#### *Турналар*

*Қувнатар турналар парвози,  
Бир хилда сафларин узмасдан,  
Жанубга йўл олар шу зайл,  
Сира ҳам қаторни бузмасдан.  
Наздимда турналар кўк тоқин  
Ғубордан тозалаб-артибди.  
Бу қушга ярашган фазилят,  
Жуда ҳам одобли, тартибли.  
Жаҳонда қуш зотин тури кўп,  
Барчаси қаторин тўлдирмас.  
Турналар – ҳамжиҳат, шу боис,  
Қатордан ҳеч бирин қолдирмас.*

Мана шу уч бандлик (12 қатор) шеърда инсонлар учун ҳам ибратли фикрни – том маънодаги фалсафий хулоса чиқаришга асос бўладиган ҳаётини манзарани кўрамиз – шоир турналар, турна сафи, уларнинг иссиқ томонларга узоқ йўллик сафари ҳақида, турналарнинг яшаш тарзи, турмушини тасвирлаш орқали ўқувчиларни ғоят муҳим ҳаётини фалсафадан огоҳлантиради – бу, яъни, оддий қуш жониворларнинг (турналарнинг) узоқ сафар чоғида йўлга отланишларида ҳамроҳларини ёлғизлатиб ташлаб кетмасликлари. Турналарнинг шу оддий бир ҳамжиҳатлиги, аҳиллигини айтиш, кўрсатиб бериш орқали ўқувчиларга аҳиллик, иноқлик, баҳамжиҳатлик, “ҳамма” бўлиб яшашнинг афзаллиги ҳатто мана шу қушлар ҳаётига мазмун бағишлашини ёрқин тасвирлаб бера олган.

Кўрамизки, соф экологияга бориб тақаладиган бундай фалсафий, кенг маъноли шеърлар Мекебой Омаров ижодида кўпчиликни ташкил этади. Ваҳоланки, шоир ижодидаги деярли барча шеърларида мана шундай ботиний (ички) фалсафийликни, ҳикматни, панд-насихатга ундайдиган яширин маъноли сўзларни, манзараларни, шартли равишдаги дидактикани учратамиз. Таъбир жоиз бўлса, шоирнинг йил фасллари, табиат ҳодисаларига, манзарали тасвирларга бағишланган шеърлари бир томондан болаларда экологик тарбияга асос бўладиган туйғуларни уйғотишга хизмат қилса, иккинчи томондан экологик мавзулардаги шеърлар бевосита ватанпарварлик, халқ, эл-юрт, қадриятлар ва маънавият ҳиссиётларининг мустаҳкамланишига хизмат қилади. Зеро, экология ҳақидаги энг яхши шеърлар бугун – ватан ҳақидаги энг яхши асарлар дея баҳоланаётгани бежиз эмас, негаки табиат, атроф-муҳит, теварагимиздагидек тириклик дунёси – жониворлар ва ўсимликлар олами ўқувчилар, болалар идрокида энг аввало “Ватан” деган муқаддас тушунчанинг инъикоси (акси), рамзи, кўриниши сифатида қадриятдир. Шоир Мекебой Омаров мана шундай улғу мақсадлар йўлида ҳормай-толмай заҳмат чекаётган ижодкордир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Омаров М. Маҳаббат. –Т.: «Шарқ», 1999. – 79 бет.
2. Омаров М. Атамекен. – Алматы: «Нурлы бейне», 2008. – 82 бет.
3. Омарулы М. Таудай бол. Т.: «Чўлпон», 2009. – 112 бет
4. Ўзбек болалар адабиёти антологияси. 1-жилд. – Тошкент: «Ўқитувчи», 2006 й. – 231-233 б.б.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ  
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

**№4/2(60)  
2020 й., апрель**

Ўзбекча матн муҳаррири:  
Русча матн муҳаррири:  
Инглизча матн муҳаррири:  
Мусахҳих:  
Техник муҳаррир:

Рўзметов Дилшод  
Ҳасанов Шодлик  
Мадаминов Руслан, Ламерс Жон  
Ўрозбоев Абдулла  
Артикбаева Гулистан

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги  
Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 09.03.2020  
Босишга рухсат этилди: 20.03.2020.  
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 35.  
Ҳажми 9,2 б.т. Буюртма: № 10-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими  
220900, Хива, Марказ-1  
Тел/факс: (0 362) 377-51-85  
E-mail: [mamun-axborotnoma@academy.uz](mailto:mamun-axborotnoma@academy.uz)  
[xma\\_axborotnomasi@mail.ru](mailto:xma_axborotnomasi@mail.ru)



(+998) 97-458-28-18